

---

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI  
PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA TILLAR**

**KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

t.f.n. \_\_\_\_\_ G.J.Jarilkasinova

“ \_\_\_\_\_ ” “ \_\_\_\_\_ ” 2018 yil

**“PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA” FANIDAN**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

2019-2020 o'quv yili

Buxoro

---

**Tuzuvchi:**

p.f.n.,dosent G.N.Qurbonova

**Taqrizchi:**

p.f.n.,dosent A.R.Hamroyev

Kafedra mudiri p.f.n.,dosent G.N.Qurbonova:\_\_\_\_\_

MUK rahbari:\_\_\_\_\_

Uslubchi:\_\_\_\_\_Jumayeva SH.B.

---

## MUNDARIJA

I.	Annotatsiya. . . . .
II.	Nazariy mashg'ulot materiallar.....
III.	Amaliy mashg'ulot materiallar.....
IV.	Mustaqil ta'lim mavzulari.....
V.	Test.....
VI.	Glossariy.....
VII.	Adabiyotlar ro'yxati.....

---

## ANNOTATSIYA

**Pedagogika, psixologiya shaxsda kasbga doir bilim, ko'nikma, malakalarni shuningdek, ulardagi mavjud tushuncha, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Ushbu majmuada pedagogika, psixologiya fanini o'rganuvchi asosiy muammolari, predmeti, maqsadi, vazifalari va tadqiqot metodlari, kasb psixologiyasining shakllanish tarixi, Sharq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash masalasi, o'zbek psixologlarining tadqiqotlarida kasb tashlash va kasbga yo'naltirish muammolari, kasb ta'limi faoliyati va unga qo'yiladigan zamonaviy talablar, kasb tushunchasi va kasblarni psixologik tasniflash, kasbiy professiogramma va uning psixologik mazmuni, pedagogika nazariyasi, buyuk allomalarimizning pedagogik qarashlari, pedagogikaning tarixi, nazariyasi, rivojlanish tarixi, ta'lim texnologiyalari va pedagogik muloqot, muloqotning turlari, shaxsga ta'sir etish usullari, Tarbiya nazariyasi, tarbiyaviy ta'sir etish usullar, innovatsion texnologiyalar ularning turlari haqida ilmiy nazariy ma'lumotlar keltirilgan.**

## **1-mavzu: Pedagogika fan sifatida.**

### **Tibbiyot xodimlarini tayyorlashda pedagogik bilimlarning o'ri.**

#### **REJA:**

1. Predmetning ob'ekti va predmetning takomillashganligi.
2. Pedagogikaning maqsad, vazifalari va asosiy kategoriyalari.
3. Pedagogikaning tadqiqot metodlari.
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uning maqsad va vazifalari.

#### **TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

Pedagogika, didaktika, tarbiya nazariyasi, kategoriya, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Kadrlar tayyorlash miliy modeli, Kadrlar tayyorlash miliy modelining tarkibiy qismlari, o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar.

#### **1.1. Predmetning ob'ekti va predmetning takomillashganligi.**

Pedagogika predmeti. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paidagogos («bola» va «etaklayman») tushunchasi asosida shakllangan) shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan muayyan tizimli faoliyat, shuningdek, ta'lim-tarbiya mazmuni, umumiy qonuniyatlari, shakli va metodlari haqidagi fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqloq g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi. «... bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa...» I.A.Karimov.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois ta'lim nazariyasi (didaktika) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

#### **1. 2. Pedagogikaning maqsad, vazifalari va asosiy kategoriyalari**

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirish borasidagi ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida etakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyatini muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun o'quv jarayonini Prezident I.A.Karimovning ushbu fikrlari bilan ko'rsatib o'tamiz «... o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchi va domlarga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor».

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqloq g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirishdek ustuvor vazifani hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Barkamol shaxs va malkali mutaxassisni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Shaxsni kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.
4. Ta'lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

### **1.3. Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari.**

Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalaniish yo'lida olib borgan harakatlari tarbiya g'oyalarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo'lib hayot kechirishi sababli bolalarga tirikchilik o'tkazish yo'lidagi faoliyat (o'simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o'rgatish guruh a'zolari tomonidan birdek amalga oshirilgan. Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o'yin jarayonlarida o'zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jinsiy xarakterga ega bo'lganligi bois o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashda o'ziga xos jihatlar ko'zga tashlangan.

Ta'lim nazariyasi (didaktika) – shaxsni intellektual jihatdan rivojlantirish, ta'lim jarayonining mohiyati, bosqichlari, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyati birligi, o'qitishning mazmuni, shakl, metod va vositalari, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi muammolarni tadqiq etadi.

Ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta'lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni berishga yo'naltiriladi. Umumiy ta'lim asosida o'zlashtirilgan ma'lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga imkon beruvchi maxsus ta'lim olishi uchun asos bo'ladi.

Maxsus ta'lim – o'zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim, shuningdek, darajasi hamda hajmiga ko'ra boshlang'ich, o'rta va oliyta'lim kabi turlarga ham bo'linadi. Kasb ta'limi (kasbiy ta'lim O'zbekiston Respublikasida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limning muhim bo'lagi sanaladi.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning asosiy, muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u jamiyat va oilaning barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlash muammolarini o'rganadi.

Tarbiya - barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlash yo'lida amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ushbu tushuncha negizida odatda aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etilgan pedagogik faoliyat mohiyati, shaxsda tarbiyalangan muayyan sifatlar hamda shakllangan dunyoharash aks etadi.

#### **1. 4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi uning maqsad va vazifalari.**

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati. O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Totalitar boshqaruv usuli asosida, ish yuritilayotgan xalq ta'limi tizimida ham so'nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa'i-harakatlarning samarasi sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun mazmunida Respublika ta'limi tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi. Biroq, 1997 yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tadbiriq tahlil etilganda, bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. SHu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy etukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi.

Fuqarolarning ma'naviy etukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning yaratilishida mazkur jihatlar to'la o'rganildi. Milliy dastur asosini O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jahonning ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarilishiga hissa

qo'shuvchi dadil, mustaqil fikrlovchi, bilimli, malakali mutaxassis, shuningdek, ijobiy sifatlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlab voyaga etkazish jarayoni tashkil etadi.

Xo'sh, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qanday hujjat? Uning mazmunida qanday g'oyalar ifoda etilgan?

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan maqsadning to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;



---

---

- ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi nazarda tutiladi. Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) - Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Bu bosqichda, shuningdek, ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadini ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichda ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish vazifalarining ham hal etilishi alohida urg'u beriladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Bu bosqichda, yana shuningdek,

- ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;

- o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi;

- milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish;

- ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobiy echimi ta'minlanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy, tarkibiy qismlari. Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular

o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Milliy modelning o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga o'tilishiga zamin yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

1. SHaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

SHaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. SHaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. YUksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. SHundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

SHaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va uz bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi».

2. Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

SHaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy etadi.

SHaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. SHu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon etadi olishi uchun etarli darajada shartsharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon etadi olishi uchun etarli darajada shartsharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. «Pedagogika» tushunchasi qanday mazmunni anglatadi?
2. Tarbiya nazariyasi nimalarni o'rganadi?
3. Pedagogika fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini ayting va mohiyatini yoriting.
5. Qanday fanlar pedagogik fanlar tizimiga kiradi?
6. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning bosh g'oyasi nimadan iborat?
7. Kadrlar tayyorlash milliy modeli nima?
8. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
9. Uzluksiz ta'lim tizimining mohiyatini yoritib bering.
10. Pedagoglik kasbining asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
11. O'qituvchi qanday sifatlarga ega bo'lishi zarur?
12. Sizing nazaringizda bugungi kun o'qituvchisiga qanday pedagogik talablar qo'yilmoqda?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – Toshkent, O'zbekiston, 1994.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
4. Karimov I.A. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi. –T.: O'zbekiston, 2010. 57-bet.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
6. Pedagogika /O'quv qo'llanma. Munavvarov A. tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1996.
7. Pedagogika /A.Q. Munavvarovning umumiy tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1993.
8. Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. - Toshkent: SHarq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Boshtahririyati, 2001. – 18-52-betlar.
9. Ochilov M, Ochilova M. O'qituvchi odobi. – Toshkent, O'qituvchi, 1998.
10. Babaeva D.R. Axmedova M.E. «Pedagogika» fan bo'yicha majmua. -T.: TDPU, 2010.

## **2-mavzu: Pedagogikani o'rganish zaruriyati**

Reja:

1. Insoniyat jamiyati tarixida bilishning taraqqiy etishi.
2. Bilimlar - umumiy ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi sifatida.
3. Dunyoqarashning tarkibiy qismlari, shakllari va turlari.
4. Pedagogik layoqat – mutaxassisni shaxsiy va kasbiy yuksaltirish sharti ekanligi.

### **TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

Ilmiy dunyoqarash, tafakkur, iqtisodiy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, fuqaro, fuqarolik, vatanparvarlik, baynalminallik.

#### **Bilish ta'lim jarayonining metadologik asosidir.**

Bilish jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham o'quvchi bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilishdan tobora to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishga bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko'rish ham bo'ladi.

Muayyan fan va hodisalar ob'ektiv dunyoni bilish jarayonidan o'rganiladi va ularning tashqi, ichki mohiyatini o'zlashtirish jarayonida omillar aniqlanadi. Mushohada, tasavvur va abstrakt tafakkurga asoslanib faktlar umumlashtiriladi va ilmiy xulosalar chiqarish natijasida nazariyalar, qonunlar va kategoriyalar yaratiladi.

Bilish ikki pallaga – nazariya va amaliyotga bo'linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har xil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, qonun, formula, grafik raqam va boshqa. Nazariyada g'oya shakllanadi.

Amaliyot bilimlarning haqiqiyiligini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba, o'zgartirish, yaratish – bular amaliyot shakllariga kiradi. Amaliyot ijtimoiy hayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy bilishning vazifasi hodisalarning mohiyatini, ularning rivojlanish qonunlarini ochishdangina emas, balki biron-bir qonunning qay tariqa namoyon bo'lish sabablarini ham ko'rsatib berishdan iborat.

Ilmiy omil ilmiy bilishning elementi bo'lib kuzatish, tajriba asosida qo'lga kiritiladi, omilga asoslanmagan bilimning ilmiy qiymati, amaliy faoliyat uchun ahamiyati ham bo'lmaydi. SHuning uchun ilmiy bilimning, fanning asosiy maqsadi omillar asosida yotgan umumiy bog'lanishlarni, qonuniyatlarni topish, ularning mohiyatini bilishdadir.

Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish tevarak-atrofdagi voqeilik, narsa va hodisalarning sezgi organlarimizga ta'sir etuvchi ayrim sifatlarining ongimizda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator, I.P.Pavlov ta'kidlab aytganidek, narsalarning ayrim sifatlarini idrok qiladi: biz sovuq, iliqlik, sho'r, oq, qora, achchiq, chuchuk va xokazolarni ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm-maza bilish, teri, muskulharakat va organik sezgi organlarining faoliyati orqali bilib olamiz.

Sezgilar – odam haqidagi barcha bilimlarimizning manbaidir. Ammo ilmiy asosda bilishda, masalan, olimning bilishi bilan o'quvchining bilish faoliyati o'rtasida umumiylik bo'lsa ham lekin, ular bir-biridan farq qiladi. Olimlar olamni bilib olib, ilgari fanga ma'lum bo'lmagan yangi haqiqatlarni kashf etadilar, yangi qonuniyatlarni aniqlaydilar va shu tariqa fanning ilgarilab ketishiga imkon yaratadilar. O'quvchilar esa ta'lim jarayonida olamni bila borib, o'zlari uchun ilgari noma'lum bo'lgan, biron fan kashf etgan va odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyotida tekshirib ko'rilgan yangi bir narsani bilib oladilar. O'qituvchi o'quvchilarni olimlar tomonidan yaratilgan bu qonunni bilishga to'g'ri, engillashtirilgan, vaqt jihatidan qisqa yo'ldan olib boradi. O'qitish natijalari bilim sifatida, o'quvchining rivojlanish darajasida o'z aksini topadi. **Bilish**

**faoliyatining bosqichlari.** O'qituvchi maktab o'quvchilarini yangi bilimlarni faol idrok qilishga, uni hayotda qo'llay olishga tayyorlaydi. O'quvchilarning o'qituvchi sabohini o'zlashtirish jarayoni bilimlarni idrok qilish, tushunish, mustahkamlash hamda ularni amalda qo'llash bosqichlaridan iborat bo'ladi.

1. Bilimlarni o'zlashtirish voqe'likdagi narsa va hodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi. Idrok – borliqni odam ongida aks etishidir. Idrok o'quvchilarning bilimlari, amaliy tajribasi darajasiga qarab muayyan maqsadni ko'zlovchi jarayon bo'lmog'i kerak.

2. O'quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqich – bilimlarni tushunish va umumlashtirishdir. Tushunchalarning hosil bo'lish jarayonida induksiya va deduksiya kabi fikrlash masalalari katta o'rin tutadi. Induksiya – xususiy hollardan umumiy qoidaga boradigan, deduksiya esa – umumiydan xususiyyga boradigan fikr yuritish yo'lidir.

3. O'quvchilarning bilish faoliyatidagi uchinchi bosqich – bilimlarni mustahkamlash va qo'llashdir.

Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallab olish vositalaridan biri – avval o'zlashtirib olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashdir.

### **Ma'naviy-axloqiy tarbiya**

**Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish.** Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiyg'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan masuliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

SHaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkiletilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalabborishi natijasida shakllanadi. YOsh avlod dunyoqarashining

shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

SHaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiydunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.

SHaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. SHaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. **Aqliy tarbiya** shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmolqda. 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. YUksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib etishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishga imkon beradi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

**Aqliy tarbiya jarayonida quyidgi vazifalar hal etiladi:**

- Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
- Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
- Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

---

---

- Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.

- Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlantirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqeahodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

- Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
- Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
- Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
- Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi.

Uningshakllanishidailmiyqarashvae'tiqodo'zigaxoso'rintutadi.

**Ilmiyqarash**(yunoncha «*idea*»- *g'oya, tasavvur, tushunchalariyig'indisi*) - muayyanhodisa, jarayonningmohiyatiniyorituvchi, ilmiyjihatdanasoslanganfikr, g'oyabo'lib, ushaxstomonidanmavjudilmiybilimlartizimipuxtao'zlashtirilganda, bilimlarnibir-biribilantaqqoslash, solishtirish, predmet, hodisayokijarayonmohiyatinitahlilqilishnatijasidayuzagakeladi.

O'quvchilarniijodiyfikrlashgao'rgatish, ixtirochilikko'nikmalarinishakllantirishulartomonidanilmiyizlanishlarniolibborish vama'lumilmiyqarashlarniilgarisurilishigazaminyaratadi.

Aqliy tarbiyanisamaralitashkiletishshaxsdailmiy tafakkurningyuzagakelishinit a'minlaydi. **Ilmiy tafakkur**–insonaqliyfaoliyatiningyuksakshaklisanalib, ijtimoiyvoqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatanilmiyyondashuvnianglatadi.

**E'tiqod** dunyoqarashnegizidaaksetuvchiijtimoiy- falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgank o'rinishi; muayyang'oyagacheksizishonchbo'lib, uningshakllanishibirnechabosqichdakechadi.

Birinchibosqichdaularbeqarorvavaziyattaqozosigako'rao'zgaruvchanlikxususiyati nikasbetadi. Ikkinchibosqichdama'naviy-axloqiyqarashlarningbarqarortamoyillargaaylanadi. Mavjud talab, jamiyattomonidantanolinganaxloqiyqoidalardanchetgachiqiqshiqiyin, ziddiyatli vaziyatlardaongliharakatnitashkiletish, irodaviysifatlarga tayangan holdaishko'rishta qozoetiladi. Uchinchibosqichda, e'tiqodbarchavaziyatlardahamustuvorma'naviy-axloqiy tamoyilbo'libqoladi.

O'quvchitomonidano'zlashtirilganilmiybilimlarhayotiyunosabatlarjarayonidake ngqo'llanilganda,

ularningaslmohiyatichuqurhisqilinganvaanglangandaginae'tiqodgaaylanadi.

O'zbekistonRespublikasiPrezidentiI.A.Karimovasarlaridayoshlarningbilimli, yuksaktafakkuregasibo'lishborasidagiqarashlarmuhimo'rinegallaganbo'lib, ularningintellektualsalohiyatinijamiyattaraqiyotinita'minlovchiomilekanligigaal ohidaurg'uberiladi. CHunonchi, «... ilmuma'rifatinsonniyuksaklikkako'taradi. XXIasrda, menishonaman, madaniyatuchun, ilmuma'rifatuchunjoniniberadiganvabunihayotiningasosiy maqsadiqilibqo'yadiga nyangiavlodpaydobo'ladi. Bizanashuavloduchunyashayapmiz. Bizanashuolijanobmaqsadlarniodamlarongigasingdirishuchunharakatqilayapmiz. Bizkutayotganavlodmanashuboyliknidunyodagiengkattaboylikdebbilsa, hayotinishungabaxshidaetsa, bilingki, odamzodyorug' kunlargaerishishimuqarrar».

### **Ma'naviy-**

### **axloqiytarbiyashaxsdunyoqarashinshakllantirishningmuhimomili.**

SHaxsdunyoqarashiningshakllanishidama'naviy-

axloqiytarbiyahammuhimo'ringaegabo'lib,

unisamaralitashkiletisho'quvchidama'naviy-

axloqiyongnshakllantirishgayordamberadi.

Axloqiytarbiyamuayyanjamiyattomonidantanolinganvarioyaqilinishizarurbo'lgan xulq-atvorqoidalari, mezonlarinio'quvchilarongigasingdirishulardaaxloqiyong, axloqiyfaoliyatko'nikmalarihamdaaxloqiy madaniyatnshakllantirishgayo'naltirilg anpedagogikjarayonbo'lib,

ijtimoiytarbiyaningmuhim tarkibiyqismlaridanbirisanaladi.

Axloqiytarbiyaningasosiaxloqvaaxloqiyme'yorlardir. Axloq (lotincha «moralis» xulq-atvorma'nosinibildiradi)

ijtimoiymunosabatlarhamdashaxsxattiharakatinitartibgasoluvchi,

muayyanjamiyattomonidantanolinganvarioyaqilinishizarurbo'lganxulq-atvorqoidalari, mezonlariyg'indisi.

Axloqiyme'yorlarto'g'risidagibilimlaro'quvchilarongigata'limvatarbiyajarayonid asingdirilibboriladi. Axloqiytarbiyaningnatijasio'quvchilardaaxloqiyong, axloqiyfaoliyatko'nikmalarivaaxloqiy madaniyatnshakllanishidako'rinadi.

Axloqiyong - ijtimoiyongshakllaridanbiribo'lib,

jamiyattomonidantanolinganvarioyaqilinishizarurbo'lganxulq-atvorqoidalari, mezonlari, shuningdek, milliyistiqlolg'oyasiningo'quvchilarongidaaksetishidir.

### **Axloqiyong,**

axloqiyfaoliyatko'nikmalarihamdaaxloqiy madaniyatnshakllantirishjarayonidayo'lg aqo'yilayotganaxloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy,

estetikvaekologik mavzulardagisuhbat, bahs-munozara,

debatlarxalqxo'jaliginingturlisohalaridafidokoronamehnatqilayotgan, ilm-fan, madaniyat,

ishlabchiqarishhamdasportsohalaridayuksakdarajadagimuvaffaqiyatlarniqo'lgakir ish bilanO'zbekistonRespublikasinominijahongamashhurqilayotgan, uningobro'-



e'tiborining oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan shaxslar hayot va faoliyatiga yotgan g'risidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalari niko'rsatgan, xalq qahramonlarini namunasidashakllantiriladi.

Axloqiy tarbiyao'quvchilardadunyo qarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, unisamaralitashkiletishda o'ng, his-tuyg'u hamdaxulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir. Zero, ular birligidama'lumkamchiliklarning yuzagakelishi ham o'quvchilarning komilshaxs bo'lib kamoltopishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyo qarash tabiat, jamiyat, inson tafakkuri hamdaxshaxs faoliyatimazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchidialektik qarashlar va e'tiqodlartizimidir.

YUksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonliyo'lida fidokoronamehnat qilish, o'zigavaatrofdagilarganisbatant alabchan bo'lish, o'zidairodaviysifatlarini tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamdamaustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabixislatlarini mustaqil o'zbekiston Respublikasi hayotida ustuvor bo'lgan tamoyillarsifatida e'tirof etish mumkin.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy istiqlolga o'yasivamafkurasiasoslaritayanchomilarsifatidan amoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiyanitashkiletish jarayonida axloqiy mazmundagisuhbat, ma'ruza, bahs-munozara, konferentsiya, seminar hamdadebatlardan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Dunyo qarash nima?
2. Bilimlar - umumiy ta'lim mazmuni jihatidan nimalardan iborat?
3. Davlat ramzlarini bilish va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda qanday ahamiyatga ega?
4. Sizing fikringizcha, fuqarolik tarbiyasi qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishi kerak?
5. Vatanparvarlik nima va shaxsda vatanparvarlik xislati qanday shakllantiriladi?
6. Baynalmillik tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?
7. O'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy mohiyatini ochib berin.
8. Ilmiy dunyo qarash tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
9. SHarq mutafakkirlarining shaxs dunyo qarashini shakllantirish borasida qarashlardan namunalar keltirin.

### **3-mavzu: Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyligi REJA:**

1. Sharq Mutafakkirlarining pedagogika nazariyasiga qo'shgan xissalari
2. Jadidchilik xarakati namoyondalarining pedagogik qarashlari

3. Chet el mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya xususida bildirgan fikr-mulohazalari

### **TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

Falakiyot va matematikaga doir asarlar; «Er satxni o'lchash, ta'lim tarbiya, fikriy-xulqiy. Fazilat Muallim as soniy; qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar; «Hindiston», "SHayx ar Rais", "Donishnoma", jasurlik, chidamlilik, aqllilik, ziyraklik.

I.A.Karimov «... zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon xalqini xayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim», deb ta'kidlagan edilar. SHunday ekan SHarq mutafakkirlari pedagogik fikr taraqqiyoti bugun ham o'z o'rniga ega.

Arab halifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yagona Islom dinining tarkib topishi madaniy xayotga xam ta'sir etdi. IX asrda SHarq mamlakatlarida boshlangan va madaniy xayotda yuz bergan ko'tarinkilik ma'naviy xayotda ham o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

Ana shu ko'tarilish butun Arab xalifaligini, YAKin va o'rta sharkni kamrab olganligi uchun xam SHarq Uygonish davri deb ataldi. Bu uygonish jarayoni IX asrlardan boshlanib XV-XVI asrlargacha davom etdi.

Bu jarayonda arab xalqlari bilan birga Eron, Kavkaz orti, SHimoliy Afrika, Markaziy Osiyo olimlari ham ishtirok etdilar. CHunki Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan uygonish davri xalifaligining Bag'dod, Damashk, Xalab shaharlarida boshlanib, barcha boshka xalqlar madaniy xayotiga tarkaladi, bu esa u davlatlarda xam madaniy rivoyaslanishga zamin tayyorlaydi va bu jarayonni boshlab beradi.

Buni biz xalifa Xorun ar-Rashid davrida (786-833), so'ng uning o'g'li al-Ma'mun davrida Bag'dodda «Baytul xikma» («Donishmandlik uyi»), hozirgi davrda Akademiya ma'nosida. tashkil etilganidan ham bilsak bo'ladi. Mazkur Akademiya 813-833 yillarda yanada rivojlanagan. Akademiya koshida rasadxona ham bo'lgan, yangi kutubxona kurilgan. Bag'doddagi mazkur ilm markazi, o'z navbatida SHarq va G'arbda ilmfanning tarakkiy etishiga, ma'naviy xayotning rivoyaslanishiga ta'sir etgan, bu xakida mazkur «Baytul xikma» ning ilmiy ishlarga rahbarlik qilgan Al-Xorazmiy xalifa alMa'munning ilm-fan ravnaqiga qay darajada xomiylik qilganini «Al-jabr va almuqobala xisobi xaqida» asarida shunday ta'riflagan: «Ollox Imom al-Ma'munga. Unga meros bo'lib qolgan xalifalik lavozimini in'om qilib, muruvvat etganligi, bu lavozim libosini kiydirib, uni bezaganligi va shu bilan birga unda fanlarga muxabbat va olimlarni o'ziga yaqin tutishga intilish (xissiyotini) o'ygotganligi menga jasorat ato qildi, (chunki u) ularning ustiga o'z xomiylik qanotini yozib, ularga noaniq bo'lgan narsalarni yoritishga va ular uchun mushkul bo'lgan narsalarni osonlashtirishga yordamlashadi».

Xorun ar-Rashidning ikkinchi o'g'li al-Ma'mun ilm-fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlarida xalifalikning Xurosondagi noibi bo'lib turganda ham Movarounnaxr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit

yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuttaliy, al-Javxariy, al-Faryuniy, al-Marvaziy kabi vatandosh olimlarning barchasini Bag'dodga chaqirib oladi va «Baytul xikma» - donishmandlik uyi («Ma'mun akademiyasi»)da arab olimlari bilan xamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.

SHuningdek, SHarq Uyg'onish davrining paydo bo'lishida asosiy manba qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar ham bo'lib, ular xox yunon, xox arab, xox Movarounnahr va Huroson xalqining eng qadimgi antik davrlar madaniy yodgorliklari xam bo'lsin, Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib hizmat qildi. Bular bilan birga, yana eng muxim tomoni ham borki, IX-XV asrlarda YAqin va o'rta SHarqda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar yuz berdi va bu o'zgarishlar natijasida Uyg'onish davri kabi muxim bir jarayonni vujudga keltirdi.

Zero, agar arablar Markaziy Osiyoni bosib olib, bu erdan ilgari mavjud bo'lgan fan va madaniyat o'choqlarini yo'qotgan bo'lsalar, ko'p o'tmay qadimiy ilmiy an'ana astasekin tiklanib, natijada ilm-fanning etuk siymolari etishib chiqa boshladi. Bularning barchasi bir-biriga qo'shiluvi natijasida SHarqda bir butun madaniyat tarkib topadi va rivojlana boshlaydi. YAqin va O'rta SHarqda, jumladan, Eron, Zakavkaze va Movarounnahrda savdo aloqalarining rivojlanganligi, ilm-fan, xunarmandchilikning taraqqiy etishi moddiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga ta'sir etdi.

Bu davrda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan er maydonlari kengaydi, ko'plab sug'oriladigan erlar ochildi, sug'orish inshootlari tiklandi, yangilari kurildi, paxta, zig'ir, kanop ekilib, ularning tolasidan mato to'kildi. Movarounnaxr, xususan, Xorazm, Urganch, Farg'ona, Samarkand va Buxoro to'kimachilik maxsulotlari, ayniksa, Samarkand va Buxoro shoyisi dunyoga mashxur bo'lgan.

Qishlok xo'jaligi, xunarmandchilik va savdoning rivojlanishiga yo'l ochildi. Natijada YAqin va o'rta SHarq davlatlari: Rossiya, Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari olib borildi.

Taniqli olim F.Sulaymonova SHark madaniyatining Ispaniyaga va u orqali Ovrupoga ta'siri xaqida gapirar ekan, «Pireney yarim orolining arablar tomonidan bosib olinishi insoniyat tarixining yang yangi saxifalarini ochib berdi. Makedoniyalik Alekesandr orzu kilgan SHarq va G'arbning yangi davri boshlandi. Bu jarayonning, ayniksa, Ovrupo uchun axamiyati beqiyos bo'ldi. SHarq fakatgina Ovrupo madaniyatining rivojiga ta'sir etibgana kolmay, balki umuman, Ovrupolik odamning psixologiyasi, tafakkuri, xarakteri, xayot tarzini, tarixiy jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi», - deydi va matematika, falsafa, astronomiya, tabiat, tibbiyot, xulq-odob, turmish tarzi, ijtimoiy iqtisodiy xayotiga qay darajada ta'sir etganligiga ishonarli dalillar keltiradi.

X asrdan boshlab Movarounnaxr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlari - Toxiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshoxlar davlatlarining paydo bo'lishi va xalifalik emirilishi xam madaniy xayotning orqaga ketishiga emas, balki yanada ravnak topishiga olib keldi.

Bu davrda pul muomalasi rivojlanadi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy xayotidagi o'zgarishlar, albatta madaniy xayotga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'sha davrning madaniy markazlari sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy xujjatlar, shariat koidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar xam arab tilida yozilar edi. X asr o'rtalariga kelib, fors-tojik tilida xam ish yuritila boshlandi. Ammo yoziladigan xujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo'lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

Bu shaharlardagi maktablarga xatto tevarak-atrofdagi qishloqlardan oddiy xalq bolalari xam kelib o'qiganligi manbalarda keltiriladi. O'sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo'lgan, kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy muloqat, munozaralar o'tgan.

Abu Ali ibn Sino kitob do'konlaridan birida Forobiyning Aristotel «Metafmzika»siga yozgan sharxlarini sotib olganligini tarjimai xolida xikoya qiladi.

Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo'lgan. Amir kutubxonasini o'sha davrdata SHeroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar. CHunki SHeroz kutubxonasi kitoblar maxsus javonlarda saqlansa, amir kutubxonasi esa sandiqlarda saqlangan.

Bu davrda hind, eron, arab-yunon tillaridan tibbiyot, astronomiya, matematika, mantiq, psixologiya, falsafaga oid asarlar tarjima qilinishi shu soxaga oid bilimlarning rivojlanishiga ta'sir etdi. Eronlik Abdulla ibn al-Mukaffo (724-750) yozuvchi, pedagog, olim va tarjimon sifatida salmoqli ishlar qildi- U «Buyuk ishlar uchun nasixatlar» va «Kichik ishlar uchun nasixatlar» asarlarini yaratgan, paxlaviy tilidan xindlarning «Kalila va Dimna» didaktik asarini, «SHoxlar kitobi», «Mazdak», «Oynoma»ni arab tiliga tarjima qilgan. Aristotelning «Kategoriya», «Talqin xaqida» va boshqa asarlarini xam arab tiliga tarjima qilgan. Ibn al-Mukaffo 750 yilda Moniy targ'iboti tarifdorlari sifatida qatl etiladi.

Qadimgi yunoniston olimlari Platon, Aristotel, Gippokrat, Galen, Evklid, Ptolomey, Arximed va boshqalarning asarlari, fors tilidan badiiy-didaktik asarlar «Kalila va Dimna», «Fors shoxlari xayoti», xind tilidan «Hind dorilari va ularning nomlari», «Saorad», «Siddxanta», «Nabotiy dexqonchiligi to'g'risida kitob» va boshqa kitoblar tarjima qilindi.

Somoniylar davrida Rudakiy, Firdavsiy, Al-Xorazmiy, Al - Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar ijod etganlar.

X asrning ikkinchi yarmidan tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ba'zi xonlar o'z saroylarida kutubxonalar tashkil etdilar. Bu kutubxonalarda arab va xatto G'arbiy Evropa olimlarining asarlari ham mavjud edi. Bu davrda turkiy til shakllanib bordi. YUsof Hos Hojib, Maxmud Qoshg'ariy kabi olimlar jahon ahamiyatiga ega bo'lgan asarlarini yaratdilar. XI asr boshida G'aznaviylar davlati, keyinroq Saljuqiylar. Xorazmshoxlar davlati ham tashkil topdi. G'aznaviylar davrida ham ilmiy, ijtimoy fikrlar rivojlandi. Maxmud G'aznaviy

o'z saroyiga juda katta madaniy boyliklarni to'playdi, olimlarni ilmiy ishga taklif etadi. Jumladan, Abu Rayxon Beruniyning mashxur «Hindiston» asari shu erda yaratilgan edi.

Saljuqiylar davrida Ali-Arslon Muxammad xokimiyatni boshqarganda uning vaziri Nizom ul-Mulk o'z davrining mashxur siyosiy arbobi va eng ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan. Saljuqiylar xokimiyati xarbiylashgan bo'lib, bu xokimiyatning ichki va tashqi siyosatini Nizom ul-Mulk boshqarar edi.

U G'aznaviylar ish uslubiga bir oz o'zgartirishlar kiritib, xokimiyatni boshqarish uslubini ishlab chiqadi va o'zining «Siyosatnoma» asarini yaratadi. (1091-92). Bu asarda davlatni boshqarish tamoyillari bayon etiladi.

Nizom ul-Mulk maorifni rivojlantirishda katta xizmat qildi. 1067 yilda Bag'dodda o'zining shaxsiy jamg'armasiga o'sha davrning eng mashxur o'quv yurti- «Nizomiya» madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so'fiylarga katta e'tibor berib, g'amxo'rlik qiladi. Uning katta xizmatlaridan yana biri taqvimni islox qiladi. U 1074 yili urta SHarq mamlakatlari uchun kalendar-taqvim tuzadiki, bu taqvim hozirgi eng takomillashgan kalendarlardan xisoblanadi.

XI asrda Xorazmda ilm-fan ayniqsa taraqqiy etdi. Xorazm shoxi Ma'mun o'z saroyiga eng zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Baytul xikmat» Donishmandlar uyi tarixda «Ma'mun akademiyasi» deb nom qoldirgan. Bu akademianing rivoj topishida Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, rivoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Saql al-Masixiy, tabib Abulxayr Xammor kabi olimlar ilmiy ijodlar bilan muqim rol o'ynadilar. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargoqi o'z faoliyatini to'xtatib, olimlar tarqalib ketadi.

XIII asrga kelib, o'rta SHarq mamlakatlari, Movarounnaxr mo'g'ullar istibdodiga uchradi. Bu davrda ishlab chiqarish kuchlari, madaniy markazlari vayron etildi. Xalq qattiq zulm ostida ezila boshladi.

Movarounnaxr va Xurosonda mo'g'ullar istibdodi davrida «Uyg'onish» davri tanazzulga yuz tutdi.

SHarq uyg'onish davri madaniy rivojlanishida ilm-fan shartli ravishda uch yo'nalishda rivojlanganini ko'ramiz. Birinni yo'nalish - matematika, tibbiyot yo'nalishidagi fanlar bo'lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geografiya, geodeziya, minerologiya, tibbiyot, farmakologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muxammad Muso al-Xorazmiy, Axmad Farg'oniylar matematikaga oid, Zakriyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, Ibn Sino, Jurjoniylar tibbiyot va falsafa, Abu Rayxon Beruniy, Ulug'bek Ali Qushchilar astronomiya va tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Birinchi yo'nalish - ijtimoiy-falsafiy yo'nalish bo'lib, bunda falsafa, texnika, mantiq, fikx ruxshunoslik, notiklik va boshqa sohalar bo'lib, bu sohada Al-Farobiy, AlKindiy, Ibn Rusht, Ibn Sino, Zaxiriddin Bayxakiy, Muxammad Narshaxiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

---

Lekin biz yuqorida zikr etgan olimlar qomusiy olimlar bo'lib, asosiy kashf etgan ilm soxalari bilan bir qatorda boshqa bir necha fanlarga doir xam tadqiqotlar olib borganlar.

Uninni-yunalish - ta'limiy-axloqiy yo'nalish bo'lib, bu soxada qomusiy olimlar o'z qarashlarini ijtimoiy - falsafiy asarlarida ifodalaydilar.

Mazkur davrda ilmiy bilishga asoslanuvchi metod shakllandi. Natijada aqliy tarbiya olimlar diqqat markazida bo'ldi: Xorazmiy, Forobiylar bu metodni asoslab bergan buyuk mutafakkirlar bo'lsalar, ular bilan bir qatorda o'sha davrda yaratilgan barcha ta'limiy-axloqiy risolalarda xam aqliy tarbiyada zexnni tarbiyalash, aqliy kamolat yo'llari, bilimning asl moxiyatlarini yortishga xarakat qildilar.

Mutafakkirlarning o'z ishlarida o'qitish va ta'lim-tarbiyaga e'tibori natijasida ta'limiy-axloqiy masalalarga qiziqish orta bordi. Aniq fanlarni o'qitishning uslubiy masalalariga ayniqsa e'tibor kuchaydi. Pedagogika soxasida inson va uning kamoloti bilan bog'liq muammo asosiy o'rin egallaydi. Ta'limiy - axloqiy asarlarda bir tomondan inson aqli, uning quvvati, ilm-fanni egallashi, xushxulq bo'lishi ifodalansa, ikkinchi tomondan bu ifodalar ta'limiy-axloqiy asarlarda o'zining badiiy ifodasini topadi.

Mutafakkirlar ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarida inson kamolati baxt-saodatga erishish uchun sharoit yaratish degan g'oyani ilgari surish bilan bog'lab talqin etadilar.

Xulosa qilib aytganda, markazlashgan Arab xalifaligida ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va qadimgi ma'naviy yodgorliklar Movarounnaxr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish, SHarq Renessansi - uyg'onish davrining boshlanishiga olib keldi- Butun SHarq bilan bir qatorda, Movarounnaxr xam ilm-fan va ma'rifat soxasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashxur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika soxasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar maydonga keldi-Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga xam katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning xam aqliy, xam axloqiy, estetik va jismoniy jixatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta axamiyatga ega bo'ladi.

SHuningdek SHarq Uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar yaratib, ta'limtarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlar xaqida o'lmas ta'limoti bilan nom qoldirgan, tarbiyashunos olimlar xam maydonga chiqdi.

Demak, Uyg'onish davri inson kamolati muammolari ikki yo'nalishda:

- 1.Qomusiy olimlar yukodiy merosida komil insonni tarbiyalash muammosi.
- 2.Sof ta'limiy-axloqiy asarlarda komil insonni tarbiyalash muammolari yoritilganini ko'ramiz.

Quyida biz qomusiy olimlarning ta'lim tarbiya to'g'risidagi fikrlari, ma'naviy, axloqiy qarashlari xaqida to'xtalamiz.

Al-Xorazmiy (783-850) Jaxon matematika fanining buyuk namoyandasi Muxammad Ibn Muso al-Xorazmiy taxminan 783 y. Xorazmda tug'iladi.

U boshlang'ich ma'lumotni o'z uyida otasidan olgan. Chunki uning otasi o'qimishli bo'lgan. Qadimiy diniy urf - odatlarni, erli xalq yozuvlarini bilgan. Diniy va ilmiy adabiyotlardan xabardor bo'lgan. SHuning uchun Al-Xorazmiy bolaligidayoq bu ilmiy manbalardan o'rganish imkoniga ega bo'lgan. Xorazmiy matematika bilan juda berilib shug'ullangan. SHu soxaga oid barcha asarlarni qunt bilan o'rgangan. U arab, fors, yunon tillarini xam o'rganib, bu tilda yaratilgan asarlarni xam o'qiy olish qobiliyatiga ega bo'lgan. U «Al jabr va al-muqobala» asari bilan matematika fanini rivojlantirdi xamda amalda ko'llash usullarini bayon etdi. «Al-jabr» keyinchalik matematikaning aloxida bo'limiga aylandi va «algebra» deb ataladigan bo'ldi.

Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi «Hind arifmetikasi xaqida kitob» bo'lib, ular o'nlik sistemasi raqamlariga bag'ishlangan.

Xorazmiy xindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashxur astronomik jadvallar tuzdi. SHuningdek olim «Er satxini o'lchash», «Quyosh soati to'g'risida», «YAxudiyalar tarixi va ularning bayramlarini belgilash» kabi asarlari bilan fan soxasiga juda katta hissa qo'shdi.

Bular ma'rifiy-tarbiyashunoslik jixatidan ham xozirgi kunda axamiyatga molikdir.

Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muxim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi.

U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi.

Xulosa qilib aytganda, al-Xorazmiy evropa va sharqda falaqiyot va matematika soxasida yangi davr ochdi. Hindlarning o'nlik raqamlari Xorazmiy tufayli «Arab raqamlari» nomi bilan butun dunyoga yoyildi.

Xorazmiyning falakiyot va geodeziyaga oid kuzatishlari, geografiyaga oid asarlari, u chizgan er xaritasi ham sharq va g'arb olimlari uchun tekshirish, kuzatish ishlarini olib borishda muxim qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Xullas, al-Xorazmiy ilmiy bilim, ta'lim metodlari, ilm-fanga ko'shgan xissasi bilan insonni akliy kamolga etkazishda, ta'lim-tarbiyada o'z o'rniga ega bo'lgan buyuk allomadir.

Abu NasrForobiy (873-950).

Forobiy 873 yilda Sirdaryoning forob degan joyida tug'iladi. U boshlang'ich ma'lumotni uz yurtida oladi.

5 yoshdan u yozish va o'qishni bilar edi. U yoshligidanoq o'rta asr fanlarini chuqur o'rganadi. U ilmiy malakasini takomillashtirish maqsadida 10 yoshidan SHosh, Samarqand va Buxoroga kelib ta'lim oladi.

Lekin bu joylar uning ilmga bo'lgan chankokligini qoniqtirmaydi. U Eronning Ray, Hamadon shaxarlarida bo'ladi.

U umrining 40 yildan ortig'ini Bag'dodda o'tkazadi. U bir vaqtning o'zida arab, fors, yunon tillarini o'rganadi.

Forobiy aniq fanlar: ilmi nujum, riyoziyot, musiqa, tabobat fanlariga qiziqadi.

Lekin u ko'proq falsafa ilmi bilan shug'ullanadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra u Buxoroda bo'lgan kezlarida Buxoro amiri Mansur ibn Nux Somoniyning iltimosiga ko'ra falsafiy asar «At-taxlimiy» asarini yozadi. SHu asari tufayli «Muallim as-soniy» (ikkinchi muallim) laqabi bilan mashhur bo'ladi. Olim 70 dan ortiq tilda so'zlasha olgan. U 160 dan ortiq asarlar yozgan. Bizgacha 40 ga yaqini etib kelgan xolos.

Forobiy asarlarining mazmuniga qarab 7 ta katta guruhga bo'lib chiqishimiz mumkin. Ana shu turkumlash jarayonidagi eng muhim bo'limi tarbiya masalasiga bag'ishlangan ettinchi qismdir. U ta'lim - tarbiyaga oid, «Baxt-saodatga erishish yo'llari haqida risola», «Fozil odamlar shahri», «Fazilatli xulklar», «SHaharni o'rganish haqida» kabi asarlar yaratgan.

Olimning yuqorida biz tilga olgan asarlari butun jahon ziyolilari tomonidan haqli ravishda yuksak baholangandir.

Forobiyning asarlari arab tilidan dunyoning ko'p tillariga-rus, ingliz, ispan, fransuz, o'zbek tillariga tarjima qilingan.

Forobiy nihoyatda buyuk olim va mutafakkir edi. CHunonchi, uning asarlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'z ilmiy qarashlari bilan yangi davrga darcha ocha bilgan va zamondoshlaridan bir necha asr olg'a ketgan.

Forobiyning quyidagi pedagogik qarashlari yoshlarga muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir.

1. Ta'lim - so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi.

2. Tarbiya - esa amaliyot, ish-tajriba bilan, ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi, deydi.

3. Har kimki ilm, hikmatai desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

4. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.

5. Ma'lumki, inson hech qachon tug'ilganda yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi... Biroq har bir kishida biron bir fazilatga yoki qabixlikka mayl, qobiliyat bo'ladi va shu fazilatlarini 2 turga bo'ladi.

1. Fikriy fazilat

2. Xulqiy

Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik fahm-farosatlilik zehnlilikdan iborat.

Xulqiy fazilat - intiluvchi quvvatga kirib iffat, injoat, sahiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi. YOmon fazilatlar razillikdir.

Xulosa qilib aytganda, Forobiyning yuqoridagi ta'lim-tarbiyaga oid konsepsiyasi shaxsni komil inson qilib tarbiyalashda muzsim rol o'rinaydi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048)

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy 973 4 sentyabrda Xorazmda dunyoga keladi.



Beruniy yoshligidan ilmga ayniqsa aniq fanlarga qiziqadi. U matematika, jo'g'rofiya, yulduzlar ilmi, tibbiyot fanlariga oid ko'p kitoblarni o'qib chiqadi. Fors va arab tillarini va qadimgi ajdodlar tillarini qunt bilan o'rganadi.

Beruniy bir necha yil koinot, metallar va qimmatbaho toshlar ustida kuzatishlar va tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida «Minerologiya» asarini yaratadi. Uning «Geodeziya» asarida geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qatorda paleontologik kuzatishlari natijalari ham bayon qilingan.

Beruniyning yana bir muhim asari «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar»dir. Bu asarda ham u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki tushuncha va ma'lumotlar bergan. Olim 1030 yilda o'zining SHarq va G'arbda keng e'tirof qilingan mashhur «Xindiston» asarini yaratadi. Asarda Beruniyning Xindiston haqidagi barcha qarashlari o'z ifodasini topgan.

Hammasi bo'lib 150 dan ortiq asarlar yaratgan. Olim o'z asarlarini o'sha davr an'anasiga ko'ra arab tilida yozgan. Beruniy yuqoridagi asarlarida inson kamoloti xaqida o'z qarashlarini bayon etadi.

Beruniy mamlakat obodonchiligi ilm-fanning ravnaqiga bog'liq bo'lsa, yoshlarning baxt-saodati va kamolotini uning bilimi, axloqi va ma'rifatida deb biladi.

SHuning uchun u yoshlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi. Beruniy yoshlardan raxmdil, mexribon, kishilarga iltifotli, xayrihoh, bo'lishni, najotsiz odamga qo'l cho'zishni, makkorlik, ayyorlik, adolatsizlik, boylikka xirs qo'yish, yolg'on gapirish kabi sifatlarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi.

Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi 2 turga bo'ladi.

Beruniy inson va axloqiy tarbiya xaqida fikr yuritar ekan, «insonga er yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun xar bir inson yuksak axloqli bo'lishi lozim», - deydi.

Aqliy tarbiya, deydi Beruniy, kishining tafakkurini rivojlantirib, dunyoqarashini kengaytiradi. Uning o'z-o'zini anglab etishiga ta'sir etadi.

Mutafakkir inson kamolotida mexnat va mexnat tarbiyasi hakida muhim fikrlarni bayon etadi. U xar bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi.

Og'ir mexnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan soxiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli, olimlar mehnatiga alohida e'tibor beradi va hayrihoh bo'lishga chaqiradi. SHu bilan birga og'ir mehnat qiluvchi konchilar, er ostida ishlovchilar, dexqonlar xaqida gapirib, ularning mexnatini rag'batlantirib turish kerak deydi.

---

---

Olim bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida xam fikr yuritadi. U bolalarni eng kichik ilk yoshidan mehnatga o'rgatish kerak deydi.

Beruniy «Minerologiya» asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar xaqida emas, xunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari xaqida qimmatli fikrlar bildiradi.

«Saydana» nomli mashxur asarida esa sharqdagi dorivor o'simliklarning tavsifi bayon qilingan. Beruniy inson kamolotida 3 narsa muxim rol o'ynaydi deydi.

1. Irsiyat.

2. Muhit.

3. Tarbiya.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari xakidagi fikrlari xozirgi davr uchun ham dolzarbdir. o'kuvchiga bilim berishda u:

-o'quvchini zeriktirmaslik;

bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik; -uzviylik, izchillik;

-yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va xokazoga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Olim fan soxasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid koldirilgan barcha boylklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi. Ilm toliblariga qalbni yomon ilatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, xirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuxratdan saklanishi zarurligini uqtiradi.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari o'z zamonasi uchun emas, xozirgi davr ta'lim-tarbiyasini takomillashtirishda xam katta axamiyatga egadir.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) 980 yilda Buxoro shaxri yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Abdullox va uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralarida yosh Ibn Sino xam qatnashar edi. Bunday oilaviy muxit, Buxoro shaxridagi ko'plab madrasalar, kasalxona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxonalarning mavjudligi ham yosh va iqtidorli Ibn

Sinoga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

U maktabda o'qib ko'pgina ustozlardan ta'lim oladi. Masalan: Abdullox Notiliydan falsafa, mantiq, xandasa buiicha, Buxorolik Abu Mansur Qamariydan til bo'iicha ta'lim oladi.

IX asr oxiri va X asr boshlariga kelib o'lkada siyosiy ijtimoiy vaziyat murakkablashadi. SHuning uchun Ibn Sino Xorazmga-Urganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda bir qator olimlar bilan xamkorlikda Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasida» ilmiy ish bilan shug'ullanadi. Natijada o'zining yirik asari «Tib konunlari», «Ash-SHifo» ustida ish olib boradi.

<b>Buni yodda saqlang!</b>	<p>Ibn Sino umrining so'nggi yillarida Gurganj, Ray va Hamadonda yashaydi. U 1037 yil oxirida Isfahonda vafot etadi</p> <p>Ibn Sinoning odob-axloq va insonparvarlik haqidagi ta'limoti katta ilmiy-maliy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu ta'limot inson olam rivojlanishining toji bo'lib, u buyuk</p>
----------------------------	--

---

---

	sharaf va hurmatga loyiqdir, degan fikrga asoslanadi.	
--	---	--

---

Ibn Sino fanning turli sohasiga oid 450 dan ortik asar yaratadi. Lekin bizgacha 250 ga yakini etib kelgan bo'lib, ulardan 50 dan ortik qo'l yozmalari O'zbekiston fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik institutining kitob fondida saqlanib kelmokda.

U ta'lim-tarbiyaga ta'lluqli bo'lgan quyidagi asarlarni yaratgan. Masalan: «Tadbir al-Manozil» (turar joyni boshkarish), «Axloq haqida risola», «Burch hakida risola», «Nafsni pokiza tutish», «Badanni boshkarish», «Adolat hakida kitob», «Al-konun», «Ishq hakida risola», «Xay ibn-YAkzon», «Nomozning mohiyati haqida risola», «Ziyorat kilishning ma'nosi hakida», «An-Najot», «Ash-SHifo», «Donishnoma» kabi asarlari bilan ilm-fanga hissa ko'shgan buyuk allomadir.

SHuning uchun ham SHarqda unga, "SHayx ur-Rais" - ya'ni olimlarning olimi degan yuksak unvon berilgan.

U o'zining «Axloqqa oid risola»sida insonning umumiy fazilati hakida gapirib, kishilarda yuz beradigan yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo'lish sabablari to'g'risida to'xtaladi. Uning fikricha yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo'ladi, odamlarning yaxshi yoki yomon bo'lishida hukumat ahllarining ta'siri ham zo'r bo'ladi, deydi.

Ibn Sino axloqiy hislatlardan: iffat, kanoat, saxiylik, shijoat, sabr, muloyimlik, sirni saklay bilishlik, ilm- ma'rifatli bo'lish, kamtarlik, adolatlilik, do'stlik, vafodorlik kabi axloqiy kategoriyalarga ta'rif beradi. U insoniy fazilatlarga:

Jasurlik - biror ishni bajarishda kishining jasurligi; CHidamlilik - inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat;

Aqllilik - biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik kilishdan saklovchi quvvat;

Ziyraklik - sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushinishga yordam beruvchi quvvat.

Ibn Sinoning fikricha insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, o'ch olish, adovat, bo'xton, irodasizlik kabilardir.

U fanlar tavsifi xakida ham fikr bildirgan Olim birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini ko'yadi. falsafani esa ikki guruhga-nazariy va amaliy guruhga bo'ladi. U birinchi guruhga etika, ig^tisod, siyosatni kiritadi.

---

**Mushohada uchun!** Alloma yaratgan «Kitob ash-SHifo» 18 tomdan iborat bo'lib, falsafiy bilimlar qomusi hisoblanadi, u o'z ichiga 4 ta katta bo'lim ( mantiq fizika, matematika, metafizika)ni oladi. Ibn Sinoning

«Kitob ul-insof» («Adolat kitobi») asari 21 jilddan iborat bo'lgan.

Ikkinchi guruxga fizika, matematika, metafizika dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritgan. Olim fizika, adabiyot, tarix fanlari bilan shug'ullangan.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'qitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda kuyidagilarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi.

-bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band kilib ko'ymaslik;

-ta'limda engildan og'irga borish orkali bilim berish;

-olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;

49

-o'qitishdajamoabo'libmaktabdao'qitishgae'tiborberish;

-bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

-o'qitishni jismoniy mashqlar bilan ko'shib olib borish.

Bu talablar xozirgi davr ta'lim tamoyillariga xam mos kelishi bilan qimmatli bo'lib, bolalarni engil-elpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustaxkam bilim olishiga yordam beradi.

U bola tarbiyasi xaqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'iishdan boshlashni lozim deb topadi. Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki olijanob vazifasi deb biladi. Agar qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotellar bola tarbiyasini davlat ixtiyoriga qo'ysalar, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug'ullanishi kerak deydi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sino buyuk olim, faylasuf, adib, tabib bo'lishi bilan birga buyuk murabbiy edi. U ta'lim-tarbiya xaqida juda ko'p bosh qotiradi.

Olimning pedagogika faniga qo'shgan xissasi shundaki, u ta'limiy tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, xam axloqiy, xam estetik xamda jismoniy tomondan rivojlanishi, kamolga etishining mezonini ishlab chiqadi.

Tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi esa olimning tarbiya soxasidagi katta xizmatlaridan xisoblanadi.

YAna uning xizmatlaridan biri shundaki, u insonning mexnati, qobiliyati, aqlzakovatini ulug'ladi, undagi qudratga ishondi. Inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini targ'ib qildi.

### **Nazorat savollari:**

1.SHarq Uyg'onish davrida ilm-fan, madaniyat ta'lim-tarbiya taraqqiyotini nimalarda ko'ramiz?

2.Al-Xorazmiyning ilmiy merosi va didaktik qarashlarining moxiyati nimada?

3. Forobiy fanlar tasnifi xaqida.
4. Forobiyning ta'lim-tarbiyaga oid qanday asarlarini bilasiz?
5. Forobiyning Fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarining hozirgi davrdagi ahamiyatini izohlang?
6. Beruniyning axloqiy, aqliy, jismoniy, nafosat tarbiyasi xaqidagi fikrlarini izohlang?
7. Beruniy ilmiy merosining ahamiyati nimada?
8. Ibn Sino ta'lim va tarbiya usullari, shakl va metodlarini qanday izoxlaysiz?
9. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi xaqida qanday fikrlarni ilgari surgan?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Karimov I.A. «Istiqlol va ma'naviyat». T; uzbekiston, 1994.
- Karimov I.A. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi. –T.: O'zbekiston, 2010. 5-7bet.
- Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
- Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri.-T.; A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 1993.
- Buyuk siymolar, allomalar (nashrga tayyor. Akad. M.M.Xayrullaev) T.: Meros, 1995.

#### **4-mavzu. Ta'lim (pedagogik) texnologiyalari va pedagogik mahorat asoslari.**

##### **Reja:**

1. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha.
2. Axborot texnologiyalarining ta'limdagi urni.
3. «Innovatsion texnologiya»lar tushunchasi

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni uquv muassasalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Keyingi o'n yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiya», «Progressiv pedagogik texnologiya» kabi tushunchalar ko'p uchrab turgani bilan ularning o'zbek tilidagi maromiga yetgan ta'rifi xali tuzilmagan.

Respublikamizning pedagog olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan xamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmokdalar.

Bu yerda, nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning milliy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbik etish zarurati tug'ildi, degan savol paydo bo'lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli kadrlarni va yukori malakali olimlarni yetishtirib kelgan pedagogika uslublari mavjud-ku, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarini uzgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo'lmaydimi?- degan muloxazalar xam yuk emas. O'zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchiligining aksariyati, aynan mana shu yuldan bormokda. Bu yul ilojsizlikdan izlab topilgan bulib, kiska muddat xizmat kilishi mumkin. Mustakillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qilolmaydi. CHunki:

**birinchidan**, ma'lum sabablarga ko'ra jaxon xamjamiyati tarakkiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun axoli ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanishning zarurligi;

**ikkinchidan**, an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «Axborotli uqitish» sifatida tavsiflanib, uqituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi;

**uchinchidan**, fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;

**to'rtinchidan**, kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi boskichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;

**beshinchidan**, yoshlarni xayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli xisoblangan ob'yektiv borliqqa majmui yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Pedagogik texnologiya yuqorida sanab o'tilgan beshta salbiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbiridir.

Ta'lim texnologiyalarini ishlab chikish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadkikotlar olib borishni kuzda tutadi.

SHuni aytish joizki, ta'lim texnologiyalari pedagogika ilmining tadkikot ob'ekti sifatida, anik fanlarni ukitish uslubi bulibgina kolmay, ijtimoiy fanlarni ukitishga xam yangicha yondashuv sifatida kayd kilinishi lozim.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundankunga ortib bormoqda. Ammo ijtimoiy soxada va, ayniqsa, ta'lim-tarbiyada depsinish va umumiy taraqqiyotdan orqada qolish sezilmokda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini kaqul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Ma'rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvaffakiyat bilan qo'llanib kelayotgan pedagogik texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan xamda ta'lim soxasining shu kundagi xolatidan kelib chiqqan xolda pedagogik texnologiyasini yaratish lozim.

**Texnologiya, deganda**, sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya xar doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, **uqituvchining uqitish vositalari yordamida uquvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy xodisa, deb ta'riflash** mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy xodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy zaruriyat bo'lganligidan dastavval AQSHda 70-yillarda falsafaning bixiviorizm oqimi zaminida yuzaga kelib, boshqa rivojlangan mamlakatlarga tez tarqalib ketdi.

XX asrning 90-yillari boshida sotsializm nurab, unga a'zo bo'lgan davlatlar birin-ketin mustakil bo'lganidan keyin, xar jixatdan taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston uchun ham keng yo'l ochildi.

Mustakillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rната boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. SHular katori jaxondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar xam kirib keldi.

Pedagogik texnologiyani uquv jarayoniga olib kirish zarurligini MDXga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar katorida ta'riflagan V.P.Bespal'kning fikricha, «PT-bu o'qituvchi maxoratiga bog'lik bo'lmagan xolda pedagogik muvaffakiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyixasidir».



Rossiya olimlaridan V.M.Monaxov: «PT-avvaldan rejalashti-rilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir»,- degan qiskacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. «PT-uquv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini xamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi»,-deydi.

**M.V Klarin fikricha, PT-o'quv jarayoniga texnologik yondoshgan xolda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chikib o'quv jarayonini loyixalashdir.**

V.P.Bespal'koning \o'zbekistonlik shogirtlaridan Nurali Saidaxmedov va Abduraxmon Ochilovlarning fikricha, **PT-bu uqituvchining uqitish vositalari yordamida uquvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.**

Uzbekistonlik pedagog olim B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga kuyidagicha ta'rif beradi: **PT ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bulib, pedagogikada ijtimoiy-muxandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart xolga solib, uning optimal loyixasini tuzib chikish bilan bog'lik ijtimoiy xodisadir.**

Bu ta'riflarni uzoq xoriyda berilgan ta'riflar bilan solishtirib kurish uchun yapon pedagog olimi T.Sakomoto bergan ta'rifni keltiramiz. **«PT,-deydi Sakomoto, -bu tizimli-majmuli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuga keltirishdir».**

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralaridan YUNESKO ning ta'ri fi bo'yicha, «PT-bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'lik xolda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyixalashda va amalda ko'llashda tizimli yondashuv usulidan foydalanishdir».

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan taxlil qiladigan bo'lsak, uzoq xoriyda berilgan ta'riflar bilan MDX mamlakatlari olimlarining bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsa-da, farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, Sakomoto va YUNESKO ta'riflarida majmu yondashuv tamoyiliga aloxida u'rgu berilgan. MDX olimlarining PT ga bergan ta'riflarida tizimli yondashuv eslatib o'tilgani bilan, o'quv jarayonining loyixasi tuzilayotganda uni mutlaq unutib, tizimli yondashuv tamoyilining qonun va qoidalariga sira xam amal qilinmaganini ko'ramiz.

Xakikatda esa, ob'ektiv borlikka tizimli yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga, Sakomoto aytganidek, «PT-o'quv jarayonini muayyan bir tizimga keltirishdir», degan tushuncha kifoya kiladi. Bu tushuncha orkali PT ning boshka xamma xususiyatlarini, ya'ni maqsadga yo'naltirilganini, bir necha o'zaro uzviy bog'lik bo'lgan kislardan tashkil topganligini va boshkalarni anglab olsa bo'ladi. CHunki bu xususiyatlarning xammasi, tizimlar nazariyasiga binoan, tizim deb nom olgan narsa va xodisalarning ajralmas sifatlaridir.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so'zsiz, o'quv jarayoniga tizim sifatida yondashishdir. Bunda ta'lim-tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va xodisalar uzaro funktsional bog'liklikda bulib, bir butunlikni, ya'ni pedagogik jarayon tizimini tashkil kiladi. Pedagogik jarayon tizimining muayyan bir vakt mobaynida boskichma-boskich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi (4-rasmga karang).

**Pedagogik texnologiyaning avvalgi uslublardan afzalligi, birinchidan, u ta'lim jarayonini bir butunlikda kurib, ta'lim maksadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari ta'lim boskichlarini loyixalab, ta'lim jarayonini nazorat kilish va ta'lim natijalarini baxolash kabi kismlarini uzaro uzviy bog'lik tizimga keltirib turib, uning loyixasini tuzishidadir.**

Ikkinchidan u talabalarning uzlariga berilgan bilimni yodlab olib aytib berishiga emas, balki ta'lim va tarbiya jarayonining yakunida amaliy ishlarni bajarilishiga yunaltirilganligidadir.

Ilmiy asoslanib, yaxshi loyixalashtirilgan pedagogik texnologiya buyicha xar kanday ukituvchi xam, a'lo bulmasa-da, yaxshi dars utadi. CHunki pedagogik texnologiyani pedagog olim, metodist yoki ilgor tajribali ukituvchilar tuzadi, shu bois ularning pedagogik maxorati pedagogik jarayon loyixasida uz ifodasini topgan buladi.

**PT-bu jamiyat extiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va anik maksadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baxolab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbiridir.**

Texnologik yondashuv ishlab chikarishdan olingan bo'lib, unda minglab texnologik jarayonlar loyixalashtirilgan. Ular ishlab chikarishda kerakli natijalarga erishish garovi xisoblanadi. Bu texnologiyalarni ko'llash vaqtida xudud va ularning ijrochisi o'zgarsa ham, kerakli maxsulot chiqaveradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida xam shunga erishish uchun pedagogik texnologiya ishlab chikildi.

Pedagogik texnologiya, umuman olganda, reproduktiv (nusxa olish) dars berishga asoslangan bo'lib, undagi uquv jarayoni uquvchi (talaba)larga tipik xolatlardagi xarakatlarni egallashga yo'naltirilgan.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyixalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyixalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

**Pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-xarakati orkali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'lik qamrab olishi kerak.**

Demak, an'anaviy uquv jarayonida asosiy omil pedagog (va uning faoliyati) xisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o'rinda o'qish jarayonidagi o'quvchilarning faolligi ko'yladi.

Pedagogik texnologiyadagi reproduktiv bilim berish jarayonida dars aniq bo'laklarga bo'linib, xar bir bo'lagida o'quvchi (talaba) lar bilishi shart bo'lgan natijalar ko'rsatiladi. O'quv materiallar dars maqsadidan kelib chiqib, modullarga bo'lingan bo'ladi. lar qaysi modulga test savollari tuziladi. Ukuv jarayoni anik savollarga konkret javoblar topishga ko'rilgan bo'lib, savollar va javoblar o'zaro uzviy bog'liklikda bo'lishi natijasida bir butunlikni, ya'ni tizimini tashkil kiladi.

Pedagogik texnologiyani yaratish tamoyillarining **birinchisi**—muayyan dars, mavzu, kism, o'quv predmetidan kutilgan **asosiy maksadni** shakllantirib olish; **ikkinchisi**—umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmetini **modullarga ajratib**, xar bir moduldan kutilgan maksadni va modullar ichida xal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish; **uchinchisi**—modul ichida yechiladigan masalalarning xar biri buyicha **test savollarini** tuzib chiqish; **to'rtinchisi** —maqsadlar aniq bo'lib, test savollari tuzilgandan keyin, **maksadlarga yetish usullari tanlanib**, ularni ishlatadigan aniq joylarni belgilab olish.

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv paytida, avval aytib o'tganimizdek, tizimli yondashuv tamoyiliga binoan dars qismlari orasidagi zaruriy bog'likliklarga va fanlar aro aloqalarga aloxida e'tibor qaratiladi. Bu pedagogik texnologiyaning beshinchi tamoyili xisoblanadi.

**O'kuv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishning usul va uslublari.**

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi – oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon xarakat qilishidadir. Kishi maqsadi sari qiladigan xarakati (faoliyati) jarayonidaMaksadga etishda bir necha, goxo unlab-yuzlab tusiklarni engishga tugri keladi. Bu tusiklarni engish uchun tegishli usullar ma'lum bir tizimda kullaniladi.

**Maksadga etishda kullaniladigan usullar tizimi uslub (yul) deyiladi.**

Usullarni ma'lum bir uslubda kullash jarayonida xar bir xarakat makomi muayyan maksad kursatkichlariga buysundiriladi. Undan tashkari, kishi maksadga etish jarayonida bir kator konuniyatlarga xam tamoyil sifatida amal kiladi.

**Kishi maksad sari kilgan xarakatida uning uchun tamoyil vazifasini bajaruvchi maksad kursatkichlari bilan xarakati davomida amal kilinishi shart bulgan konuniyatlar majmui metodologiya deyiladi.**

Xar bir shaxsni, ijtimoiy guruxni va butun jamiyatni eng umumiy, umumiy va xususiy maksadlari buladi, inchunin ularning eng umumiy, umumiy va xususiy metodologik asoslari mavjud.

**1. Jamiyat oldiga kuygan eng umumiy maksad kursatkichlari bilan falsafaning umumiy konuniyatlari xamma uchuneng umumiy metodologik asosdir.**

2. Xar bir soxada mavjud maksad kursatkichlari bilan fakat shu soxada xukm suruvchi konuniyatlar shu soxada faoliyat kursatuvchilar uchun **umumiy metodologik asos xisoblanadi.**

3. Muayyan faoliyatning eng umumiy, umumiy maksad kursatkichlari va konuniyatlari bilan birga shu faoliyatning ichida kiska muddatli maksad kursatkichlari va tarmok konuniyatlari xam buladi. Ularga amal kilish **xususiy metodologiya** deyiladi.

Odamlar faoliyat kursatish jarayonida uz ishlarini eng umumiy, umumiy va xususiy metodologiyalardan birday kelib chikkan xolda amalga oshiradilar.

Maqsad va uning kursatkichlari anik bulganidan keyin, unga etishish, ya'ni usullarining tizimi izlab topiladi va xarakat boshlanadi. Maksad kursatkichlari bilan xarakat paytida uz mavjudligini namoyon kiluvchi konuniyatlar yigindisi ushbu faoliyatning metodologik asosini, tamoyillar majmuini tashkil kiladi.

Xar kandy jamiyatning eng umumiy maksadi buladi. U milliy goya deyiladi.

**Pedagogik jarayonning umumiy metodologiyasi soxa oldiga kuygan maksad kursatkichlari bilan didaktikaning umumiy tamoyillaridir. Pedagogika soxasining umumiy maksadi jamiyatning eng umumiy maksadi, ya'ni goyasidan kelib chikib, uning ajralmas kismidir.**

Ta'limning umumiy maksadi xukukiy demokratik davlat xamda odil fukarolik jamiyatining talablariga javob beruvchi kishilarni tarbiyalab berishdan iborat.

Uzbekistonda erkin, ma'rifatli va demokratik davlat fukarolarining ijtimoiy sifatlariga kuyidagilar kiradi:

**aklli**—mustakil fikr yurita oladigan;

**odobli**-millatimiz tuplagan barcha fazilatlarga ega;

**mexnatsevar**-mexnat kishining ijtimoiy extiyojiga aylanganligi;

**bilimli**-diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni kup va chukur egallab olib, ularni xayotda kullay olishi;

**soglom**-jismoniy, ruxiy va ijtimoiy salomat;

**milliy gururga ega**-ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy merosini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga xissa kushuvchi;

**vatanparvar**-Vatan uchun, xalk uchun fidokorona mexnat kiluvchi, ularni muxofaza kila oluvchi va zarur bulsa, ular uchun jonini kurbon kiluvchi;

**baynalminal**-uz millati katorida boshka millatlarni xurmat kiluvchi;

**insonparvar**-inson zotiga fakat yaxshiliklar uylovchi va ular uchun ezgu ishlar kiluvchi;

**jasur va shijoatli**-xar bir ishga mardona kirishib, uni shijoat bilan oxiriga etkazuvchi.

Bu unta ijtimoiy sifatdan ta'lim soxasida faoliyat kursatayotgan xar bir inson ulardan umumiy metodologik asosi tarzida foydalanishi kerak. Bu umumsoxaviy metodologiyaning birinchi kismi xisoblanadi.

Umumiy metodologiyaning ikkinchi kismini xamma ukituvchi (pedagog)larga yaxshi tanish bulgan didaktika tamoyillari tashkil kiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi dikkatini berilayotgan bilimga karatib, uni jarayon oxirigacha saklab turish; xar bir bilimni ilmiy asoslab berish; bilim berishda ukuvchi (talaba)ning imkoniyati va yosh xususiyatidan kelib chikish; bilim berishda mumkin kadar

kuproq kurgazmali vositalardan foydalanish; bilim berishda muntazamlik va davomiylikni saklash; ukuv jarayonini mexnat jarayoni bilan kushib olib borish; ta'lim va tarbiya jarayonida ukuvchi (talaba)larning faolligi va ongliligini ta'minlash; ta'lim va tarbiyaning tizimli, izchil bulishi va uning birligi tamoyillari kiradi.

Xar bir faoliyatning eng umumiy, umumiy metodologik asoslari bilan bir katorida xususiy metodologiyasi xam mavjud. Bizning misolda, bu muayyan ukuv predmeti, muayyan mavzu va muayyan darslarni utishda kutilgan maksad kursatkichlari bilan pedagogik texnologiyaning bosh tamoyillari xisoblanadi.

Pedagogik jarayonda amal kilinishi shart bulgan uch turdagi metodologik asosni kurib chikdik. Ukuv jarayoni bilan shugullanuvchi xar bir ukituvchi (pedagog), tarbiyachi va boshkalar ushbu uch metodologik asosning xammasiga birday amal kilishi shart. Fakat shundagina ular kutilgan natijaga erishishi mumkin.

**Ta'lim-tarbiya uslub va usullari tugrisida umumiy ma'lumot.** Ta'lim uslubi-ukituvchi (pedagog) bilan ukuvchi (talaba)lar orasida bilim berish va uni olish maksadida amalga oshiriladigan uzaro alokalarni tizimga soluvchi pedagogik tadbirdir. Ta'lim faoliyatini tashkil kilish va amalga oshirish jarayoni uzatish, kabul kilish, anglash, esda saklash va amalda kullay olishni nazarda tutadi.

Ukitish usullari ukuv jarayonining asosiy kismi xisoblanadi. Tegishli usullarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bulmaydi.

Usullar bilimlarni uzatish va kabul kilish xarakteriga karab **suz orkali ifodalash, kurgazmali va amaliyg**abulinadi. Ta'lim mazmunini uzlashtirishda ukuvchi (talaba) larning bilim faoliyatiga munosib ravishda kuyidagi usullar: tushuntirish-illyustrativ (informatsion retseptiv), produktiv (maxsuldor), muammoli bayon, xususiy kidirish yoki evristik xamda yarim tadjikot uslublari kullanilishi mumkin.

**Ta'limning ogzaki usullariga:** xikoya, ma'ruza, suxbat va boshkalar kiradi. Bu usullarni kullashda ukituvchi (pedagog)suz vositasida ukuv materialini bayon kiladi, tushuntiradi, ukuvchi (talaba)lar esa tinglash, eslab kolish orkali uni faol kabul kiladilar.

**Xikoya.** Ushbu usulda ukuvchi (talaba)larga beriladigan bilim mazmunini ogzaki bayon kilish kuzda tutiladi.

Xikoyaning bir necha turi mavjud: xikoya-mukaddima, xikoya-bayon, xikoya-xulosa. Birinchisining maksadi-ukuvchi (talaba)larni suxbat orkali yangi bilimni kabul kilishga tayyorlash. Xikoyaning bu turi bayonning nisbatan kiskaligi, yorkinligi, kizikarliligi va xissiyotga boyligi bilan ajralib turadi, yangi bilim olishga kizikish, uni faol uzlashtirishga extiyoj uygotadi.

**Xikoya-mukaddima** vaktida ukuvchi (talaba) faoliyatining vazifalari tugrisida tushunarli shaklda xabar beriladi.

**Xikoya-bayon** davrida ukituvchi (pedagog) yangi mavzu mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja asosida bilim berib, ichidan muximlarini ajratib, kurgazmali va ishonarli misollar bilan izchil bayon kilib beradi.

**Xikoya-xulosa,** odatda, mashgulotning oxirida keltiriladi. Ukituvchi (pedagog) ushbu usul orkali asosiy fikrni yakunlaydi, xulosalaydi va

umumlashtiradi. Mazkur mavzu yuzasidan mustakil ishlash uchun topshiriklar beradi.

Xikoya usulini kullashda muayyan pedagogik usullardan foydalaniladi. Bular: dikkatni faollashtirish, bayon qilish, takkoslash, asosiylarini ajratish, yakunlash kabi mantiqiy tadbirlardir. Xikoya samaradorligining shartlari: rejani kunt bilan uylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta'minlash, misol va kurgazmalarni muvaffaqiyatli tanlash, bayonda kerakli emotsionallikka erishish.

**Suxbat** usuli atroflicha uylangan savollar yordamida ukituvchi (pedagog) bilan ukuvchi (talaba)larning fikrlash tizimini, yangi tushunchalar va konuniyatlarni uzlashtirishga olib keladi.

Suxbat usulini kullashda savollarni kuyish (asosiy, kushimcha, yulovchi va x.k.), ukuvchi (talaba)larning javob va muloxazalarini muxokama qilish, suxbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan joydalaniladi.

Savollar yaxshi kabul kilinishi uchun etarlicha xajmdor bulishi lozim.

Suxbat uslubi va unga tarkibiy kism bulib kiruvchi usullardan foydalanishda ukituvchi (pedagog)ning samimiyligi chexrasining ochikligi, ruxining kutarinkiligi etakchi urin egallaydi.

**Ta'limning kurgazmali usulini** shartli ravishda ikki katta guruxga bulish mumkin; kurgazmali va namoyish kilish usullari.

**Kurgazmali usuli**, ukuvchi (talaba)larga namoyish etiladigan kullanmalar-xarita, plakat, doskadagi chizma va rasmlar, alomalarning surati va boshkalarni kursatishni kuzda tutadi.

**Namoyish kilish usuli**, odatda, kurulma, asboblar, tajribalar, turli tipdagi apparatlarni namoyish kilish bilan boglik. Namoyish kilish usuliga, shuningdek, diafil'm, kinofil'm kursatishni xam kiritishgan. Kurgazmali usullarni kullashda kuyidagi usullardan foydalaniladi; kursatish, yaxshi kurinishni ta'minlash, utkazilgan kursatuv, namoyish va xokazolar natijalarini muxokama kilish. Ukitish amaliyotiga shaffof plyonkada tayyorlangan rasm, chizmalar sinfni korongulashtirmasdan kursatuvchi LETI apparati, kodoskoplar va komp'yuterlar kirib keldi. Darslarda vatman kogoziga keng flamasterlar yordamida chizilgan, urganilayotgan narsa va xodisaning tadrijini birin-ketin ochib berish imkonini beruvchi chizma va suratlar kullanila boshlandi.

Ukuv kinosini kullash usuli ta'lim amaliyotida odatdagi xodisa bulib koldi.

Ukuv jarayonida fil'mlardan foydalanishga tayyorlanishda ukituvchi (pedagog) uni oldindan kurishi, namoyish kilish davomida ukuvchi (talaba)lar oldiga kuyiladigan asosiy savollarni tuzishi, tegishli laxzasida kursatiladigan parchalarni, savollarini tuzishi, aloxida parchalarning ajratishi lozim. Nixoyat, fil'm buyicha yakuniy suxbat rejasini belgilashi kerak.

SHunday kilib, suz va kurgazmalilik alokasining xilma-xil shakllari mavjud. Ularning birontasiga ustunlik berish xato bular edi, chunki ta'lim vazifasining uziga xos xususiyati, mavzuning mazmuni, mavjud kurgazmali vositalarning xarakteri, shuningdek ukuvchi (talaba)lar tayyorgarligi darajasidan kelib chikib, xar bir konkret xolatda ularning eng okilona kushiluvi tanlanadi.

**Amaliy uslublar** tarbiya faoliyatining xilma-xil turlari keng doirasini kamrab oladi. Amalda kuyidagi usullar kullaniladi: vazifa (maksad)ni kuyish, uni bajarish

usulini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshkarish, taxlil kilish, kamchiliklar sababini aniklash, maksadga tulik erishish uchun ta'lim jarayoniga tuzatish kiritish.

Amaliy mashklarning konkret turlaridan biri mashkni sharxlash xisoblanadi. Uni bajarishda ukuvchi (talaba) bulajak xatti-xarakatini faol mushoxada kiladi, uziga uzi eshittirib gapiradi, bulajak vokeani sharxlaydi. Xarakatni sharxlash ukuvchi (talaba)ga uzining tipik xatosini anglashga va xarakatiga tuzatishlar kiritishiga kumaklashadi.

Amaliy tarbiya uslublarning ikkinchi guruxini laboratoriya tajribalari tashkil kiladi. SHuningdek, amaliy usullarga ustaxonalarda, ukuv-ishlab chikarish tsexlari, ukuvchi (talaba)lar brigadasida mexnat topshiriklarini bajarish xam kiradi. Bu topshiriklar ukuv-mashk xarakteriga ega bulishi mumkin.

Tarbiya uslublariga, shuningdek, ukuvchi (talaba)lar ovoz yozish va ovozni kayta ishlash apparatlari bilan bajaradigan ishlar xam kiritiladi.

Amaliy usullar tarbiyani suz orkali ifodalash va uni kurgazmali uslublar bilan mustaxkamlash jarayoni bilan chambarchas bogliklikda kullaniladi, mashk, tarbiya, mexnat operatsiyasini bajarishdan oldin ukituvchi (pedagog) tushuntirish beradi, kursatadi. Ogzaki tushuntirish va kurgazmani kursatish, odatda, mashkni bajarish jarayonining uzi bilan bir vaktida olib boriladi.

**Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarni faollashtirish.** Agar ta'lim-tarbiya jarayonlari ukuvchi (talaba)larda faol xarakat, bilim va kunikmalar orttirish ishtiyokini uygotsagina, bu jarayon samarali kechadi va sifatli natijalar beradi.

Ukuv faoliyatini bunday tashkil kilish uchun uning barcha usullari-ogzaki, kurgazmali, amaliy, reproduktiv, kidiruv, induktiv xamda deduktiv, shuningdek mustakil ish usullaridan foydalaniladi.

Bu jarayonda ukuv faoliyati, uning mazmuni, shakli va amalga oshirish usullariga bulgan munosabatda ijobiy xissiyotning yuzaga kelishini ta'minlash muximdir. SHuning uchun xam bunday xolatda dikkat, eslab kolish, anglash jarayonlariga ukuvchi (talaba) larning chukur ichki kechinmalari kushiladiki, bu jarayonni kizgin kechadigan kiladi va maksadga erishish ma'nosida ancha samarali buladi.

Ragbatlantirish usullaridan biri ayrim tabiat xodisalarini ukuvchi (talaba)larga avvaldan yaxshi ma'lum bulgan konuniyatlardan, ya'ni ilmiy nuktai nazardan kelib chikib tushuntirishdir.

Ukuv faoliyatiga kizikishning asosiy manbai, avvalo, uning mazmunidir. Bu mazmun kuchli ragbatlantiruvchi ta'sir kursatishi uchun ta'lim printsiplarining kator talablariga javob berishi lozim. Bunda ta'lim mazmunining ragbatlantiruvchi ta'sirini oshirishdagi ayrim maxsus usullar xam mavjuddir. SHu maksadda ukituvchi (pedagog) mamlakat jamoatchiligida aloxida kizikish uygotayotgan, vaktli matbuotda e'lon kilinayotgan, televidenie va radio orkali berilayotgan faktlar, rasmlarni maxsus tanlaydi.

Ta'limning ragbatlantirish va asoslash usullariga bilish baxsi xam kiradi. CHunki ukuv baxsi ukishga kizikishni ragbatlantiruvchi usul rolini uynaydi.

**Ukuvchi (talaba)larning ukuv jarayoni davridagi burch va mas'uliyati.** Ukuvchi (talaba)larning ukishdagi burch va mas'uliyati butun bir gurux usullarni kullash natijasida shakllanadi. Ukuvchi (talaba)larga bilimning

ijtimoiy va shaxsiy axamiyatini tushuntirish, ularni bajarishga urgatish, uz majburiyatlarini muvaffaqiyatli, vijdonan bajarganliklari uchun takdirlash, topshiriklar bajarilishini nazorat qilish va zarurat tugilgan xollarda, ukishga mas'uliyat bilan yondashishdagi kamchiliklarni kursatish, tanbex berish shular jumlasiga kiradi. SHuni aloxida ta'kidlash lozimki, ukishda burch va mas'uliyatni shakllantirish ta'lim va tarbiya jarayonining birligini takozo etadi.

Ukuvchi (talaba)larga kuyiladigan talablar axlok koidalari, fanlar buyicha bilimni baxolash mezonlari, ichki tartib-koidalar, umumta'lim maktab, akademik litsey, kollej va oliy ukuv yurti nizomlari bilan belgilanadi. SHuni unutmash kerakki, ukuv mas'uliyatini ragbatlantirish ukuvchi (talaba)larga kuyiladigan talablarni bajarishga urgatish usullari bilan birgalikda olib borilishi shart, chunki bunday kunikmalarning bulmasligi intizomning buzilishiga va koloklikning kelib chikishiga sabab bulishi mumkin.

### **Axborot texnologiyalarining ta'limdagi urni.**

Xozirgi zamon yoshlarini fan asoslari bilan kurollantirishda, ukutishning ilgor pedagogikaviy texnologiyalari yutuklari asosida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim tugrisidagi konun» talablarini bajarish maksadida ularning akliy tafakkurlarini yukori darajada rivojlantirishga erishish umumiy ta'lim maktablari oldidagi eng muxim vazifalardan biridir.

Bu maksadni amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlash milliy dasturida «Ukuv-tarbiyaviy jarayonini ilgor pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» uning ikkinchi va uchinchi boskichlarida bajariladigan asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanadi. Bunga sabab:

1. Axoli ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirishning birdan-bir yuli eng ilgor pedagog tadbirlardan foydalanish.

2. Fan va texnika tarakkiyotining uta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin kupayib borayotganligini va ularni yoshlar ongiga tula-tukis sindirish va yoshlarni xayot talablariga javob beradigan xolda tayyorlash uchun vaktning kamligi va boshkalar.

Bu maksadga erishish uchun tarakkiy etgan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan kullanib kelayotgan pedagogik texnologiyalarni xamda xalkimizning boy milliy ta'lim manbalaridan foydalanib Uzbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish zarur.

Bu muammoni echishdagi tezkor usullardan eng kulayi va xar tomonlama zaruriy ma'lumotlarni kiska vaktida tuplash, takkoslash, sintez qilish va ularning eng muximlarini ajratib olishga imkon beruvchilari elektron kutubxonalar, telekonferentsiyalar va internetdan foydalanish xisoblanadi.

Internet xozirgi kunda axborot texnologiyalari tizimining ajralmas kismi bulib, undagi asosiy bugin bu uzaro bir-biri bilan boglangan komp'yuterlardir. Komp'yuterlar aloka vositalaridan farkli ularok, foydalanuvchiga ma'lumotni kurish, ukish va eshitish asosida ma'lumotdan unumli foydalanishga imkon yaratadi. Bundan tashkari unda ma'lumotni uzatish, kabul qilish tezligi uta yukoridir.

Ma'lumki, internetga ulanish modem orkali amalga oshiriladi. Modem, uz navbatida, abonentga internet xizmatini kursatuvchi pravayder orkali mavjud



telefon tarmogiga ulanadi, bu esa internetning xar bir xonadonga yaqin orada kirib kelishini ta'minlaydi. Bu xakda vatandoshimiz Zokirjon Furkatning 1896 yilda Sankt-Peterburgda bulganida Popov tomonidan kursatilgan ixtironing taassuroti natijasida yozgan etti misrali she'rini eslash joiz, «Bu ixtiro shunday olamshumul axamiyatga egaki, yaqin kelajakda shu erdan turib, fargonalik suxbatdoshim bilan xam kurib, xam gaplashishga muyassar bulaman».

SHu bilan birga, ishlab chikarishdagi kuplab yosh mutaxassislarning malakalanini, iloji boricha, tez va soz oshirishga imkon beruvchi pedagogikaviy usullardan biri masofadan ukitishni yulga kuyish xam bu kundagi dolzarb muammolardan xisoblanadi, chunki kuplab mamlakatlarda ukitishning turli xil usullaridan va barcha xozirgi zamon telekommunikatsiyaviy texnologiyalardan foydalanib masofadan ukitish amalga oshiriladi. Bu esa juda kuplab talabalar va talabgorlarni bir vaktida eng sunggi va dolzarb muammolar bilan kurollantirishga imkon beradi. Bu ularni ta'limning muxim kismlaridan bulgan mustakil ishlashga urgatishni ta'minlashga olib boruvchi usuldan iborat.

Kuplab mamlakatlarda masofadan ukitishda darsni tashkil kilishning turli usullaridan va talabalar kontengentining anik maksad va talablaridan kelib chikkan xolda zamonaviy telekommunikatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Masofadan ukitishning birinchi navbatdagisi sirdan ukuvchi talabalar va malakasini oshirish zarur bulgan texnik xodimlar uchun amalga oshirilishi bugungi kundagi eng dolzarb muammodan iborat.

Masofadan ukitishni amalga oshirishda birinchi asosiy va zaruriy muammolardan biri uzatiladigan darsning xar tomonlama tarixiy, ilmiy, amaliy muammoli va nixoyat, etarlicha kurgazmali xamda u yoki bu xodisa, konun yoki texnologik jarayonga boglik bulgan va uning mazmunini tuldiruvchi anik va tushunarli ilovalar, kurgazmalar bilan tuldirilgan bulishi shart.

Ikkinchidan, uzatiladigan ma'lumotning ilmiy axamiyatli kismlarini etarli darajada soddadan murakkabga karab tushuntirish metodikasidan tizimli foydalanilgan xolda amalga oshirilishi zarur.

Uchinchidan, uzatiladigan kursning dasturiy ta'minoti shu kursning ilmiy va amaliy axamiyatlilarlni va ishlatilish soxalarini xar tomonlama yaxshi biladigan kup yillik pedagogik tajribaga ega bulgan mutaxassis tomonidan ishlab chikilgan bulishi kerak.

Turtinchidan, uzatiladigan kursning stsenariysi shu kurs yoki unga yaqin kurslar buyicha katta pedagogik maxoratga ega bulgan muallim-dotsent yoki professor tomonidan yozilishi shart. Bunga sabab katta pedagogik maxorat egasi uzining uzok yillik tajribasi asosida talabaga kurinmaydigan va savol- javoblarni eshita olmagan talabaga tushunarli buladigan va uning bilim darajasiga mos xamda talaba uchun zarur bulgan ma'lumotlarni soddarok xolda kelishtirish maksadga muvofik. Bundan tashkari, bu ma'ruzaning axamiyatini ochib beruvchi va talabaning esiga yaxshi saklanib koluvchi misollar bilan boyitilgan bulishi zarur. Bir suz bilan aytganda, stsenariyniing eng ilgor texnologiya asosida katta pedagogik maxorat egasi tomonidan tayyorlanishi maksadga muvofikdir.

Bundan tashkari, zamonaviy ma'ruzalar matnlarini tayyorlashda albatta «Ikki daryo oraligi » da yashab utgan buyuk allomalarning ugitlaridan foydalanish

asosida kutilgan maksadga erishish mumkin. Xususan ta'lim tarbiya maksadining asosini tashkil qilgan Abu Nosr Forobiyning ta'lim tugrisidagi asarlarini eslab utish joizdir. Forobiy uz zamonasidagi barcha soxadagi ilmlarni mukammal bilganligi, yunon falsafasini ta'riflab dunyoga keng tanilganligi tufayli (160 dan ortik asar yaratgan) SHark mamlakatlarida «Ikkinchi muallim», SHark Arastusi nomiga muyassar buldi. Forobiyning «masalalar manbai», «kattalarning akli xakida suz», «yoshlarning akli xakida suz», «ilmlarning kelib chikishi va tasnifi», «fazilatli xulklar» va xokazo. Forobiyning yaratgan asarlari, risolalari bugungi avlod uchun bir buyuk maktabdir. U ta'lim-tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanalib, ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi-jamiyat talablariga javob beraoladigan, shu jamiyat uchun xizmat kiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat, deb biladi.

Kupchilik mutafakkirlar katori Al-Xorazmiy xam bilim berishning kurgazmali tajriba usullari, savol javob, malaka va kunikmalarni shakllantirsh, bilimlarni sinash usullaridan foydalangan.

Masalan, Xorazmiyning arifmetikaga oid risolasi uning tafakkurini rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berganligini kursatadi.

Xorazmiy sinov-kuzatish va sinov usullariga asos soldi, zamonaviy jismlarning xarakterini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarni algoritm usulida echishni ishlab chikib, bilish nazariyasiga ulkan xissa kushdi.

**«Ta'lim» degan suz-insonni ukitish**, tushuntirish asosida bilim berish; tarbiyaning nazariy fazilatlarini, ma'lum xunarni egallash uchun zarur bulgan xulk normalarini va amaliy malakalarini urgatishdir, deydi.

Forobiy fikricha, Er yuzida fakat inson bilish kobilyatiga ega. Xakikatni bilish esa, insonning tabiiy rivojlanish xolatidan biridir. Biri, tabiatdan berilgan xususiyatlar, ikkinchisi,uz xoxish va ixtiyori bilan ta'lim- tarbiya olkali orttirilgan xususiyatdir. Ma'rifat-tarbiyalanuvchining xoxish irodasini kerakli yunalishga boshkarish san'tidir, deydi Forobiy.

Forobiy bilimni yod olish usuliga nisbatan uning ma'nosini tushuntirish afzalligi, ta'limning muvaffakiyatli kechishi uchun tarbiya beruvchining uzi tarbiyali bulmogi lozim.

Urta asr ijtimoiy tarakkiyoti buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan boklik bulib, uning inson kamoloti xakidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya soxasida katta axamiyatga ega.

Abu Rayxon Beruniy ta'lim- tarbiya soxasida usha zamonlarda (X-XI asrlar), xatto xozirgi kunda xam dolzarbligini yukotmagan fikrlarni ilgari suradi. U ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchini zeriktirmaslik, bilim berishda bir xil narsalarni urgatavermaslik, uzviylik, izchillik, mavzularni kizikarli asoslab, kurgazmali bayon etish zarurligini uktirgan.

### **«Innovatsion texnologiya»lar tushunchasi**

SHu vaqttacha an'anaviy ta'limda talaba (yoki o'kuvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul talaba (yoki o'quvchi)larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talaba (yoki o'quvchi)lar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi) asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog - olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida

*Nega o'qitamiz?*

*Nimani o'qitamiz?*

*Qanday o'qitamiz?*

savollariga javob izlash bilan bir qatorda

*Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin?* - degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini *texnologiyalashtirishga*, ya'ni o'qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bunday fikrning tug'ilishi *pedagogika faida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini* yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-garbiyaviy jarayonida pedagogik- texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

*Birinchi*dan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

*Ikkinchi*dan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

*Uchinchi*dan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

*To'rtinchi*dan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoqi maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (yoki o'quvchi)dan Ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talaba (yoki o'quvchi)ni kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o'quvchi)larni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol («inter» - bu o'zaro, «act» - harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyatlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilgan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega

bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'рни qisman talaba (yoki o'quvchi)larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talaba (yoki o'quvchi)larning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga: talaba (yoki o'quvchi)ning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

talaba (yoki o'quvchi)larning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikini ta'minlanishi;

- talaba (yoki o'quvchi)larning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

- pedagog va talaba (yoki o'quvchi)larning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, *pedagogik texnologiya* - faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proektor yoki boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning asosiy negizi - o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'lik. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har

bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi)lar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bupday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu - o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talaba (yoki o'quvchi)ning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratshgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talaba (yoki o'quvchi)larning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)larga bog'liq.

Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, talaba (yoki o'quvchi)larning imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, talaba (yoki o'quvchi)ni ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

*2-savolga javob:*

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga ega, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talaba-o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Darsning texnologik xaritasini, zavodga tuproq shaklidagi chinni xom-ashyoni topib kelishdan tayyor piyolagacha bo'ladigan barcha texnologik jarayonlar ssenariysiga qiyoslash mumkin.

Texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogik, psixologik, xususiy metodika va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsning rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Darsning texnologik xaritasini qanday shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan

bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchini darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topgan bo'ladi.

Quyida huquqshunoslik fanidan "Otalikni belgilash" mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasini misol tariqasida keltirilgan:

### **Texnologik xarita**

Mavzu	Otalikni belgilash
Maqsad, vazifalar	Talabalarga otalikni belgilashning mohiyati, ahamiyati, asoslari va tartibini tushuntirish. Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat–munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimni baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	Bolaning nasl–nasabini belgilash tushunchasi. Otalikni belgilash zarurati qaysi hollarda vujudga kelishi. Otalikni belgilashning maqsadi va ahamiyati. Ota–onaning birgalikdagi arizasi asosida otalikni belgilash. Otaning arizasi asosida otalikni belgilash. Otalikni belgilash munosabati bilan tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftariga o'zgartirishlar kiritish.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metod: Og'zaki bayon qilish, suhbat–munozara. "Bumerang" texnologiyasi. Forma: Amaliy mashg'ulot, kichik guruhlarda va jamoada ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar: matnlar, ariza, ma'lumotnoma, habarnoma blankalari. Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida Nazorat: Og'zaki nazorat, savol–javoblar, kuzatish, o'z – o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli sistema asosida.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: - Mavzu qisqa vaqt ichida barcha talaba-o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishiladi. Talaba-o'quvchilar faolligini oshiradi. Talaba-o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir vaqtning o'zida ko'pchilik talabalarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchi – talaba: YAngi bilimlarni egallaydi. YAkka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutq rivojlanadi va eslab qolish

	qobiliyati kuchayadi. O'z–o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.
Kelgusi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi – talaba: Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganish. O'z fikrini ravon bayon qila olish. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topish, ularni o'rganish. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qilish

Texnologik xaritaning o'quvchi–talabaning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqadi. Bu esa o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

O'qitish jarayonida o'quvchi–talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogik va o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llanilishini taqozo etadi. Ular juda xilma-xil bo'lib, biz ulardan ba'zilar xaqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida uslubiy ko'rsatma beramiz. Ushbu metodik ko'rsatmada keltirilgan zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talaba-o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ushbu metodik ko'rsatmadan foydalanuvchilar o'quv jarayonini tashkil etish uchun havola etilgan texnologiya treninglarni xuddi shu tartibda o'tkazishlari shart emas, xar qaysi o'qituvchi bu terininglarning umumiy shaklini olgan holda o'zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan tereninglarning to'liq yoki ularning ba'zi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishlari mumkin.

### **3-savolga javob:**

Interfaol usul nima? An'anaviy ta'limda «**nimani, qachon vaqaerda**» muammolariga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, zamonaviy **hamkorlikka asoslangan ta'lim** texnologiyalarida «**qanday qilib o'rgatish kerak?**» degan muammo muhim o'rinni egallaydi.

Ta'lim jarayonida o'rgatuvchi va o'rganuvchilar hissasining nisbati insoniyat taraqqiyotining (tsivilizatsiyaning) turli davrlarida turlicha bo'lgan. Bir vaqtlar ta'lim beruvchilar etakchi bo'lgan bo'lsa, ma'lum davrlarda ta'lim oluvchilar tashabbuskor bo'lishgan va bunday faolliklarning ijobiy va salbiy

jihatlari tadqiq etilgan. Keyingi o'n yilliklarda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan ta'lim texnologiyalari jadallik bilan rivojlanmoqda va ommalashmoqda. Pedagoglar bunday ta'lim texnologiyalarini «hamkorlik pedagogikasi» deb atashmoqda. Bunday hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalari AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilib, yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Bunday ta'lim texnologiyalaridan biri interfaol o'qitish metodlariga asoslangan. «Inter» so'zi lotincha bo'lib, o'zbekcha «oraliq», «o'rtasi», «o'zaro» kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro faollikka asoslangan hamkorlik ekan. Tabiiyki interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim tizimidagi o'zaro faol usullar (metodlar)dan tarkib topadi.

Hamkorlikka asoslangan, talaba-o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan, talaba-o'quvchilarni boshqalarning fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgaralar manfaatlari bilan hisoblashish, ulardan o'rganish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning «men»ligini sezish, his qilish, o'zini boshqarish, fikrini lo'nda va aniq bayon qila olishga o'rgatishga qaratilgan «interfaol» o'qitish usullari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ijobiy samara bermoqda. Interfaol usullar guruhdagi kichik guruxlar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib, talaba-o'quvchilarni xarakatchanlikka boshlab, ruxlantiradi, natijada o'quvchilar hamkorlikka o'rgana boshlaydilar. Har qanday interfaol usul to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llanilganida o'rganuvchilarni mustakil fikrlashga o'rgatadi.

Interfaol usullarda muammoli, hayotiy vaziyatlardan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Baxsli, muammoli vaziyat–insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog'liq bo'lib qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Baxsli, muammoli vaziyatlar talaba-o'quvchilarning aqliy kuchini zo'riqtiradi, vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidira boshlaydi. Qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Odam muammo bilan yuzma-yuz (to'qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O'zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlab, saviyasiga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi.

Talaba-o'quvchilar o'zlari bajargan, topshiriqlarni qanday qilib bajarganligini aytib, tushuntirib bera olishlari lozim. Qanday o'ylagani, fikrlagani haqida gapirib bera olishlari kerak. Muammoni hal qilish jarayonidagi tushunmay qolgan o'rinlarini o'z so'zlari bilan ifodalab bera olishi, o'rgatuvchi uchun juda muhimdir.

Talaba-o'quvchilarni ma'lumotlar bilan faol ishlashga o'rgatuvchi usullarni interaktiv metodlar deyiladi.

## **VERBAL MULOQOT SHAKLLARI MA'RUZALARNI FAOL USULDA O'TKAZISH**

Har qanday yuqori saviyada o'tkazilgan ma'ruza, garchand u faktlarga boy bo'lsa ham, agar uzoq vaqt davom etsa, o'quvchi-talabalarning eshitish qobiliyati susayadi va charchaydi. SHuning uchun yangi pedagogik texnologiya asosida



tashkil etilgan ma'ruzalar samarali bo'ladi. Ma'ruzachi o'z ma'ruzasini bir necha bloklarga bo'ladi. Har blokni 15-20 minut davom ettiradi va har bir blokdan so'ng to'xtab, savol-javob o'tkaziladi.

Ma'ruza davomida ayrim muammolarni o'rtaga tashlaydi. SHu vaqt oralig'ida bu muammoga talaba-o'quvchilarning munosabatini aniqlaydi, ularning fikrlarini tinglaydi. Har bir fikr bildiruvchiga imkoniyat yaratadi. Uning fikri diqqat bilan tinglanadi. Ammo uni tanqid ostiga olmay, boshqalarning fikrlari tinglanadi. Bu holat ma'ruzaga nisbatan bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi, ma'ruzaga befarq qaramaslikka sabab bo'ladi. Talaba-o'quvchilarni suhbatga tortish 5 minut davom etadi.

Ma'ruzachi talaba-o'quvchilarning qiziqish, intilish, mas'uliyati oshib borishni kuzatib boradi. Ma'ruzani davom ettiradi va shu hol takrorlanadi. SHu davr ichida doimo faol ishtirok etuvchilar, teran fikr bildiruvchilar ma'ruzachining tayanchiga aylanadi.

Ma'ruza davomida mavzuni sekin-asta talaba-o'quvchining kundalik faoliyatiga bog'lash boshlanadi, asta-sekin ularga ham qisqa munozaralar asosida javob topiladi.

SHu holda kechgan ma'ruzalarda talaba-o'quvchilar vaqt qanday o'tib ketganini bilmay qoladilar. Ma'ruzaning yana davom etishini xohlab, befarqlik o'rni hushyorlik, ichki intilish, echim qidirish egallaydi, o'zlari ham echimni topishda shaxsan ishtirok etishga hissa qo'shishga intiladilar.

Bunday ma'ruzalar har ikki tomonning o'zaro faolligini oshiradi. Navbatdagi munozaralarga chorlaydi. Talaba-o'quvchilar bunday ma'ruzada ishtirok etar ekanlar, qolgan ma'ruzalar yana davom etishini ustoz bilan yana qachon uchrashishlarini istab qoladilar.

## **NOVERBAL VOSITALAR**

Noverbal vositalari mimika, qo'l, gavda harakatlari orqali biror ma'no-mazmuni ifodalash yoki ta'kidlashdan iborat. Noverbal vositalar jiddiy ahamiyatga ega bo'lib, ularning o'rni boshqa narsa bosa olmaydi. Insonning har bir harakati ma'lum ma'noga ega bo'lib, bu harakatlarni turli xalqlarda turlicha tushuniladi. Bu harakatlarni noverbal nutq deb nomlash qabul qilingan. Noverbal nutq insonning u yoki bu muskullari harakati, shu jumladan, uning fikrlashi ham undagi ma'lum muskullar harakatidan iborat ekanligini eslatib o'tish maqsadga muvofiq. Bir imo-ishora qilib qo'yishning ta'siri gapirgandan ko'ra kuchli bo'lishi hech kimga sir emas.

## **VIZUAL VOSITALAR**

Vizual (ko'rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayonida talaba-o'quvchilar ko'z bilan ko'rishlari uchun mo'ljallangan barcha vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga sinf doskasidagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, o'quv plakatlari, foto suratlar, tasviriy san'at asarlari, video, kino tasvirlar, jonivorlar, o'simliklar, tabiat ob'ektlari, turli buyumlar va boshqalar kiradi.

Ko'rgazmali vositalarning pedagogik texnologiyada qo'llanilishi talaba-o'quvchilarga o'rgatish kerak bo'lgan axborotga tegishli mazmuni turli shakl va usullarda ko'rsatish orqali tez, aniq va to'g'ri tushuntirish imkoniyatini beradi.

### **AUDIO VOSITALAR**

Audio vositalar eshitish orqali axborotni o'rganish, o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Hozirda ko'proq audiovizual vositalar, ya'ni bir vaqtda eshitish va ko'rishga xizmat qiluvchi vositalar: kino va boshqa ovozli video tasvirlardan foydalaniladi.

Aslida esa amaliyotda mavjud sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda, ijodiy yondashuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yaxshi samara berishi mumkin.

### **TABIY VOSITALAR**

Tabiiy vositalarga pedagogik texnologiya jarayonida o'rganish ko'zda tutilgan mazmunga tegishli barcha tabiiy narsalar kiradi. Bular odam va jonivorlar, o'simliklar va tabiat, asbob-uskunalar, buyumlar, mashinalar, mexanizmlar, inshootlar va shu kabilardan iborat.

Talaba-o'quvchi va o'qituvchi uchun zarur o'quv anjomlari hamda maktab jihozlari pedagogik texnologiyaning zarur vositalari hisoblanadi.

Umuman pedagogik texnologiyaning sifati va samaradorligi hozirgi kunda ko'p jihatdan barcha turdagi zarur vositalarning sifati va ulardan yuqori samaradorlik bilan foydalana bilishga bog'liq. Bu vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish o'qituvchining malaka, mahorat, ijodkorligi, izlanuvchanligiga bog'liq

### **INTERFAOL DARS ISHLANMASINING SXEMASI**

*Mayda guruhchalarda ishlash:*

1. Turli usullar yordamida guruh mayda guruhchalarga (4-5 ta) ajratilib, har bir kichik guruh o'zining boshlig'ini saylaydi.
2. Mavzu va uning maqsadi, asosiy muammosi aniq qo'yiladi.
3. Muammo bo'yicha quyidagicha fikrlar bo'roni tashkil etiladi:
  - a). Mustaqil ravishda daftarga javoblar ro'yxati tuzish.
  - b). O'zaro juftlikda (yonma-yon o'tirganlar) bir-birining tuzgan ro'yxati bilan tanishib, qo'shimchalar kiritish.
  - v). Guruhchalarda ro'yxatlarni umumlashtirish, muhokama etish, tahlil qilish, sintez qilish, toifalash, umumiy bitta xulosaga kelish.
  - g). Guruhlarning sardorlari navbat bilan ro'yxatlarni o'qib berish, takrorlanmagan yangi fikrlar bilan ro'yxatlarni to'ldirib, doskaga o'qituvchi bitta umumiy fikrlar (tushunchalar) «shoda»si tuzadi.
4. Tuzilgan «SHoda»ga o'qituvchi tomonidan qo'shimchalar kiritiladi.
5. O'qituvchi yordamida «shoda» elementlari sharhlanadi va toifalarga ajratiladi.
6. Mustahkamlash uchun tadbir o'tkazilib va uyga vazifa beriladi.
7. Xulosa.



**Eslatma:** dars  
mumkin .

masi o'zgartirilishi

Namuna sifatida keltirilmoqda:

-auditoriyaning doska osilgan tomonida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish uchun maxsus ekran yoki oppoq devorda etarli darajada bo'sh joy bo'lishi kerak;

-o'qituvchi stoliga oldi bilan tirab bir parta qo'yiladi. Bundan ekspertlar, sardorlar, konsul'tatsiya olishga, uy vazifasini yoki boshqa nazoratlarini topshirishga kelgan talaba-o'quvchilar bilan suhbatlashishda foydalaniladi;

-xonadagi boshqa har ikki parta bir-biriga oldi bilan tirab qo'yiladi. Oqibatda to'rt talaba-o'quvchi bir-birlariga yuzma-yuz o'tirishadigan, doskaga yon tomonlaridan qaraydigan bo'lishadilar. Partalari yonma-yon turgan ikki kichik guruh birlashtirilib 8 talabadan iborat kichik guruhlar hosil qilish mumkin. Bunda o'qituvchi mehnati ikki marta qisqarib, talabalarining hamkorlikda ishlashlari yanada kuchayadi. Natijada butun o'quv yili davomida doimiy ravishda hamkorlikda ishlaydigan kichik guruhlar shakllanadi;

-har bir kichik guruhda kamida bitta yaxshi o'zlashtiruvchi talaba-o'quvchi (sardor, ekspert) bo'lishi kerak;

-sardorlar bir-birlari va o'qituvchi-trener bilan maslahatlashishga borishlari uchun partalarning qulay tomonida o'tirganlari ma'qul;

-o'qituvchi taklif etmagan holda uning huzuriga konsul'tatsiya uchun faqat bir talabaning kelishiga ruxsat etiladi;

-bunday darsda bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun, aqliy hujum, sinektika, nima uchun kabi texnologiyalardan kompleks foydalanish kerak;

-yangi pedagogik texnologiyalardan har darsda sistematik foydalanilmasa kutilgan natijani bermaydi;

-o'qituvchi-trener masala sharti va echimini ekranga tushirib tushuntirgach, shunga o'xshash bir xil topshiriqni barcha kichik guruhlariga hamkorlikda bajarishlari taklif etiladi;

-ekranga tushirilgan masala sharti va echimini tushuntirish jarayonida aqliy hujum, sinektika, nima uchun kabi interfaol metodlardan foydalanish qulay va yaxshi samara beradi. Bunda talaba-o'quvchilarga noto'g'ri bo'lsada o'z fikrlarini bildirishlari, qo'rqmasliklari, har qanday noo'rin fikrlarga ham tanqidiy munosabat bildirilmasligi oldindan aytilishi kerak. Talaba-o'quvchini, umuman bolani fikrlashdan to'xtatish jamiyat taraqqiyoti oldiga to'siq qo'yish bilan barobar;

-o'qituvchi talaba-o'quvchilardan navbatdagi dars mavzusiga doir nazariy materiallarni uyda o'rganib kelishlarini qat'iy talab etishi zarur;

-topshiriqni bajara olmagan ayrim kichik guruh sardorlarining boshqa kichik guruhlardan va o'qituvchi-trenerdan yordam olishlariga ruxsat etiladi;

-agar bitta kichik guruh ishini bajara olmasa, kuchli sardorlardan birining ularga yordam berishi uyushtiriladi;

-topshiriq birorta ham kichik guruh tomonidan bajarilmasa, oldin o'rgatilgan masala echimi yana ekranga chiqarilib, o'qituvchi-trener tomonidan qayta tushuntiriladi. SHu tartibda talaba-o'quvchilar hamkorlikda mustaqil ishlashga o'rgatiladi;

-sardor sust o'zlashtiruvchi sheriklarining o'z imkoniyatlari darajasida o'qishlariga mas'ul;

-sust o'zlashtiruvchi talaba-o'quvchilar o'qituvchi-trener va sardorlarning doimiy e'tiborida va ko'magida bo'lishlari, ularning har qanday kichik muvaffaqiyatlari rag'batlantirilishi zarur;

-qo'yilgan topshiriqning qaysi kichik guruh sardori tomonidan birinchi bajarilganligi, qaysi sardorning boshqa kichik guruhlar sardorlariga necha marta yordam berganligi belgilangan bir talaba tomonidan yozib boriladi. Bu yozuvlar va o'qituvchining shaxsiy kuzatishlari natijalari bo'yicha kichik guruhlar va sardorlar rag'batlantiriladi.

O'quv rejasi bo'yicha ikkinchi mashg'ulotdan so'ng auditoriyadan chiqishni xohlashmasdan o'qituvchisini o'rab olishib yaxshi dars uchun minnatdorchilik bildirayotgan Samarqand QXI «Iqtisodiyot va boshqaruv» fakul'tetining 104-eksperimental guruhida 2008 yilning 23 yanvar' kuni yuqorida yozilgan tartibda, 103-xonada o'tkazilgan interfaol darsdan keyingi talabalar fikrlari: darsga to'ymay qoldik; matematikani dars jadvaliga har kuni qo'ysa bo'lmaydimi; darsni 90 minutga uzaytirish mumkin emasmi; kelgusi haftagacha darsni sog'inib ketamiz; bunday chiroyli auditoriya hech joyda yo'q; hamma o'qituvchilarimizning shunday dars o'tishini xohlardik. O'qituvchi uchun bundan ortiq hurmat bo'lishi mumkin emas. Bu mehnatimiz samarasi.

## INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN NAMUNALAR.

### AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum metodidan ham lektsiya, ham amaliy darslarda foydalanish qulay. Bu metod bir zumda auditoriyadagi barcha o'quvchi-talabalarni qamrab olib ularni aktiv holatga keltiradi.

YAxlit mavzu, uning bir qismi yoki tanlab olingan muammo yuzasidan o'quvchi-talabalarga beriladigan savollar majmuasi o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan bo'lishi ishda yaxshi natija beradi.

Aqliy hujum metodi qo'yilgan muammo echimiga bog'liq ravishda 5-10 daqiqa davom etishi mumkin. Bunda o'quvchi-talabalarning berayotgan javoblariga na o'qituvchining va na boshqalarning aralashuviga, har qanday fikr bildirishlariga yo'l qo'yilmaydi va natijalar baholanmaydi, ballar qo'yilmaydi. Bu qoida ko'pincha o'qituvchi tomonidan avtomatik tarzda buziladi, ya'ni talaba-o'quvchi bildirgan noto'g'ri fikrga tezda o'z munosabatini bildirib to'g'rilaydi. Bu vaziyat talaba-o'quvchilarni fikrlashdan to'xtatadi, darsda foydalanilayotgan aqliy hujum metodiga putur etkazadi. Maqsad: noto'g'ri bo'lsada o'quvchi-talabaning o'z fikrini bildirishiga erishishdan iborat. O'qituvchi umumlashtirishdan so'ng bildirilgan fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riligi har bir talabaga ma'lum bo'ladi.

Talabalarning fikr yuritishlari o'qituvchi tomonidan to'g'ri yo'lga solib turiladi va rag'batlantirilib boriladi. Vaqti-vaqti bilan fikrlar umumlashtirib turiladi.

Muammoning echimi bo'yicha fikrlar shaklannib bo'lgach u oxirgi marta umumlashtiriladi va aniq fikrga kelinadi. SHundan keyin talabalar o'zlarining takliflarini o'zlari solishtirib, to'g'ri va xato fikrlarini anglab etishadilar va o'zlarini o'zlari baholaydilar. Ammo o'qituvchining ularga baho yoki tanbeh berishiga yo'l qo'yilmaydi.

### BUMERANG TEXNOLOGIYASI

Otilgan buyumning otuvchiga qaytib kelishini ta'minlovchi o'roqsimon otish quroliga bumerang deyiladi. Ta'limda bumerang metodining ma'nosi pedagog tomonidan tashlangan muammoli masala yoki mavzuning talaba-o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan holda o'qituvchiga og'zaki yoki yozma shaklda qaytishidan iborat.

1.Darsda o'rganiladigan mavzuning rejasida 4 ta mavzucha bo'lsa, auditoriyadagi talabalar ham 4 guruhga ajratiladi. Rejadagi birinchi mavzucha o'qituvchi tomonidan tayyorlangan javoblari bilan birinchi guruh talaba-o'quvchilarining har biriga taqdim etiladi. SHu tariqa rejadagi boshqa mavzuchalar ham javoblari bilan birgalikda o'ziga mos nomerdagi guruhlarning talaba-o'quvchilariga tarqatiladi. Har bir guruhdagi talabalar o'zlariga javoblari

bilan taqdim etilgan bitta mavzuchani o'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda o'rganib chiqishadilar.

2. SHundan keyin 4 guruh talaba-o'quvchilari aralashtirilib, Yangi tarkibdagi 4 guruh tashkil etiladi. Bu yangi guruhlarning har birida dastlabki 4 guruhlarning barchasidan bir nechtadan talaba-o'quvchilarning ishtirok etishiga erishiladi. Natijada butun o'quv materialini yaxlit jamoa bo'lib o'rganish imkoniyati tug'iladi. Muhimi, talaba-o'quvchilarda o'quv materialini mustaqil o'rganish, hamkorlikda ishlash, bilganlarini boshqalarga tushuntira bilish ko'nikma va malakalari shakllanadi.

3. O'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda mavzuni jamoa bo'lib o'rganish yakunlangach, talaba-o'quvchilar dastlabki guruhlariga qaytishadi va savol-javoblar boshlanadi. O'qituvchining tashkilotchiligi asosida savollar boshqa guruhlar tomonidan bitta jamoaga beriladi. Jamoa ichidan o'zlari tanlagan bir talaba-o'quvchi sheriklarining to'plagan ballarini yozib, jamlab, natijalarini o'qituvchiga topshiradi. Barcha guruhlar shu tarzda savol-javobdan o'tkaziladi. Bunda qo'yilgan savolga to'g'ri javob bergan talaba-o'quvchiga 3 ball, to'g'ri qo'shimcha qilganga 2 ball, to'g'ri replika qilganga 1 ball, umuman fikr bildirmaganga 0 ball qo'yiladi.

4. Har bir guruh mavzu bo'yicha o'zlari bittadan savol tuzib, unga javob berishni boshqa jamoalarga taklif etadi. To'g'ri javob bergan jamoaning umumiy baliga 3 ball qo'shib, boshqalarga 0 ball qo'yiladi. Hech kim javob bera olmasa, savolni tuzgan jamoaning o'zi javob bersa, ularning umumiy baliga 3 ball qo'shib qo'yiladi.

5. Endi har bir talaba-o'quvchining baholash uchun ularga mavzu bo'yicha oldindan tayyorlangan test tarqatiladi. Bir guruhning ish natijalarini boshqa jamoa talaba-o'quvchilari tayyor javoblar asosida tekshirib, o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan shkala bo'yicha ball qo'yiladi.

6. Dars o'qituvchi tomonidan talaba-o'quvchilar ishtirokida mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Guruhlar va talaba-o'quvchilarga to'plangan ballar e'lon qilinib, rag'batlantirish amalga oshiriladi. Kelgusi dars uchun kerak bo'ladigan topshiriq va vazifalar shakllantiriladi.

Guruh talaba-o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga, o'quv materiallarning hajmi, oson yoki qiyinligiga bog'liq ravishda dars vaqtida etishmovchilik kutilsa, to'rtinchi bosqichni o'tkazmaslik mumkin.

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi-talaba yoki o'qituvchi rovida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi, talaba-o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

## BUMERANG TEXNOLOGIYASINI O'TKAZISH BOSQICHLARI

### 1 – BOSQICH

- Trening tinglovchilari 4–5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi;  
- o'qituvchi har bir guruh va uning har bir a'zosiga mustaqil o'rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun alohida–alohida aniq yozma tarqatma material beradi. Ularning soni guruhlar va tinglovchilar soniga bog'liq. Agar 4 ta kichik guruh bo'lsa, u holda umumiy mavzu 4 ta kichik matnlarga bo'linib har bir guruhga beriladi;

- faoliyat samarali bo'lishi uchun har bir guruhga berilgan tekstdan har bir tinglovchiga beriladi. SHunday qilib, 4 ta guruh umumiy mavzu asosida 4 xil matnga, har bir tinglovchi esa o'z guruhiga tushgan matnga ega bo'ladi.

### 2 – BOSQICH

- guruhlariga berilgan matnni guruh a'zolari yakka tartibda alohida o'rganishlari, tekstni eslab qolishlari, keyin esa kerak bo'lsa boshqalarga yoki o'qituvchiga gapirib berishlari, iloji boricha tekstni o'zlashtirib olishlari kerakligini o'qituvchi uqtiradi va tayyorgarlik uchun matnni katta yoki kichikligiga qarab 10-15 daqiqacha vaqt beradi. O'zi esa guruh va tinglovchilarning ish faoliyatini kuzatadi.

### 3- BOSQICH

-o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan raqamlar yozilgan kichik qog'ozlar bilan xar bir guruh yoniga kelib guruh a'zolaridan ushbu qog'ozlardan bittadan raqam tortib olishlarini so'raydi (qog'ozlar soni guruhdagi tinglovchilar soniga bog'liq ,masalan guruhda 5 kishi bo'lsa, qog'ozdagi raqamlar 1,2,3,4,5, etib tayyorlanadi, agar 4ta bo'lsa 1dan 4gacha va hokazo.). Kichik guruhlardagi barcha tinglovchilar raqamlar yozilgan qog'ozdan olishlari kerak . Nechta guruh bo'lsa , shuncha guruh a'zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog'ozlar tayyorlanadi .

Trener raqamlar bo'yicha tinglovchilardan yangi guruhlar tuzishlarini so'raydi . Masalan , hammadada 1-raqamini olganlar bitta yangi guruh , 2-raqamlilar ikkinchi , 3-raqamlilar uchinchi guruhni, 4- raqamlilar to'rtinchi guruhni , 5-raqamlilar beshinchi guruhni tashkil etishlarini so'raydi . Guruh a'zolari yangi guruhga o'zlari bilan o'rgangan matnlarini ham olib o'tishadilar.

### 4 – BOSQICH

- raqamlar bo'yicha yangi guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o'z–o'zidan to'planib qoladi, ya'ni 4 xil matn o'rganilgan bo'lsa, bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to'planadi, umumiy mavzu bo'yicha 4 tinglovchi va 4 xil matn to'planadi.

### 5 – BOSQICH

- yangi tuzilgan guruhning har bir a'zosi endi o'ziga 2 ta vazifa, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko'rsatadi:

-o'qituvchi (o'rgatuvchi) sifatida, o'zi avval o'rgangan materialni gapirib beradi, o'zi mustaqil o'rgangan materialning asosiy joylariga barchaning diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a'zolarining tushunish va o'zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi.

-o'quvchi sifatida, guruh a'zolarining navbatma-navbat so'zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

- o'qituvchi esa ularga o'z tekstlarini faqat so'zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga 20 daqiqacha vaqt beradi (matn hajmiga va umumiy mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt ajratiladi).

Bu bosqichda trening boshlanishida tarqatilgan barcha material tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilgan hisoblanadi.

## **6 – BOSQICH**

-guruhdagilar bir-birlariga o'z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, o'qituvchi o'rganilgan material guruh a'zolari tomonidan qanchalik o'zlashtirib olganini tekshirib ko'rish uchun har bir guruh a'zolarining bir-birlariga o'z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkinligini tushuntiradi. SHunday qilib, guruh ichida ichki nazorat, ya'ni savol-javob orqali o'tkaziladi. Bu esa guruhdagi tinglovchilarni bir-birlariga so'zlab bergan materiallarini boshqalar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga, o'zining bilimni yanada mustahkamlashiga yordam beradi.

## **7 – BOSQICH**

- o'qituvchi barcha tinglovchilarni yana qaytadan avvalgi joylariga qaytishlarini so'raydi, ya'ni talaba-o'quvchilar yana mashg'ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

## **8 – BOSQICH**

- o'qituvchi auditoriyadagi tinglovchilarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lganliklarini hisobga olgan holda, har bir talaba-o'quvchidan o'rganilgan materialni so'rashi mumkinligini aytadi.

## **9 – BOSQICH**

- tinglovchilarga tarqatilgan o'quv materialining ular tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi talaba-o'quvchilarning nazorat savollariga bergan javoblarini reyting ballari orqali baholashini tushuntiradi, masalan, savollarga berilgan javoblar– agar to'liq javob bo'lsa – 3 ball, qo'shimcha qilinsa – 2 ball, o'tirgan joydan luqma tashlansa – 1 ball, javob berilmasa – 0 ball qo'yilishi belgilanadi.

Baho sistemasida - to'liq javob uchun 5 baho, qo'shimcha uchun 4 baho, luqma tashlansa 3 baho, javob bermasa 2 baho, umuman ishtirok etmasa 1 baho qo'yishni belgilash mumkin.

Guruh a'zolarining javoblarini yuqorida ko'rsatilgan tartibda baholash, ballarni qo'yib borish, umumlashtirish uchun har bir guruh o'ziga guruh qatnashchilaridan birini "hisobchi" etib tayinlashi mumkin ("hisobchi" ham davrada bo'layotgan savol-javoblar muloqotida ishtirok etadi).

## **10 – BOSQICH**

- o'qituvchi tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5–6 ta) bilan talaba-o'quvchilarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha hamma matnlarga



tegishli bo'lgani ma'qul, shuningdek, o'qituvchi auditoriyadagi barcha o'quvchi-talabalarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi).

Belgilangan savollarga javob berish tugagach, o'qituvchi doskaga guruhlar tomonidan to'plangan ballarni yozadi va mashg'ulotning keyingi bosqichiga o'tadi.

### **11 – BOSQICH**

-o'qituvchi har bir guruhni o'z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tayyorlashlari kerakligini aytadi va guruhlariga savol tuzishlari uchun 5 – 7 daqiqa vaqt ajratadi.

### **12 – BOSQICH**

-guruhlar bir–birlariga savollar beradilar, guruhlardagi “hisobchilar” esa guruh a'zolarining javoblari yuqorida belgilangan tartibda baholab boradilar.

Javoblar to'g'ri bo'lsa, savol bergan guruh javobni to'ldirmaydi.

### **13 – BOSQICH**

-o'qituvchi guruh a'zolari to'plagan ballarni yana bir marta doskaga yozadi va to'plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymatini aniqlaydi. To'plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymati barcha guruh a'zolariga teng bo'linadi (kelishganlik asosida).

Izoh: agar to'plangan ballarni guruh a'zolariga teng bo'lishda o'quvchi-talabalar tomonidan norozilik bo'lsa, ya'ni ba'zi guruh a'zolari guruhning faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy jamoaviy faoliyatda passiv bo'lgan bo'lishsa, yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan bo'lishsa, bunday holatda vaziyatni echishni guruh a'zolariga yuklatiladi. Guruhning echimi to'g'ri hisoblanadi, yoki o'qituvchi o'z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida o'quvchi-talabalarning javoblari, faol yoki passivliklarini kuzatib boradi.

Umuman olganda, agar o'quvchi-talaba faollik ko'rsatmagan, yoki savol – javoblarda ishtirok etmagan bo'lsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani eslab qolib o'zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik ball berilishi mumkin. Bu o'quvchi-talabani keyinchalik shu shakldagi darslarda faolroq bo'lishga undaydi. YUqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa uning echimini har bir o'qituvchi sharoitga qarab o'zi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Ba'zida guruhning “hisobchilari” ballarni qo'yishda noaniqlik yoki qo'shib yozishlari mumkin, natijada, ba'zi guruhlarining umumiy to'plangan ballari boshqa guruhlaridan juda kam farq qilishi mumkin. O'quvchi-talabalarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlangan “hisobchi”lariga bog'liq ekanligini o'qituvchi oldindan eslatib o'tadi. Agar umumiy to'plangan ballarni guruh a'zolariga taqsimlaganda shu mashg'ulot uchun belgilangan maksimal balldan ortib ketgan bo'lsa, u holda shu mashg'ulot uchun kerakli ballni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashg'ulotlarga yoki yakuniy nazoratga o'tkazish mumkin .

### **14-BOSQICH.**

-har bir talaba-o'quvchiga ballar qo'yilgach o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi. O'quvchi-talabalarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o'z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

-bugungi mashg'ulotdan nimalarni bilib oldingiz?

-nimalarga o'rgandingiz?

- nimalar siz uchun yangilik bo'ldi?
- yana nimalarni bilishni istar edingiz?

### **15-BOSQICH.**

O'qituvchi o'quvchi–talabalarning javoblarini diqqat bilan tinglab ularga minnatdorchilik bildiradi va darsni yakunlaydi.

### **MULOQOT TRENINGI**

Ushbu trening o'quvchi–talabalarda dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda bunday mashg'ulot tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'lgan holda o'tkaziladi.

### **MULOQOT TRENINGNI O'TKAZISH BOSQICHLARI**

O'qituvchi mashg'ulotni boshlashdan avval tinglovchilarni muloqot, baxs-munozarani o'tkazishga qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi

#### **1-BOSQICH.**

-o'qituvchi ishni o'tkaziladigan muloqotning mavzusini aniqlashdan boshlaydi, masalan, «Siz qaysi madaniyat tarafdorisiz: «SHarq yoki Evropa?»». SHu mavzuni o'rta tashlab tinglovchilardan SHarq madaniyati va Evropa madaniyati tarafdorlarini aniqlab oladi. Ularni shu tartibda guruhlariga bo'ladi.

#### **2-BOSQICH.**

-har bir guruhdagi tinglovchilar o'z mavzulari bo'yicha kerakli materiallar, dalillar, misollar, aniq fikrlar, o'z fikrini tasdiqlovchi ko'rgazmali materiallar, imkoni bo'lsa videofil'm, maqolalar, mutafakkir va olimlarning so'zlari va boshqalarni tayyorlaydilar. Guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlar esa o'z fikrlarini qo'shimcha qilishlari mumkin. O'qituvchi guruh talabalarining tayyorgarlik ko'rish imkoniyatlarini hisobga olgan holda vaqt beradi.

#### **3-BOSQICH.**

-guruhlar himoyaga tayyor bo'lgach o'qituvchi guruhlarining biriga himoya uchun so'z beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda bo'lishi mumkin). Guruh vakili guruh nomidan so'zga chiqib ularga berilgan mavzuni tayyorlangan materiallar, dalillar asosida himoya qilishga kirishadi. Guruh vakili so'zini tugatgach, guruhning qolgan a'zolari qo'shimcha fikrlar bildirishlari mumkin.

#### **4-BOSQICH.**

-mashg'ulotning 3-bosqichidagi kabi bu bosqichda ham o'qituvchi navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun so'z beradi. Ikkinchi guruh ham birinchi guruh kabi o'z mavzusi bo'yicha himoya qiladi. Himoya tugagach, o'qituvchi mashg'ulotning keyingi bosqichiga o'tadi. Xar ikkala himoya vaqtida o'qituvchi iloji boricha o'z fikr va mulohazasini bildirmaslikka, savol bermaslikka harakat qiladi, hech qaysi guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshqaradi, guruh himoyasi vaqtida tartib saqlanishiga va muloqotni o'tkazishga qo'yilgan talab, qoidalarining to'liq bajarilishiga erishishga harakat qiladi. Bu bosqichda, asosan, ikki guruh erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

#### **5-BOSQICH.**

-guruhlar bir-birlariga savol berishni boshlaydilar. Guruhlar tomonidan beriladigan savollar ular himoyasi vaqtida aytilgan dalillar, misollar, fikrlarni

yanada oydinlashtirish maqsadida, shuningdek, o'z guruhlarining fikrlarini yanada ta'kidlab, isbotlab, qolganlarni ham shu fikrga qo'shilishlariga da'vat qilish uchun berilishi mumkin. Tinglovchilar erkin holda o'zlarining chiqishlari bilan barchaga ta'sir ko'rsatishga, o'z fikrlarini ma'qullashga harakat qiladilar. O'qituvchi bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratadi, ya'ni u bahs-munozarani samimiylik bilan boshqaradi.

## **6-BOSQICH.**

-o'qituvchi har ikki tomonning bir-birlariga savollari, aytadigan fikrlari, ma'qullaydigan so'zlari tugagach, har ikki guruh tomonidan aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va o'zining bu masala haqidagi fikr va mulohazasini bayon etadi va guruh tinglovchilari tomonidan tushgan savollarga kerakli javoblarni berishga harakat qiladi.

Mashg'ulot oxirida o'qituvchi har ikkala guruhning mashg'ulot jarayonidagi faoliyatlarini taxlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg'ulotni yakunlaydi. Ushbu treningning davomiyligi sharoitga qarab belgilanadi.

## **FSMU TEXNOLOGIYASI**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqida fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

## **5-mavzu: Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Jamo va gurux psixologiyasi REJA:**

1. Muloqot - pedagogik hamkorlik vositasi sifatida.
2. Muloqotning mohiyati va tuzilishi.
3. Pedagogik o'zaro munosabatlar mohiyati.
4. Pedagogik muloqot uslubi va uning tuzilishi.

## **TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

Muloqot, pedagogik muloqot, didaktika, tarbiya nazariyasi, kategoriya, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Kadrlar tayyorlash miliy modeli, Kadrlar tayyorlash miliy modelining tarkibiy qismlari, o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar.

Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatleri bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim. Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan

to`g`ri tanlangan, o`qituvchining ma`naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi: *birinchidan*, muloqotda har bir o`quvchiga alohida e`tibor va dilkashlik, sinf jamoasi bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o`qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi; *ikkinchidan*, har bir o`quvchi bilan o`zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik muloqot uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga "kirib borish"ga yo`l ochadi;

*uchinchidan*, pedagogik muloqotda o`qituvchining ma`naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo`lib, ta`lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o`qituvchining o`z faoliyatidan qoniqish hissini xotirjamligini ta`minlaydi.

O`qituvchining o`quvchilar bilan muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o`z ichiga oladi:

1. O`quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o`rganishi. O`quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish, har tomonlama tavsif berish, o`qituvchining muloqotni to`g`ri tashkil etishi asosida amalga oshadi.
2. Shaxsiy muloqotda ro`y beradigan kamchiliklarni aniqlash va darhol ularga barham berish choralarini izlab topish: muloqotda qo`pollik, mensimaslik va boshqa salbiy holatlarni yengish.
3. O`qituvchi o`zi uchun muloqot madaniyatining qulay bo`lgan uslublarini ishlab chiqishga doir faoliyatni ishlab chiqishi va o`z-o`zini kuzatish bilan yutuq va kamchiliklarni taqqoslash.
4. O`zining muloqot madaniyati uslublariga muvofiq keluvchi milliy an`ana va ma`naviyatimizga xos jihatlardan unumli foydalanish.

---

5. Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik, bu uslubni mustahkamlash (pedagogik amaliyot va malaka oshirish jarayonida).

Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o`qituvchilar o`z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o`quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta`lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o`qituvchi va o`quvchilarning bevosita o`zaro munosabatini ma`lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo`naltiruvchi kuchdir. Bu o`rinda o`qituvchi quyidagi vaziyatlarni e`tiborga olishni alohida ta`kidlash lozim:

- o`qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o`qituvchi va o`quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat,

soʻz ohangiga eʼtibor, anʼanaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini oʻzlashtirishi;

- muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, oʻquvchilar hattiharakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;

- oʻz muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur soʻz, ovozdagi yoqimli ohang, hulq-atvorni vujudga keltirish;

- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart- sharoitlarini bilib olishning oʻzi kifoya qilmaydi, oʻquvchilar bilan oʻzaro muomalaning “ustozshogird” anʼanalariga xos boshlanishi va oʻzaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala obʼektining diqqatini oʻziga jalb qilish;

- muloqot obʼekti, yaʼni oʻquvchining diqqatini oʻziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning maʼnosi oʻqituvchi oʻzining xushmuomalaligi, madaniyati, goʻzal xulqi, muloqotda oʻquvchilar qalbiga yoʻl topa olishi bilan oʻz mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy- psixologik negizni asos qilib olishidir. Koʻrsatib oʻtilgan vaziyatlar asosida pedagogik taʼsir koʻrsatish uchun, oʻqituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odobxloqiga, dilkashligiga, muosharat odobiga alohida talablar qoʻyiladi. Ushbu fazilatlar oʻqituvchining sinf jamoasida, ota-onalar bilan muloqot qila bilishida, oʻquvchilar bilan aniq maqsadni koʻzlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ularni boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir. Kasbiy faoliyatning noyob fazilati boʻlmish pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiladigan yosh oʻqituvchi quyidagi xususiyatlarni oʻzida mujassamlashtirishi lozim:

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga mos boʻlgan yuksak maʼnaviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror eʼtiqod, davlatimiz ideallari, milliy gʻoya va istiqlol mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik tuygʻulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

- oʻquvchilarga samimiy mehr–muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, hatti-harakatlari motivlarini, xulq-atvorlarini tushunish koʻnikmasi va malakasining shakllanganligi;

- jamiyatda roʻy berayotgan hodisalar, jahonda roʻy berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mavjudligi; - pedagogik faoliyatning barcha jabhalarida odamlarning hatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarni oqilona tushunish, oʻz faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib toptirish;

- har qanday favqulotda vaziyatlarga, jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarga omilkorlik va aql idrok bilan munosabatda bo'lish, o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z imkoniyatlarini namoyon eta olish;

- pedagogik faoliyatlarda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etishi; - dunyoqarashi va tafakkur ko'lamining kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilliligi, muayyan ilmiy salohiyat va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshirib borishi;

- o'quvchilar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma'noli, ta'sirchan kuchga egaligi, psixologik ta'sir o'tkazish bilan qurollanganligi.

Har bir o'qituvchi uchun o'quvchilarga to'g'ri, omilkor axborot uzatish va unga suhbatdoshini ishontira olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi. Bunda o'qituvchining muloqot madaniyati, ma'naviy olamining kengligi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining pedagogik faoliyati uzluksizdir, shu sababli u pedagogik muloqot madaniyatini ham muntazam shakllantirib borishida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berishi lozim:

1. yuksak pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan o'z-o'zini anglashi, (muomalada o'zining o'zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini bilishi) va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li bilan o'z-o'zini tarbiyalashi.

2. Kishilar bilan o'zaro munosabatda kommunikativ iqtidorini shakllantirib borishi, muloqot asosida to'g'ri bashorat qilish sezgilarini mashq qildirishi, muloqotda o'zining ideal tasavvurlarini, imkoniyatlarini boshqalar (o'qituvchilar jamoasi, o'quvchilar, otaonalar) qanday baholashi haqidagi refleksiv tasavvurlarini tahlil qilishi.

3. O'zida muosharat odobining muhim xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlashi.

4. O'quvchilar va ota-onalar bilan tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan turli jamoat ishlarini olib borishi, bunda o'zaro fikr almashish asosida pedagogik tashkilotchilik qobiliyatini takomillashtirib borishi.

5. Muloqot jarayonida paydo bo'ladigan salbiy holatlarni yengish ko'nikmalarini shakllantirishi, dilkashlik va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratishi.

O'qituvchi muloqot madaniyati asosida faoliyat olib borgan taqdirda ham, o'quvchilar jamoasi orasida turli tushunmovchiliklar, ziddiyatlar paydo bo'lishi tabiiy hol. Har qanday tajribali o'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. Sinfda sodir bo'ladigan har qanday pedagogik vaziyatga javobgar shaxs o'qituvchidir. Bu barcha

davrlar pedagogik faoliyatida namoyon boʻladigan tipik hodisa. Ayniqsa, ushbu holat endigina oʻz faoliyatini boshlagan yosh oʻqituvchilarning pedagogik faoliyatida muammoli vaziyatlarni paydo qiladi. Yosh oʻqituvchilarning oʻquvchilar bilan olib boradigan taʼlim-tarbiyaviy faoliyatini doimiy nazorat qilish, ularga toʻgʻri yoʻnalish berish, barcha oʻquv muassasalari pedagogik jamoatchiligiga, ustoz oʻqituvchilar zimmasiga yuklatilishi lozim. Pedagogik faoliyatda xato va kamchiliklarga yoʻl qoʻyadigan oʻqituvchining yoshiga va ish tajribasi koʻlamiga odatda oʻquvchilar hech qachon eʼtibor bermaydilar. Chunki, oʻquvchilar yoshidan va tajribasidan qatʼiy nazar barcha oʻqituvchilarni ustoz deb ataydilar. Oʻzbekistonda taʼlim-tarbiya va pedagogik muloqotning oʻziga xos anʼanalari, milliyligimizga mos shakl va metodlari mavjud. Zero, I.A.Karimov asarlarida taʼkidlanganidek, *“Mamlakatimizning istiqloq yoʻlidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk maʼnaviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy taʼlim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uygʻunlashtirish asosida jahon andozalari va koʻnikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda”*. Bu ulkan mashaqqatlar evaziga amalga oshirilib kelinayotgan taʼlim- tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy yoʻnalishidir. Hozirgi zamon oʻqituvchisidan, hayot sinovlariga bardoshli boʻlish, millat qadriyatlarini anglash, jamiyatda oʻzining munosib oʻrnini topish, yuksak maʼrifatli va ulkan salohiyatli boʻlish, eng soʻnggi zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilish talab etiladi. Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yoʻnalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish uchun, har bir muloqot ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga koʻmaklashuvchi uning shaxsiy hislatlarini rivojlantirib borishni taʼminlovchi vositalardan foydalanish taklif qilinadi. Muloqotga baʼzi oʻquvchilarning subʼektiv qarashlarini aniqlash, shu oʻquvchi bilan muloqotni oqilona hal qilinishi zarur boʻlgan vazifalarni belgilash, uning xulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish kerak. Mazkur vaziyatlarda oʻzaro harakatlarning tizimli vositalari majmuasi quyidagicha belgilanishi mumkin:

- muloqot jarayonida tarbiyalanuvchi obʼektning javob harakati imkoniyatlarini oldindan koʻra bilish;
- obʼektda psixologik toʻsiq va salbiy qarashlarni keltirib chiqaruvchi vositalarni qoʻlga kiritish;
- vaziyatning oʻzgarishiga qarab foydalanish mumkin muloqotlarning bir nechta modeliga ega boʻlish;
- oʻquvchilar jamoasi fikrlarini tinglash, ularning mulohazalariga qoʻshilish, ularga hamdardlik koʻnikmasini rivojlantirib borish;
- oʻzaro muloqot natijalarini baholash va erishilgan yutuqlar hamda kamchiliklarni pedagogik-psixologik vositalar asosida taqqoslash.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri oʻqituvchining shaxsi, uning qarashlari nuqtai nazarlarida va xulqida namoyon boʻladigan

g`oyaviy siyosiy saviyasi, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog`liq. Bu asosiy hislatlardan tashqari o`qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning moyilligi xarakteri, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek, to`plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega. O`qituvchi shaxsining professional jihatlarini o`z-o`zini tarbiyalash yo`llaridan biri o`zining sifat va hislatlarini, shuningdek pedagogik faoliyat va muloqotlarining barqaror xususiyatlariga, o`qituvchi bilimining saviyasi va tarbiyalanganligi natijasida erishilgan natijalarini tahlil qilishga doir mashqlarda ham namoyon bo`ladi.

Mustaqillikdan keyin amalga oshirilayotgan ta`lim tizimidagi islohotlar tufayli ulkan o`zgarishlar ro`y bermoqda. Odamlarning ongi, dunyoqarashi o`zgardi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma`naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo`lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlantirishda o`qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta`kidlash joizki, o`qituvchi kasbiga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, ularning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma`naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta`lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg`unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o`quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko`nikmalarini hosil qilish kabi buyuk vazifalarga javobgarlik o`qituvchilar zimmasiga yuklatildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganidek, *«Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro`y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma`no- mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o`z atrofida sodir bo`layotgan voqealar haqida haqqoniy ma`lumotlarga, eng muhimi, o`z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo`lishiga erishish ta`lim- tarbiya va ma`naviy-ma`rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezonini bo`lishi kerak... bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo`lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma`naviy, kerak bo`lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi»*. Bu vazifalarning bajarilishiga, ta`limtarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo`lgan o`qituvchining o`quvchilar bilan o`zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O`quvchi ma`naviy muhitining shakllanishi o`qituvchining yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo`ladi. Bu o`rinda o`qituvchining shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zamirida shakllanib, takomillashadi. Pedagogik muloqot madaniyati o`qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo`naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o`qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o`ziga xos ta`rifga ega. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida **muomala** o`quvchilar qalbiga yo`l topa olish, ularga



yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta`lim-tarbiya jarayonida o`quvchilar bilan o`zaro aloqa bog`lashga qaratilgan o`qituvchining pedagogik qobiliyatidir. O`qituvchi o`quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O`z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.
2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi.
3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.
4. O`zining ta`lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o`quvchi qalbiga yo`l topadi.

Muomala o`qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo`lib, o`zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o`qituvchi quyidagi faoliyatga qat`iy amal qilishi lozim:

- o`qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so`z va ohangni tanlay bilishi va ta`sir o`tkaza olishi;

- muomala ob`ekti bo`lmish o`quvchi diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imoishoralarni o`z o`rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta`sirni bilishi;

- o`quvchining ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o`quvchilarni ta`lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;

- o`quvchiga og`zaki, o`zaro ta`sir ko`rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O`qituvchining nutqi ravon, o`quvchi ongiga ijobiy ta`sir qiladigan bo`lishi. Nihoyat, o`qituvchining o`quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o`quvchilarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma`no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning o`zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o`quvchilarning xulq-atvop usullaridan foydalanadi. O`qituvchining o`quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o`rnini to`ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o`zaro munosabatlar doirasida sodir bo`ladi. Boshqarish vositasi bo`lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo`ladi.

Pedagogik muloqot o`qituvchining pedagogik faoliyatida o`zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O`qituvchi o`quvchilar bilan muloqot jarayonida bevosita o`z tarbiyalanuvchilari, umuman o`quvchilar jamoasi haqida, unda ro`y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g`oyat xilma-xil axborotlarga ega bo`ladi va o`zining kelgusi ta`lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, o`qituvchi muloqot asosida o`z tarbiyalanuvchilariga ma`lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma`lum qiladi. Bunda o`qituvchi tomonidan yo`l qo`yiladigan

arziyas bir xatolik, adolatsizlik, qo`pollik o`quvchilar bilan o`zaro muloqot madaniyatining buzilishiga sabab bo`ladi va tuzatib bo`lmaydigan og`ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. O`qituvchining o`quvchilar bilan o`zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo`ladi:

- pedagogik muloqot orqali o`qituvchi tarbiyalanuvchi ob`ekt bilan o`ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o`qituvchi o`zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san`ati, ta`sir o`tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;
- o`qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo`lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;
- o`quvchilar jamoasi bilan muomalada o`qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta`lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;
- o`qituvchi o`quvchilar jamoasi bilan o`zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo`ladi.

Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida ob`ekt va sub`ektning ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg`unlashuvi sodir bo`ladi. Ushbu o`zaro uyg`unlashuvni yuzaga keltiradigan muloqotning asosiy bog`lovchisi so`zdir. *So`z – mazmunan o`qituvchining nutqida, ma`ruzasida, dialog, monolog va deklamatsiyalarida o`z ifodasini topadi.*

Pedagogik muloqot madaniyati vositasida o`qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o`quvchining shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi axborotlarning muhimligini alohida e`tiborga olishi lozim. Pedagogik muloqot madaniyati, o`qituvchini g`oyat xilma-xil sharoit va ko`rinishlarga moslashishiga imkoniyat yaratadi. Bular sirdan qaraganda unchalik ahamiyatli bo`lmasada, o`quvchi ichki dunyosida sodir bo`layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo`lgan zarur ichki jarayonlar ko`rinishlarining alomatlarini bilib, ta`lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi.

#### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Muomala madaniyati nima?
2. Muomala va munosabatning farqi nimada?
3. SHaxslararo munosabatlarning turlari haqida gapiring.
4. Millatlararo muomala madaniyati nima?
5. Milliy tarbiya nima?
6. Milliy g`oya nima?
7. Milliy dunyoqarash nima?
8. Umuminsoniy qadriyatlar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma`naviyat. – Toshkent, O`zbekiston, 1994.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997.

3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
4. Karimov I.A. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi. –T.: O'zbekiston, 2010. 57-bet.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
6. Pedagogika /O'quv qo'llanma. Munavvarov A. tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1996.
7. Pedagogika /A.Q. Munavvarovning umumiy tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1993.
8. Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: SHarq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Boshtahriri yati, 2001. – 18-52-betlar.
9. Ochilov M, Ochilova M. O'qituvchi odobi. – Toshkent, O'qituvchi, 1998.
10. Babaeva D.R. Axmedova M.E. “Pedagogika” fanibo'yicha majmua. -T.: TDPU, 2010.

#### **6-mavzu:**

#### **O'quv tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish REJA:**

1. Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo'nalishlari.
2. O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarning turlari va ularni tashkil qilish shakllari.
3. Oilada tarbiya asoslari.
4. O'z-o'zini tarbiyalash va kamol toptirish.

#### **TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

Jamoa, shaxs, tarbiya, qonuniyat, mustaqil, fikr, erkin, shaxs, model.

**1. Tarbiya nazariyasining mohiyati.** *Tarbiya nazariyasi* pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqati nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi SHarq mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi larning ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi hamda xalq ta'limi tizimini boshqarish bilan uzviy bog'liq.

#### **Tarbiya jarayonining mazmuni.**

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni

muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga etkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda ob'ektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidir». Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xussiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Islohotlarning asosiy g'oyasi respublikaning riojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'qrisida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning qator asar va nutqlari, chunonchi, «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarlarida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

**Tarbiya** - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

**Tarbiya jarayoni** o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'zini o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Bola o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.

**Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun** uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat.

Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni engillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri – o'quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish muhimdir. Aks holda xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta'sirga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin.

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo'ladi.

Umumiy pedagogika jarayonida tarbiya muhim o'rin tutadi. SHaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi:

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan

tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.

**3. Tarbiya tamoyillari.** Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatleri mohiyati aks etadi. Tarbiyamazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosda belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi tamoyillar yotadi:

**Tarbiya maqsadining aniqligi.** O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada, amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'qrisida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» g'oyalariga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vazifa - bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlari, ya'ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

**Bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati.** O'qituvchilarning bolalar bilan ma'naviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunasini izlash, shu asosida tarbiyachi ishining hayotiy me'yor va qadriyatlarini aniqlash o'quvchining tarbiya jarayonidagi faolligini ta'minlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan bolalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari, ularning shaxsiy namunalari tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.

**O'z-o'zini anglash.** Tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim unsurlaridan biri – bu insonning hayotiy o'z-o'zini anglashi, uning o'z shaxsiy hayoti va faoliyatining sub'ekti sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy o'z-o'zini anglash jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

**Tarbiyaning shaxsga yo'naltirilganligi.** Mazkur g'oya ta'lim muassasasi amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, ularning shakl, metod va vositalari emas. Balki o'quvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos xarakteri, o'z qadrqimmatini anglash tuyg'ulari rivojlantirilib borilishi zarur.

**Ixtiyoriylik.** Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida ham o'quvchi, ham o'qituvchi ma'naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi o'quvchining

qiziqishi, faoliyati, o'rtoqlik va fuqarolik burchini anglash, mustaqillikka intilish tuyg'ularini ko'ra va anglay olsagina uning irodali ekanligi ayon bo'ladi. Tarbiyalanuvchining irodali bo'lishi ta'minlangan sharoitda uning shaxsiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida samaraga erishiladi.

**Jamoa yo'nalishi.** Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsni har tomonlama kamoloti, uning dunyoni anglash, uni to'laqonli talqin etish, insonparvarlik va o'zaro hamkorlik tuyg'ularini yuzaga kelishi va rivojlanib borishi kabi holat amalga oshiriladi.

**4. Tarbiya qonuniyatlari.** Ijtimoiy tarbiya maqsadi hamda vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining o'ziga xos qonuniyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning eng muhim xususiyati **aniqmaqsadga yo'naltirilganligidir.**

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi. YA gona maqsadga erishish yo'li zamonaviy tarbiya jarayonining maqsadini tavsiflaydi.

Zamonaviy tarbiya mazmuni va ularda ilgari surilgan g'oyalar yaxlit tarzda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

**Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib,** unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashkil (sub'ektiv va ob'ektiv) omillar ko'zga tashlanadi. Sub'ektiv omillar shaxsning ichiki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, ob'ektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va shakli obektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunday muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari hami muhim o'rin tutadi.

Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

YUqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda mavzuga quyidgicha xulosa qilish mumkin:

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.

YOsh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum

mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradagi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

**Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy maqsadi.** Ijtimoiy munosabatlar ko'lamining kengayishi o'sib kelayotgan avlodni o'ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayoniga har tomonlama etuk etib tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Psixologik, intellektual va fiziologik jihatdan etuk inson hayotiy qarama-qarshilik, xususan, turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolish, nosog'lom turmush kechirish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan o'zini saqlab qola oladi. SHuningdek, shaxsning aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omildir. O'zbekiston Respublikasida, demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro'y berayotgan voqeahodisalarga shaxsiy munosabtni bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta'limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni e'tirof etadi: «Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini, o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir».

Komil insonni shakllanirish masalasi barcha davrda, ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta'kidlansa, islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra etuklikning bosh mezonini – ilmlilik, bilimli bo'lishdir.

2. SHaxsning jamoada qaror topishi. SHaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan jamiyat a'zosi bo'lib, uning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar jarayonida kechadi. Mazkur jarayonda qatnashish asosida u jamiyat tomonidan tan olingan ma'naviyaxloqiy, shuningdek, huquqiy me'yorlar mohiyatini o'zlashtiradi. Jamiyatning a'zosi sifatida uning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi mehnat faoliyatini yo'lga qo'yadi. SHuningdek, shaxsiy ehtiyojlari, manfaatlarini qondirish yo'lida ham atrofdagilar bilan munosabatga kirishadi.

3. Jamoa haqida tushuncha. Jamoa (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimai bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir



necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamo» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. CHunonchi, o'quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

**Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash** - tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. SHaxsni shakllantirishda jamoaning etakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

**Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi** hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o'zaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi.

YUqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.

2. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi.

3. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra to'rt bosqichdan iborat bo'ladi.

4. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo'yilishi, jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

5. Jamoaning mustahkam bo'lishi, uning a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi. **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarbiya jarayonining mohiyatini qisqacha tavsiflang.

2. Tarbiya maqsadi nimadan iborat?

3. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

4. Tarbiya jarayonida qanday vazifalar hal etiladi?

5. Jamoa nima?
6. O'quvchilar jamoasining ishlab chiqarish jamoalaridan farqi nimada?
7. Jamoaning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.
8. Jamoani shakllantirish bosqichlarini sanang va ularning o'ziga xos xususiyatlariga batafsil to'xtaling.
9. Jamoani tashkil etish metodikasi mazmunini so'zlang.
10. Jamoa an'analari deganda nimani tushunasiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
3. Karimov I.A. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi. –T.: O'zbekiston, 2010. 57-bet.
3. Pedagogika. Munavvarov A.Q.ning umumiy tahriri ostida. - Toshkent, O'qituvchi, 1993.
4. Ziyomammedov B. Ma'rifat asoslari. – Toshkent, CHinor ENK, 1998.
5. Podlasly I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn. 2. – Moskva, Vldos, 1999.
6. Ivanov I.P. Vospitatel kollektivistov. – Moskva, Pedagogika, 1992.
7. Pedagogika. Munavvarov A.Q.ning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, O'qituvchi, 1996.

### **7-mavzu: O'quv faoliyatini tashkil qilish**

#### **shakllari REJA:**

1. Ta'lim turlari va shakllari hamda ularning tavsifi.
2. Ta'lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi.
3. O'qishni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi.
4. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari.
5. Dars-o'qishni tashkil etish asosiy shakli.

#### **TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

Ta'lim, tur, rivojlanish, dars, o'quvchi, faoliyat, shakl, tavsif, pedagogik tizim, rivojlanish, tendensiya, didaktika, tashkil etish.

**Ta'lim turlari va shakllari hamda ularning tavsifi.** Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o'qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir. Ta'lim turlari (yunoncha species) alohida, o'ziga xos xususiyatga ega. Pedagogik tizimlar turlari bo'yicha farq qiladi, keng qo'llaniluvchi tizimlar an'anaviy

tizimlar deb ham ataladi. Ta'lim turlari o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvni ifodalaydi.

«Biz mamlakatimizning kelajagini ko'zda tutgan xolda bugungi kunda taraqqiy topgan ilmiy jamoatchilikning e'tibor markazida turgan eng ilg'or, istiqbolli ilmiy izlanish va tadqiqot ishlarini yurtimizda rivojlantirish maqsadida fanlar akademiyasi va oliy o'quv yurtlari tarkibida yangi laboratoriyalarni tashkil qilish, ularni rivojlangan mamlakatlardagi ilm-fan markazlari bilan samarali hamkorlik aloqalari o'rnatishga erishishimiz kerak», degan edi Prezident I.A.Karimov.

**Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim** nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko'rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi.

**Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim** turi vaqtni tejash, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta'lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta'minlaydi. Biroq muayyan kamchilikka ham ega, ya'ni, "tayyor" bilimlarni berish va o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o'quv jarayonini individuallashtirish, differentsiyallashtirish imkoniyatlarining kamligi..

**Muammoli o'qitishda** o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki o'quvchilarni faol idrok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak.

Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O'quv muammosi bir qadar qiyin, lekin o'quvchilarning kuchi etadigan bo'lishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan birinchi bosqich yakunlanadi. Muammoni hal etishning keyingi bosqichida o'quvchilar savol bo'yicha mavjud muammoni ko'rib chiqadilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning etarli emasligini aniqlaydilar va etishmayotgan axborotni topishga intiladilar. Uchinchi bosqich muammoni echish uchun zarur bo'lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan. U hayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi ("Men nima qilishni bilaman!"). SHundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari keladi.

**Dasturlashtirilgan o'qitish** harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi "dastur" terminidan kelib chiqadi. Ushbu turning asosiy maqsadi o'quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Bunday o'qitish asosini kibernetik yondoshish tashkil etadi. Unga binoan o'qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturlashtirilgan o'qitish yangi didaktik, psixologik

va kibernetik g'oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi. U o'quvchining bilim egallashi yo'lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida o'z vaqtida yordam ko'rsatish, qiyinchiliklarini oldini olish, qiziqishini yo'qotmaslik va salbiy oqibatlarining oldini olishga imkon beruvchi o'quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo'naltiradi.

**Kompyuterli ta'limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:**

o'qitish dasturlarining sifati;  
hisoblash texnikasining sifati.

O'qishni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi. Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksion-seminarli va sinfdan tashqari, auditoriyadantashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

individual;  
sinf-darsli;  
leksion-  
seminarli.

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.

Sinf-dars tizimining mazmuni o'quv ishlarini tashkil etish o'ziga xos shakli sifatida quyidagilarda iborat:

a) bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

b) sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi.;

v) mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

g) dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois o'quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;

d) darsda o'quvchilarning ishiga o'qituvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalari, har bir o'quvchini alohida bilimni baholaydi va yil oxirida o'quvchini keyingi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qiladi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning

tashkiliy qurilishi vatipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi.

K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'ratadi:

- ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va o'quvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go'yoki "eshik" hisoblanadi.

- asosiy masalani hal etishga yo'naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisobalanadi.

- amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo'shdi. U o'qituvchi va o'quvchining faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, o'quvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi.

Ta'limning sinf-dars tizimi alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning echimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi; ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketmaketligi.

Kamchiliklari: tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishdga qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat: o'quv faoliyatining muvaffaqiyatimaktabda ishlash sur'atining har bir o'quvchining imkoniyatlari, ularningqobiliyatlariga moslashtirilishiga bog'liq: ta'lim faoliyati ustun turadigan o'qishnian'anaviy tashkil etish o'quvchining mustaqil o'quv faoliyatining markaziyhisoblanishi, o'qituvchi vazifasining faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iboratligi,sinf laboratoriyalarining

ustaxonalar bilan almashtirilishi, darslarning bekor qilinishi, o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, o'quvchining laboratoriya yoki ustaxonalarda o'qituvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari vazarur bo'lgan paytda o'qituvchidan yordam so'rashlari.

**Dars-o'qishni tashkil etish asosiy shakli.** Ta'lim jarayoni yaxlitligi nuqtai nazaridan o'qishning asosiy tashkiliy usuli dars hisoblanadi. Unda sinf-dars o'qitish tizimining ustunliklari aks ettiriladi, bu shaklda o'quvchilarni ommaviy qamrab olish bilan tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligini ta'minlaydi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'qituvchining o'quvchilar individual xususiyatlarini va o'quvchilarning bir-birlarini bilishlari sinf jamoasining har bir o'quvchi o'quv faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishidan foydalanish imkonini beradi. Dars doirasida frontal, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo'lmaydigan ustunligi hisoblanadi.

Dars o'qituvchining rahbarligi asosida aniq belgilangan vaqt davomida o'quvchilar guruhi (sinf)ni ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish, hamma o'quvchilar bevosita mashg'ulot davomida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, o'quvchilarning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratuvchi ish vositalari, metodlaridan foydalanishning tashkiliy shaklidir.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o'quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog'liq..

### **Zamonaviy didaktikada dars quyidagi turlari ajratib**

**ko'rsatilgan:** a) aralash darslar;

b) yangi ma'lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo'yicha yoki umumlashtirishlarni anglab etish va o'zlashtirish maqsadiga ega darslar;

v) bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;

g) o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar;

d) malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;

e) bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o'rganish darsi;

s) o'z tuzilishi bo'yicha oddiy bo'lgan, ya'ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo'lgan dars turlari (o'rta va katta sinflarda qo'llash uchun mos keladi).

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar yoshlarini hisobga olib o'quv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o'rganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to'g'ri

keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu erda ko'pincha ishlar boshqa turlarini o'z ichiga oladi: materialni og'zaki etkazish. qiziqarli hikoyani o'qish. Darsning aynan mana shu turi aralash(kombinatsiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uy vazifalarini tekshirish va o'quvchilar bilan savol-javob,yangi materialni o'rganish, o'zlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollaridavomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o'rganilganlarni suhbat ko'rinishidatakrorlash, o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish.

**O'quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarniberish (o'rganish) darsi** nisbatan keng doiradagi savollarni o'z ichiga olgan va uni o'rganishga ko'p vaqtini talab qiluvchi, o'quvchilarga tanish bo'lmagan yangi material uning mazmuni bo'lgan ta'lim jarayoni. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va o'quvchilarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga qarab ba'zi hollarda yangi materialni o'zi bayon etadi. Boshqa hollarda esa – o'qituvchi rahbarligi ostida o'quvchilarning mustaqil ishlari olib boriladi, uchinchi holda – unisi ham bunisidan ham foydalaniladi. Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o'rganish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash. o'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa berish.

**Bilimlarni mustahkamlash darslarida** o'quv ishining asosiy mazmuni ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o'zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi.

O'quvchilar o'z bilimlarini yangi manbalar bo'yicha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma'lum bo'lgan qoidaga yangi masalalar echadilar, ilgari olgan bilimlarini og'zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o'rganganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o'zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo'yicha axborot beradilar. Tuzilishi bo'yicha bunday darslar quyidagi bosqichlardan o'tishni ko'zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og'zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uyga vazifa berish.

**Ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlashdarslari** bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog'liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o'rganishda davom ettiriladi. SHu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o'qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini daslab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qaerda qanday qoida qo'llanilishini o'quvchilarning o'zlari belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko'nikmalarini qo'llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo'llashni o'zlashtirib olishlari kerak.

**Umumlashtiruvchi darslari (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar)** ilgari o'tilgan materialdan eng muhim savollari qayta

takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o'quvchilar bilimlarida mavjud kamchiliklari to'ldiriladigan va o'rganilayotgan kursning muhim g'oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo'lim va o'quv kurslarining yakunida o'tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o'zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o'qib berish yoki o'qituvchining o'quvchilar bilan suhbatlashishi shaklida o'tkazilishi mumkin.

**Tekshirish (nazorat) darslari** o'qituvchiga o'quvchilarning ma'lum sohadagi bilim, malaka va ko'nikmalari shakllanganlik darajasi, o'quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo'llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari o'quvchidan ushbu mavzu bo'yicha uning hamma bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llashini talab etadi. Tekshirish og'zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

YUqorida ifodalangan hamma darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsadlarni qo'yish va ularni o'quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlari ta'minlash, ish sharoitini yaratish, o'quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko'rsatmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Darsga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi, ularga erishishda barcha yoki yakka o'quvchilarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi.

Ta'limning tashkiliy shakli sifatida **dars**– dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi va **ta'limiy-tarbiyaviy-rivojlantirish** vazifalarini ijobiy echimini topishga imkon beradi.

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo'lgan talablarda o'zining aniq ifodasini topadi.

**Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:**

- 1)fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quvtarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- 2)darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;
- 3)o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- 4)o'quvchilar anglab etadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish;
- 5)ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;
- 6)shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- 7)o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyliги va emotsionalligi;
- 8)pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
- 9)zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;



10) mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish; har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashhis va taxmin qilish.

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi: o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

**Didaktik (yoki ta'lim)iy talablarga** har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondoshish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga **tarbiyaviy talablar** o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartibliylik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan **rivojlantiruvchi talablarga** o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatleri, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

**Nostandart darslar.** XX asr 70-yillari o'rtalarida milliy maktablarda o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida nostandart darslarning tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi. Nostandart dars an'anaviy tuzilishdagi improvizatsion o'quv mashg'ulotidir.

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandart darslarning o'nlab turlari mavjudligini ko'rsatdi. Ular orasida "berilish" darsi, amaliy o'yinlar, matbuotkonferensiyalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN turidagi o'yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar,

fantaziyalar, “sudlar”, haqiqatniizlash, “paradokslar”, auksionlar, dialoglar va boshqalar bor.

O’qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog’liq. YAxshi rejalashtirilmagan, etarlicha o’ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o’quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo’la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta’minlovchi o’quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta’minlash, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O’qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko’zga tashlanadi: diagnostika (tashhishlash), prognoz (bashorat) qilish, loyihalashtirish (rejalashtirish). SHu bilan birga o’qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o’z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo’lajak mashg’ultning algoritmlari, samaradorligi bog’liq bo’lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta’minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi. Diagnostika– bu darsni tashkil etishning barcha vaziyatlarini “oydinlashtirib” olishdir.

Unda o’quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o’quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o’zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo’ladi.

Prognoz (bashorat) qilish bo’lajak darsni o’tkazishning turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan kriteriy bo’yicha eng ma’qulini tanlab olishga qaratiladi.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichidir. Uning natijasi o’quvchilar idrok etish faoliyatini boshqarish dasturining yaratilishi hisoblanadi. Boshqarish dasturi qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o’zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so’rash, qaerda mavzuni kiritish, mashg’ulot keyingi bosqichiga qanday o’tish, oldindan ko’zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo’yicha qayta o’zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an’anaviy rejasidan boshqarish ta’sir ko’rsatishlarini aniq va tushunarli belgilab olish bilan farq qiladi.

O’qishning yordamchi shakllari. O’qishning yordamchi shakllari: to’garak, praktikum, seminar, konferensiya va konsultatsiya, fakultativ mashg’ulot, o’quv ekskursiyalari, o’quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi.

Maktabdan tashqari mashg’ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o’qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o’quvchilarning mustaqil uy ishlari kiradi. Uning asosiy maqsadi – darsda o’zlashtirilgan

bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o'quvchilarning individual layoqati, iste'dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu ishlar o'quv dasturi talablari, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari hamda ularning rivojlanish darajalarini hisobga olib quriladi. O'quvchilarning mustaqil uy ishlari ma'lum didaktik vazifalarni bajaradi. CHunonchi, darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarnimustahkamlash, sinfda ishlab chiqilgan o'quv materialini kengaytirish vachuqurlashtirish, mashqlarni mustaqil bajarish ko'nikmalarini shakllantirish, dasturlimaterial doirasiga kiruvchi hajmda individual topshiriqlarni bajarish asosida mustaqilfikrlashini rivojlantirish, individual kuzatishlar, tajribalar, gerbary, tabiiy namunalar,otkritkalar, rasmlar, gazeta va jurnal lavhalari statistik ma'lumotlar kabi o'quvqo'llanmalarini to'plash va tayyorlash va boshqalar.

Darslarda pedagogning o'quvchilar tomonidan uy vazifalarining halol bajarishlariga kam e'tibor berayotganliklari, ularni sinfda tekshirishga uninmasliklari, yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilarni rag'batlantirib bormasliklari ta'lim amaliyotda keng tarqalgan kamchilik hisoblanadi. Uy vazifalarini tushuntirib berishga ko'pincha vaqt etmaydi, ular shoshilinch beriladi. Pedagoglar kamdan-kam hollarda o'quvchilar uy vazifasini bajarayotganda duch keladigan qiyinchiliklarini ko'rsatib beradilar, ularni bartaraf etish yo'lini esa ko'rsatmaydilar. Natijasida mustaqil uy vazifalarining bajarilishi samarasiz bo'lib qoldi.

Ta'limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular frontal, guruhli va kichik guruhli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: ob'ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, ob'ekt, u bilan tanishish tartibi, o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko'rsatiladi. Ekskursiyani o'tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o'quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya ob'ektiga bog'liq bo'ladi.

Maktab o'quv rejasi **turli fakultativ va tanlovi bo'yicha kurslarni** tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Amaliyotda fermerlik, iqtisod, elektro va radiotexnika, elektronika, polimerlar ximiyasi, astrofizika, psixologiya, etika, antik tarix, botanika ba'zi sohalari, ikkinchi chet tili, etnografiya, stenografiya, kutubxona ishi, rassomchilik, musiqa kabi kurslarni fakultativ sifatida o'rganiladi. Fakultativ va fanlarni ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Zamonaviy ta'limning asosiy turlarini ta'riflab bering.
2. "Ta'limning tashkiliy tizimi" tushunchasi mohiyatini tushuntirib bering.
3. Ta'limning individual shakli afzalliklari nimadan iborat?
4. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
5. Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yiladi?
6. O'quvchilar bilish faoliyatining individual, guruhli, frontal shakllaridan foydalanib mutaxassislik fani bo'yicha dars rejasi va konspektini ishlab chiqing.
7. Har bir darsda o'quvchilar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish va baholash kerakmi? Agarda zarur deb hisoblasangiz mumkin bo'lgan metodik variantlarini ko'rsatib bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. Karimov I.A. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi. –T.: O'zbekiston, 2010. 57-bet.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
5. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, O'qituvchi, 2001.
6. Подласыи I.P. Pedagogika. Новый курс. V 2 kn. Kn. 1. – Moskva, Vldos, 1999.

### **8-mavzu: Ta'lim - tarbiya usullari to'g'risida umumiy tushuncha .**

#### **Ta'lim usullari va vositalari**

- 1 Ta'lim jarayoni yagona pedagogik tizim sifatida.
- 2 Ta'lim tamoyillari
3. Tarbiya metodlari haqida tushuncha

#### **TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

Metod, tushuncha, funktsiya, tasnif, faoliyat, shakl, jarayon, tur, bilim, mezon, vazifa, natija.

**Ta'lim metodlari: tushuncha, funktsiya, tasnif.** «Metod» so'zining yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi. Filofosiya lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari» deya sharhlangan.

Ayni vaqtda pedagogik manbalarda «ta'lim metodi» tushunchasiga berilgan ta'riflarning xilma-xil ekanligiga guvoh bo'lish mumkin.

SHuningdek, ta'lim metodlarining o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlari usullari ekanligi to'g'risidagi fikrlar ham mavjud.

Keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ushbu tushuncha mohiyatan birmuncha murakkab ma'noni ifoda etadi va doimo bir xilda talqin etilmaydi. Asosiy muammo shundaki, keltirilgan ta'riflarda umumiy yondoshuv o'z aksini topib, metodning aynan qanday faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilganligi aniq foydalanmagan. SHunday ekan, Prezident I.A.Karimovning ta'lim tizimini isloh qilishda quyidagi fikrlarini keltiramiz: «DTSni o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish, Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur».

«Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi».

Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to'laqonli yorituvchi ta'rifni aniqlashga bo'lgan urinish bugun ham davom etyapti, yangi-yangi ta'riflar ilgari surilmoqda. Biroq, «ta'lim metodi» tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o'zaro yaqinlashtiruvchi umumiylik mavjud. Aksariyat mualliflar «ta'lim metodlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari» degan qarashga yon bosadilar.

Ta'lim metodi ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Metod, bir tomondan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta'lim metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz. Bildirilgan fikrlardan kelib chiqadigan umumiy xulosalar nimalardan iborat?

*Ta'lim metodlari – ta'lim (o'qitish) jarayonining barcha jihatlarini qamraboladigan murakkab, ko'pqirrali hodisa hisoblanadi.*

*Ta'lim metodlari o'zida ta'lim jarayonini tashkil etishni aks ettiradi: o'rgatuvchi va o'rganuvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish ta'lim metodlari mavjudligining asosi, o'zagidir.*

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi.

**3. Ta'lim metodlarini tanlash.** Pedagogika fanida o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim: zamonaviy didaktikaning etakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari; o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi; xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi; muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni; u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt; o'quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi; o'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi; o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi; o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatleri; o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi.

O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq echimlar qabul qiladi.

Bu funksiyalar ta'lim metodini qo'llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o'zaro singib ketadi. Misol uchun, tashhisli funktsiya o'qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

«Ta'lim metodi» atamasi bilan birga ko'p hollarda «metodik usul» (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi. Har bir ta'lim metodi muayyan ta'lim usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ta'lim metodi nima?
2. Ta'lim vositalariga nimalar kiradi?
3. Ta'lim metodlarining tasnifi nima?
4. Ta'lim jarayonida suhbat metodini qo'llashda nimalarga e'tibor qaratish zarur?
5. Og'zaki bayon metodlarining afzalliklari nimalar ko'rinadi?
6. Ko'rgazmali metodlar turkumini nimalar tashkil etadi?
7. Amaliy metodlar mohiyati nimadan iborat?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mavlonova R va boshq. Pedagogika. – Toshkent, «O'qituvchi», 2001.

2. Ibragimov X, Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. T., 2008 yil.
  3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi T., 2005 yil.
  4. Omonov X.T, Xo'jaev N.X, Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2009 yil.
  5. M. Ochilov, N. Ochilova Oliy maktab pedagogikasi (darslik) lotin Oliy vao'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tavsiya etgan T. 2008
  6. M. Asqarova, M. Hayitboev S. Nishonov. Pedagogika. Oliy vao'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tavsiya etgan (lotin) T. 2008y
  7. B. Ziyomammedov, Pedagogik mahorat asoslari, T. 2009yil
- 9-mavzu: Muloqotvashaxsshaxslararomunosabatlar. Jamoa va gurux psixologiyasi guruh**

**REJA:**

1. Muloqot - pedagogik hamkorlik vositasi sifatida.
2. Muloqotning mohiyati va tuzilishi.
3. Pedagogik o'zaro munosabatlar mohiyati.
4. Pedagogik muloqot uslubi va uning tuzilishi.

Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatлари bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim. Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to'g'ri tanlangan, o'qituvchining ma'naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

*birinchidan*, muloqotda har bir o'quvchiga alohida e'tibor va dilkashlik, sinf jamoasi bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi;

*ikkinchidan*, har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik muloqot uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga "kirib borish"ga yo'l ochadi;

*uchinchidan*, pedagogik muloqotda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissini xotirjamligini ta'minlaydi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi. O'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish, har tomonlama tavsif berish, o'qituvchining muloqotni to'g'ri tashkil etishi asosida amalga oshadi.
2. Shaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni aniqlash va darhol ularga barham berish choralarini izlab topish: muloqotda qo'pollik, mensimaslik va boshqa salbiy holatlarni yengish.
3. O'qituvchi o'zi uchun muloqot madaniyatining qulay bo'lgan uslublarini ishlab chiqishga doir faoliyatni ishlab chiqishi va o'z-o'zini kuzatish bilan yutuq va kamchiliklarni taqqoslash.
4. O'zining muloqot madaniyati uslublariga muvofiq keluvchi milliy an'ana va

ma'naviyatimizga xos jihatlardan unumli foydalanish.

5. Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik, bu 57

uslubni mustahkamlash (pedagogik amaliyot va malaka oshirish jarayonida).

Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o'quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir. Bu o'rinda o'qituvchi quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olishni alohida ta'kidlash lozim:

- o'qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor, an'anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o'zlashtirishi;

- muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o'quvchilar hattiharakatining

oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;

- o'z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so'z, ovozdagi yoqimli ohang, hulq-atvorni vujudga keltirish;

- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shart- sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi, o'quvchilar bilan o'zaro muomalaning "ustozshogird"

an'analariga xos boshlanishi va o'zaro fikr almashish asosida muhim

vazifalarni hal qilish bilan muomala ob'ektining diqqatini o'ziga jalb qilish;

- muloqot ob'ekti, ya'ni o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi o'qituvchi o'zining xushmuomalaligi, madaniyati, go'zal xulqi, muloqotda o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi bilan o'z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy- psixologik negizni asos qilib olishidir. Ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun, o'qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odobxloqiga,

dilkashligiga, muosarat odobiga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu fazilatlar

o'qituvchining sinf jamoasida, ota-onalar bilan muloqot qila bilishida, o'quvchilar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ularni boshqara olishida muvaffaqiyatlar garovidir. Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo'lmish pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiladigan yosh o'qituvchi quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim:

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga mos bo'lgan yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, davlatimiz ideallari, milliy g'oya va istiqloq mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

- o'quvchilarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, hatti-harakatlari motivlarini, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi va malakasining shakllanganligi;

- jamiyatda ro'y berayotgan hodisalar, jahonda ro'y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik



kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mavjudligi;  
- pedagogik faoliyatning barcha jabhalarida odamlarning hatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarni oqilona tushunish, o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib toptirish;

58

- har qanday favqulotda vaziyatlarga, jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarga omilkorlik va aql idrok bilan munosabatda bo'lish, o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z imkoniyatlarini namoyon eta olish;

- pedagogik faoliyatlarda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etishi;

- dunyoqarashi va tafakkur ko'lamining kengligi, dunyoviy bilimlarni bilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilligi, muayyan ilmiy salohiyat va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshirib borishi;

- o'quvchilar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma'noli, ta'sirchan kuchga egaligi, psixologik ta'sir o'tkazish bilan qurollanganligi.

Har bir o'qituvchi uchun o'quvchilarga to'g'ri, omilkor axborot uzatish va unga suhbatdoshini ishontira olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi. Bunda o'qituvchining muloqot madaniyati, ma'naviy olamining kengligi muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining pedagogik faoliyati uzluksizdir, shu sababli u pedagogik muloqot madaniyatini ham muntazam shakllantirib borishida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor berishi lozim:

1. yuksak pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan o'z-o'zini anglashi, (muomalada o'zining o'zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini bilishi) va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li bilan o'z-o'zini tarbiyalashi.

2. Kishilar bilan o'zaro munosabatda kommunikativ iqtidorini shakllantirib borishi, muloqot asosida to'g'ri bashorat qilish sezgilarini mashq qildirishi, muloqotda o'zining ideal tasavvurlarini, imkoniyatlarini boshqalar (o'qituvchilar jamoasi, o'quvchilar, otaonalar)

qanday baholashi haqidagi refleksiv tasavvurlarini tahlil qilishi.

3. O'zida muosharat odobining muhim xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlashi.

4. O'quvchilar va ota-onalar bilan tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan turli jamoat ishlarini olib borishi, bunda o'zaro fikr almashish asosida pedagogik tashkilotchilik qobiliyatini takomillashtirib borishi.

5. Muloqot jarayonida paydo bo'ladigan salbiy holatlarni yengish ko'nikmalarini shakllantirishi, dilkashlik va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratishi.

O'qituvchi muloqot madaniyati asosida faoliyat olib borgan taqdirda ham, o'quvchilar jamoasi orasida turli tushunmovchiliklar, ziddiyatlar paydo bo'lishi tabiiy hol. Har qanday tajribali o'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. Sinfda sodir bo'ladigan har qanday pedagogik vaziyatga javobgar shaxs o'qituvchidir. Bu barcha davrlar pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladigan tipik hodisa. Ayniqsa, ushbu holat endigina o'z faoliyatini boshlagan yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida muammoli vaziyatlarni paydo qiladi. Yosh o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini doimiy nazorat qilish, ularga to'g'ri yo'nalish berish, barcha o'quv muassasalari pedagogik jamoatchiligiga, ustoz o'qituvchilar zimmasiga yuklatilishi lozim. Pedagogik faoliyatda

xato va kamchiliklarga yo`l qo`yadigan o`qituvchining yoshiga va ish tajribasi ko`lamiga odatda o`quvchilar hech qachon e`tibor bermaydilar. Chunki, o`quvchilar yoshidan va tajribasidan qat`iy nazar barcha o`qituvchilarni ustoz deb ataydilar. O`zbekistonda ta`lim-tarbiya va pedagogik muloqotning o`ziga xos an`analari,

milliyligimizga mos shakl va metodlari mavjud. Zero, I.A.Karimov asarlarida ta`kidlanganidek, *“Mamlakatimizning istiqlol yo`lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma`naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta`lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg`unlashtirish asosida jahon andozalari va ko`nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda”*. Bu ulkan mashaqqatlar evaziga amalga

oshirilib kelinayotgan ta`lim- tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy yo`nalishidir. Hozirgi zamon o`qituvchisidan, hayot sinovlariga bardoshli bo`lish, millat qadriyatlarini anglash, jamiyatda o`zining munosib o`rnini topish, yuksak ma`rifatli va ulkan salohiyatli bo`lish, eng so`nggi zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilish talab etiladi. Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yo`nalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish uchun, har bir muloqot ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga ko`maklashuvchi uning shaxsiy hislatlarini rivojlantirib borishni ta`minlovchi vositalardan foydalanish taklif qilinadi. Muloqotga ba`zi o`quvchilarning sub`ektiv qarashlarini aniqlash, shu o`quvchi bilan muloqotni oqilona hal qilinishi zarur bo`lgan vazifalarni belgilash, uning xulqini tuzatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish kerak. Mazkur vaziyatlarda o`zaro harakatlarning tizimli vositalari majmuasi quyidagicha belgilanishi mumkin:

- muloqot jarayonida tarbiyalanuvchi ob`ektning javob harakati imkoniyatlarini oldindan ko`ra bilish;
- ob`ektda psixologik to`siq va salbiy qarashlarni keltirib chiqaruvchi vositalarni qo`lga kiritish;
- vaziyatning o`zgarishiga qarab foydalanish mumkin muloqotlarning bir nechta modeliga ega bo`lish;
- o`quvchilar jamoasi fikrlarini tinglash, ularning mulohazalariga qo`shilish, ularga hamdardlik ko`nikmasini rivojlantirib borish;
- o`zaro muloqot natijalarini baholash va erishilgan yutuqlar hamda kamchiliklarni pedagogik-psixologik vositalar asosida taqqoslash.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o`qituvchining shaxsi, uning qarashlari nuqtai nazarlarida va xulqida namoyon bo`ladigan g`oyaviy siyosiy saviyasi, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog`liq. Bu asosiy hislatlardan tashqari o`qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning moyilligi xarakteri, muvaqqat psixik holatlari, shuningdek, to`plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega. O`qituvchi shaxsining professional jihatlarini o`z-o`zini tarbiyalash yo`llaridan biri o`zining sifat va hislatlarini, shuningdek pedagogik faoliyat va muloqotlarining barqaror xususiyatlariga, o`qituvchi bilimining saviyasi va tarbiyalanganligi natijasida erishilgan natijalarini tahlil qilishga doir mashqlarda ham namoyon bo`ladi.

Mustaqillikdan keyin amalga oshirilayotgan ta`lim tizimidagi islohotlar tufayli ulkan o`zgarishlar ro`y bermoqda. Odamlarning ongi, dunyoqarashi o`zgardi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma`naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo`lishiga

erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlantirishda o`qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta`kidlash joizki, o`qituvchi kasbiga nisbatan talab va javobgarlik

ham kuchaydi, ularning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma`naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta`lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg`unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o`quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko`nikmalarini hosil qilish kabi buyuk vazifalarga javobgarlik o`qituvchilar zimmasiga yuklatildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganidek, «*Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro`y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma`no- mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o`z atrofida sodir bo`layotgan voqealar haqida haqqoniy ma`lumotlarga, eng muhimi, o`z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo`lishiga erishish ta`lim- tarbiya va ma`naviy-ma`rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezon bo`lishi kerak... bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo`lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma`naviy, kerak bo`lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi*». Bu vazifalarning bajarilishiga, ta`limtarbiya

sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo`lgan o`qituvchining o`quvchilar bilan o`zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O`quvchi ma`naviy muhitining shakllanishi o`qituvchining yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo`ladi. Bu o`rinda o`qituvchining shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zamirida shakllanib, takomillashadi. Pedagogik muloqot madaniyati o`qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo`naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o`qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o`ziga xos ta`rifga ega. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida **muomala** o`quvchilar qalbiga yo`l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtai nazardan ta`lim-tarbiya jarayonida o`quvchilar bilan o`zaro aloqa bog`lashga qaratilgan o`qituvchining pedagogik qobiliyatidir. O`qituvchi o`quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O`z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.
2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi.
3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.
4. O`zining ta`lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o`quvchi qalbiga yo`l topadi.

Muomala o`qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo`lib, o`zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o`qituvchi quyidagi faoliyatga qat`iy amal qilishi lozim:

- o`qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so`z va ohangni tanlay bilishi va ta`sir o`tkaza olishi;
- muomala ob`ekti bo`lmish o`quvchi diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imoishoralarni

o`z o`rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta`sirni bilishi;

- o`quvchining ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o`quvchilarni ta`lim va tarbiyaviy muloqotga

tayyorlashi;

- o`quvchiga og`zaki, o`zaro ta`sir ko`rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O`qituvchining nutqi ravon, o`quvchi ongiga ijobiy ta`sir qiladigan bo`lishi. Nihoyat, o`qituvchining o`quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o`quvchilarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma`no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning o`zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o`quvchilarning xulq-atvop usullaridan foydalanadi. O`qituvchining o`quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi hamda o`rnini to`ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o`zaro munosabatlar doirasida sodir bo`ladi. Boshqarish vositasi bo`lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo`ladi.

Pedagogik muloqot o`qituvchining pedagogik faoliyatida o`zaro axborot almashish jarayoni vazifasini bajaradi. O`qituvchi o`quvchilar bilan muloqot jarayonida bevosita o`z tarbiyalanuvchilari, umuman o`quvchilar jamoasi haqida, unda ro`y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g`oyat xilma-xil axborotlarga ega bo`ladi va o`zining kelgusi ta`lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, o`qituvchi muloqot asosida o`z tarbiyalanuvchilariga ma`lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma`lum qiladi. Bunda o`qituvchi tomonidan yo`l qo`yiladigan arziyas bir xatolik, adolatsizlik, qo`pollik o`quvchilar bilan o`zaro muloqot madaniyatining buzilishiga sabab bo`ladi va tuzatib bo`lmaydigan og`ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. O`qituvchining o`quvchilar bilan o`zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo`ladi:

- pedagogik muloqot orqali o`qituvchi tarbiyalanuvchi ob`ekt bilan o`ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o`qituvchi o`zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san`ati, ta`sir o`tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;
- o`qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo`lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;
- o`quvchilar jamoasi bilan muomalada o`qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta`lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;
- o`qituvchi o`quvchilar jamoasi bilan o`zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo`ladi.

Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida ob`ekt va sub`ektning ichki hissiyoti bilan ular harakatlarining uyg`unlashuvi sodir bo`ladi. Ushbu o`zaro uyg`unlashuvni yuzaga keltiradigan muloqotning asosiy bog`lovchisi so`zdir. *So`z – mazmunan o`qituvchining nutqida, ma`ruzasida, dialog, monolog va deklamatsiyalarida o`z ifodasini topadi.*

Pedagogik muloqot madaniyati vositasida o`qituvchi har qanday axborotni qarab chiqar ekan, o`quvchining shaxsi va psixologik xususiyati haqidagi axborotlarning muhimligini alohida e`tiborga olishi lozim. Pedagogik muloqot madaniyati, o`qituvchini g`oyat xilma-xil sharoit va ko`rinishlarga moslashishiga imkoniyat yaratadi. Bular sirtidan qaraganda unchalik ahamiyatli bo`lmasada, o`quvchi ichki dunyosida sodir bo`layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo`lgan zarur ichki jarayonlar ko`rinishlarining alomatlarini bilib, ta`lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi.

## **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR**

1. Muomala madaniyati nima?

2. Muomala va munosabatning farqi nimada?
3. SHaxslararo munosabatlarning turlari haqida gapiring.
4. Millatlararo muomala madaniyati nima?
5. Milliy tarbiya nima?
6. Milliy g,,oya nima?
7. Milliy dunyoqarash nima?
8. Umuminsoniy qadriyatlar.

# **AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI**

**Amaliy mashg'ulot - 1. Pedagogika fan sifatida.**

## **Tibbiyot xodimlarini tayyorlashda pedagogik. bilimlarning o'ri.**

### **Reja:**

1. Pedagogika fanining maqsadi, vazifasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi roli
2. Tarbiyaning ijtimoiy xodisa ekanligi, asosiy pedagogik tushunchalar:  
(tarbiya, ma'lumot, o'qitish)
3. Pedagogika fanlari tizimi va pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot usullari.

Kishlik jamiyatining taraqqiyot bosqichi shuni ko'rsatadiki, har qaysi ijtimoiy, iqtisodiy tuzumda kishilar bir birlari bilan aloqa va munosabatda bo'lganlar. Bu aloqa va munosabatlar ma'lum bir maqsadga, mundarijaga asoslangan bo'lib, natijada keksa avlod hayot tajribalarini yosh avlodga o'rgatish va singdirish yuzaga kelgan. SHunday qilib, o'rganish va o'rgatish ko'nikmalari hosil bo'lib, inson tafakkuri, aql zakovati o'sib kamol topa bordi. Natijada keksa avlod mehnat jarayonida orttirgan ish tajribasi asosida yosh avlodni ham mehnat qilishga o'rgatdi va uni mehnat jarayonida tarbiyaladi. SHunday qilib, tarbiya kishilik jamiyati amaliy ehtiyojining ob'ektiv zaruratidan kelib chiqdi va u jamiyat bilan birgalikda taraqqiy etdi. Tarbiya mohirlik va ishning ko'zini bilishni talab eta boshladi. Tarbiyani amalga oshirish jarayonini anglash va bu sohadagi tajribalarni o'rganishga ehtiyoj tug'ilishi natijasida pedagogika fani yuzaga keldi.

Ibtidoiy jamiyatda sinflar yo'q edi, bir-biriga qarama qarshi sinflar bo'lmagani uchun tarbiya ham sinfiy emas edi. Bu davrda bolalarga bir xil tarbiya berilar va bu tarbiya mehnat jarayonida hamda bolalarga o'ynatilgan o'yinlar vositasida amalga oshirib borilar edi. O'sha davrda mehnat jinsga qarab taqsimlanganligi sababli, o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashda qisman farq bo'lgan. Tarbiya sinflar paydo bo'lishi bilan sinfiy xarakterga ega bo'ldi. Oila, xususiy mulk va davlat vujudga kelgach, ibtidoiy jamoa tuzumi emirildi. Hukmron va qarshi sinflar vujudga keldi. Jamiyatning sinflarga bo'linishi bilan ta'lim-tarbiyaning mazmuni va xakteri ham o'zgardi. Sinfiy jamiyatda yosh avlodni tarbiyalash sinfiy xarakterga ega bo'lganligi sababli, tarbiyaning maqsadi va mazmuni hamda tashkiliy shakllari, shu jamiyatdagi hukmron sinfning maqsadlariga muvofiq belgilandi. U hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, mamlakatimizda yosh avlodni tarbiyalash, unga g'amxo'rlik qilish umumxalq ishiga aylandi. O'zbekiston demokratik jamiyatida xalqning maorif sohasidagi talabi va davlatning maorif sohasidagi siyosati o'rtasida hech qanday ziddiyat yo'q. Ularning har ikkalasi ham bir maqsadni nazarda tutadi va shu maqsadni amalga oshirish jarayonida takomillashadi. Pedagogika fani mustaqil O'zbekistonda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash, ma'lumotli qilish, o'qitishning progressiv pedagogika merosidan tanqidiy va ijobiy foydalanadi. SHunday qilib, pedagogika "pedagogos"-grekcha "bola" va "etaklash" ma'nosini anglatadi. YA'ni, qadimgi YUnonistonda quldorning farzandini maktabga olib borish va olib kelish, hamda unga ko'z – quloq bo'lib turish vazifasi yuklatilgan kishilarni shunday deb atalgan. Keyinchalik esa, umuman bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi kishilarni pedagog, pedanom, pedpatrit, professor, magistr va bakalavr deb aytish rasm bo'lib qoldi.

Ma'lumki, har qaysi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, sohada tuzilishiga qarab, mazkur jamiyat hukmdor sinfi uchun xizmat qiladigan pedagogika fani mavjud.

Bizning mustaqil demokratik respublikamizda amalga oshiriladigan pedagogika fani yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari, o'qitishning mohiyati, hamda uning printsiplarini o'rganadagin fandır.

Tarbiyaning ijtimoiy hodisa ekanligi va asosiy pedagogik tushunchalar

Ma'lumki, tarbiya kishilik jamiyatining yuzaga kelishi bilan vujudga keladi, u bilan birga taraqqiy etadi, jamiyat tuzumi o'zgarishi bilan, u ham o'zgarib boradi. Jamiyatning tarixiy yuksalishi bilan insoniyat turlicha ijtimoiy tuzumlarni bosib o'tdi. SHuning uchun ham tarbiyani ham sinfiy, ham tarixiy xarakterga ega deb bilamiz. Ibtidoiy jamiyatda sinflar bo'lmagani uchun tarbiya ham umumiy, ijtimoiy xarakterga ega emas edi, faqat monogam davridan so'ng quldorlik, feodalizm, kapitalizm va sotsializm jamiyati sinfiy tabaqalarning paydo bo'lishi bilan tarbiya ham sinfiy xarakterga ega bo'ldi.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka ega bo'lgandan so'ng Prezidentimiz I.A Karimov boshchiligida yosh avlodni tarbiyalash, o'qitish, unga har tomonlama g'amxo'rlik qilish umumxalq ishiga aylandi, bizning jamiyatimizda xalqning maorif sohasidagi talabi va davlatning maorif sohasidagi siyosati o'rtasida ziddiyat yo'q, ularning har ikkisi bir maqsadni nazarda tutadi.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida tarbiya tushunchasi bilan birga ta'lim va ma'lumot tushunchalari birgalikda ishlatiladi. Bu uchala tushuncha o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir butun holda ta'lim tarbiyaviy jarayonni ifodalaydi.

Jamiyatimizda amalga oshiriladigan pedagogika tarbiyaning mohiyatini va komil insonni har tomonlama taraqqiy ettirsada, tarbiyaning rolini ochib berish, tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usullari, printsiplarini tashkil etish, ta'lim tarbiya sohasidagi ilg'or tajribalarni umumlashtirishni, maktab va maktabdan tashqari tarbiya muassasalari xodimlarini ham, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari xodimlarini ham nazariya, ilg'or tajribalar bilan qurollantiradi, shuningdek, u tarbiyaviy muassasalardagi xodimlarga, ota-onalarga yoshlarni tarbiya qilish, o'qitishdagi pedagogik mahoratini yanada takomillashtirish yo'lida yo'l-yo'riqlar hamda amaliy tavsiyalar beradi.

Tarbiya deb- tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror axloqiy hislatlar va hulqiy fazilatlarni tarkib toptirish va shakllantirish maqsadida, tarbiyalanuvchining ongi va irodasiga aniq maqsad yo'lida singdirilgan tarbiyaviy ta'sir etish tushuniladi.

Ma'lumot deb-ta'lim va tarbiya natijasida olingan va sistemalashtirilgan bilim, malaka, ko'nikmalar natijasida tarkib topgan dunyoqarashlar yig'indisiga aytiladi.

Ta'lim- maxsus tayyorlangan, vakolatli kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni tarbiya vazifalariga muvofiqlik bilan, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish uchun muayyan maqsad asosida yo'lga qo'yilgan hamda reja asosida amalga oshiriladigan ish jarayonidir.

Pedagogika fanining ilmiy - falsafiy asoslari

Pedagogika ta'lim-tarbiya xodisalarini: tarbiya, o'qitish, ma'lumot berish, ularning maqsad va mazmuni, shakl va usullarini jamiyatdagi boshqa xodisa va voqealar bilan, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rgatadi, eero, tarbiya shu ijtimoiy voqea va xodisalarning tarixiy sharoiti natijasida paydo bo'ladi va ularga bog'liq holda taraqqiy etadi. Bu fan tarbiya, ta'lim-tarbiyaviy g'oya va fikrlarga ular taraqqiy etadi, doimo o'zgarib, doimo yangilanib turadi deb qaraydi. Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchi ijtimoiy tuzumga o'tish bilan tarbiya haqidagi fikrlar ham, uning maqsadi, mazmuni, sistemasi ham o'zgaradi va yangilanadi.

Pedagogika fanining tuzilishi (strukturasi)

Pedagogika fani asosan 4 qismga bo'linadi:

1. Pedagogikaning umumiy asoslari.
2. Ta'lim nazariyasi (didaktika)
3. Tarbiya nazariyasi
4. Maktabshunoslik

Pedagogika fanining asosiy manbalariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktab, maorif, ta'lim-tarbiya haqida chiqargan farmonlari, asarlari nutqlari va ko'rsatmalari;
- Respublika Vazirlar Mahkamasining maorif, maktab, ta'lim-tarbiya haqidagi qaror va ko'rsatmalari;
- Respublika Oliy va o'rta maxsus vazirligining qaror va ko'rsatmalari;
- Respublika xalq ta'limi vazirligining maktab, maorif ta'lim-tarbiya haqidagi qaror va ko'rsatmalari;
- Tanqidiy asosda tanlab olingan madaniy – ma'rifiy meroslar;
- O'tmish pedagoglar, mutafakkirlar va buyuk allomalarning g'oyalari;
- Ilg'or maktablardagi, ta'lim – tarbiya muassasalaridagi o'qituvchi va tarbiyachilarning ta'lim-tarbiya sohasidagi namunali ish tajribalari;
- Pedagogika, psixologiya va maorif sohasida ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlar va amaliyotchilarning namunali ish tajribalari;
- Xorijiy mamlakatlarda maorif, maktab, ta'lim-tarbiya sohasidagi ilg'or namunali ish tajribalari va hokazo.

Pedagogika fanlari tizimi va uning boshqa fanlar bilan aloqasi

Turli yoshdagi bolalarni va yoshlarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy hamda amaliy tomonlarini yolg'iz pedagogika fanining o'zi har tamonlama yoritib bera olmaydi. Ta'lim- tarbiyaga bilim va tajriba kengayib borishi bilan pedagogika fani taraqqiy etib, takomillashib bordi va pedagogika fanlari tizimi yuzaga keldi. Hozirgi paytda pedagogika fanlari zamon va makon talablari asosida yuksalib boryapti hamda bu fanlar tizimi quyidagicha:

- Umumiy pedagogika - maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish haqida bahs yuritadi;
- Maktabgacha tarbiya pedagogikasi-maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalash masalalari bilan shug'ullanadi;
- Maxsus pedagogika: a) Surdo pedagogika – kar va soqov bolalarni tarbiyalash, o'qitish bilan shug'ullanadi;
- b) tiflopedagogika – ko'zi ojiz bolalarni ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi;



- v) olegofrenopedagogika – aqli zaif bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanadi;
- Pedagogika tarixi ta'lim-tarbiyaning tarixini, o'tmish allomalarning pedagogika g'oyalarini o'rganadi ;
  - Harbiy pedagogika turli harbiy soha bo'yicha ofitser mutaxassislar tayyorlash o'quv yurtlari talabalari uchun:
    - Oqartuv ishlari pedagogikasi – kutubxonachilar, oqartuv- madaniy sohada ishlashga mo'ljallangan fan:
    - Metodika ayrim o'quv fanlarini o'qitish xususiyatlarini o'rganadi:
    - Sotsial – pedagogika, pedagogik diagnostika, oliy maktab pedagogikalari va hokazo

Pedagogika fani quyidagi fanlar bilan uzviy aloqadadir: xususiy metodikalar, maktab gigenasi, psixologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, genetika, logopediya, defektologiya, sotsiologiya, tarix, ma'naviyat, etika, estetika asoslari, jamiyatshunoslik, huquqshunoslik, kriminalistika, odobnoma, lingvistika va hokazo.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot usullari.

Rus pedagogi KD.Ushinskiy. “Agar pedagogika fani inson shaxsini har tomonlama tarbiyalamoqchi bo'lsa, u holda, bu fan inson shaxsini har tomonlama o'rganmog'i lozim”- deb ta'kidlagan edi. Zero har bir fan predmeti uning ilmiy tadqiqotlari bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir fanning kompleks ravishda nimani va kimni (sub'ekt va ob'ekti) o'rganishni aniqlash va belgilash ham g'oyat muhimdir. Bilish nazariyasida ikki asosiy masala: nimani o'rganish va qanday o'rganish kerak, nimani tarbiyalash va qanday tarbiyalash kerak degan masala bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Nima qilish kerak va qanday qilish kerak degan masalalar o'rtasida dialektik birlik mavjuddir. Pedagogika yosh avlodni komil inson, bilimli qilish va o'qitish qonuniyatlarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi, lekin u pedagogik hodisalar va jarayonlarni, uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan birga o'rganadi.

Biz pedagogik ilmiy tadqiqot usullari deganimizda, yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish, o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish hamda, bilish usullari, printsiplari, vositalari va yo'l-yo'riqlari yig'indisini tushunamiz. Biz hozirgi zamon fani yutuqlarini va ilg'or jahon pedagogika tajribalarini sistemalashtirib va umumlashtirib, pedagogika ilmiy tadqiqotlarini quyidagicha deb hisoblaymiz: kuzatish usuli, suhbat usuli, eksperiment usuli, arxiv xujjatlarni o'rganish, maktab hujjatlarini tahlil qilish, statistik ma'lumotlarini o'rganish, bolalar ijodini o'rganish, anketa usuli, interv'yu olish usuli, matematika - kibernetika usuli, komp'yuter, robotlashtirish, internet usullari va hokazo.

Mavzu yuzasidan savol va mustaqil topshiriqlar:

Mavzu. 1. Pedagogika fani tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar mohiyatini qanday tushunadi?

2. Tarbiya, ma'lumot, o'qitish tushunchalari o'rtasidagi nisbatni qanday tushunasiz?

3. Pedagogikaning psixologiya fani bilan aloqasi nimadan iborat va bu aloqaning asosiy yo'nalishlari qanday?

4. Ta'lim – tarbiyaviy masalalarni o'rganish va ishlab chiqishning ilmiy darajasini oshirish maqsadida komp'yuter, Internet va kibernetikadan qanday foydalanish mumkin?

5. O'qitish va tarbiyalash muammolariga doir pedagogik tadqiqotlarda qanday usullar qo'llaniladi?

6. Shular haqida adabiyotlar bilan tanishing, mustaqil hal qiling va qisqa yozma ravishda yoriting?

## **Amaliy mashg'ulot -2** **O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi.**

### **Reja:**

1. Ta'lim – tarbiya jarayoni yaxlitligi, mazmuni, tuzilishi, qismlari.
2. Pedagogika ilmiy tadqiqot metodlari.
3. Pedagogik jarayon – pedagogikaning asosiy kategoriyasi (tushuncha).
4. Uning tuzilishi, asosiy qismlari va qonuniyatlari.

Ta'lim jarayoni — o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatning yig'indisidan iborat. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, doimo dinamik tarzda o'zgarib boradi. Ta'lim davomida o'quvchilarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ta'lim jarayonlarining asosiy vazifasi ilmiy haqiqatlarni ijodiy o'zlashtirish orqali yuz beradi. Bilim turlari, o'rganilayotgan ob'ektlar bevosita ko'rish yo'li bilan emas, balki o'qituvchining hikoyasi, tasvirlab berishi orqali idrok etish yo'li bilan egallanadi. Uquv jarayonini harakatlantiruvchi kuchlar qarama-qarshiliklar birligi va ularning o'zaro kurashidan iborat. Bunga to'xtovsiz ravishda mukammallashtirishga muhtoj bo'lgan jarayonning muxim holatlari orasidagi qarama-qarshiliklar misol bo'la oladi. Bulardan tashqari, o'quv jarayonining ichki o'ziga xos qarama-qarshiliklari mavjuddir. O'quvchilarning o'zlashtirishi va ko'nikmalar hosil qilishi bilan ushbu extiyojlarni qondirishning haqiqiy imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar bunga misoldir. Bunday qarama-qarshiliklarni turli pedagogik uslublar, shakllar, ko'rgazmalilik vositalarini joriy etish orqali hal etish mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayoni faqatgina bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantirib qolmay, balki o'quvchi shaxsiga kompleks ravishda ta'sir etishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ta'limning tahlili bilan bir vaqtda axloqiy tarbiya vazifalari ham amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilarda axloqiy, estetik, etik qarashlar, tasavvurlar va shunga muvofiq xatti-harakatlar, munosabatlar, ehtiyojlar sistemasi shakllantiriladi. Ta'limning tarbiyaviy vazifasi ob'ektnv jarayonni belgilangan maqsadga yo'naltirganlik bilan belgilanadi.

Har qanday axloqiy tarbiya ta'lim jarayonining borishiga ijobiy, foydali ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy tarbiya intizomga, uyushqoqlikka, faollikka undaydi va o'z navbatida, ta'lim vazifalarini oson bajarish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni uch qirralidir. Birinchi qirrali—bilim ko'nikmaga va undan keyin malakaga aylanish jaraeni, ikkinchisi—shaxsiy sifatlarni tarbiyalash va nihoyat, uchinchi — shakllangan xislatlarni mustahkamlashdan iborat. Ta'limning bu jarayonlari yonma-yon amalga oshiriladi deb yondoshish mumkin emas. Bu qirralar juda murakkab bog'liqlikda bo'ladi, biri boshqasining davomi sifatida yuzaga chikadi. Albatta, axloqiy tarbiya jarayoni to'g'ri tashkil etilgan holatda ta'limning borishi jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday tarbiya intizom, uyushqoqlik, faollik va boshqa ko'pgina, fazilatni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Axloqiy tarbiyasiz samarali ta'lim jarayoni bo'lishi mumkin emas. Mana shuning uchun ham ta'lim jarayoni ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning mushtarakligini namoyon etadi. Axloqiy tarbiya va ta'lim yaxlitligini ta'minlovchi omillardan biri ta'lim usullari tarbiyaning tarkibi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchidan, tarbiya usullarining o'zi ta'lim olishni rag'batlantiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim va axloqiy tarbiya shaxsning rivojlanishiga ko'maklashadi.

O'quv jarayonini tashkil etish davomida talabalarning bir-birini to'ldirib borish vositalarini qo'llash ta'limni sifat jihatidan yangi darajaga ko'taradi. Ta'lim o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro aloqalarini nazarda tutadi, o'zaro bog'liq bu ikki jarayon — o'qitish va o'rganishdan iborat. O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro didaktik hamjihatligisiz ta'limni: amalga oshirib bo'lmaydi. O'qituvchi qanchalik faollik ko'rsatmasin, agar bilimlarni o'zlashtiradigan o'quvchilarning o'zida ongli faoliyat bo'lmasa, haqiqatan xam ta'lim jarayoni amalga oshmaydi. SHuning uchun ta'lim jarayonida pedagog har ikki tomon faolligini ta'minlashi kerak. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi muloqotlari muhim ahamiyatga ega. Ta'lim: jarayonidagi muloqot o'rganish zarurligini ko'rsatadi. O'qish o'rganishga nisbatan ijobiy munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. O'qituvchining o'z faniga ishtiyoqmand bo'lishi, o'quvchilar bilan yaxshi munosabat o'rnatishi, bir-biriga nisbatan o'zaro hurmatni saqlashi, o'quv jarayonida yordam qo'lini cho'zishi, o'quvchilarning yutuqlari, muvaffaqiyatlari o'qituvchi tomonidan o'z vaqtida va adolatli baholanishi hamda og'ir vaziyatlarda o'zini tuta bilishi — bularning barchasi: o'zlashtirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining mahorat bilan mulokot o'rnatishi natija sida ta'limning tarbiyaviylik darajasi ortadi.

Ta'lim va tarbiya faqatgina bir qolipdagi narsa emas, balki uni qurshab turgan muhit, ijtimoiy foydali mehnat, ommaviy axborot vositalari, jismoniy

mashqlar va boshqa shunga o'xshash darsdan tashqari mashg'ulotlar yordamida xam amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari: maksadlilik, rag'batlantirish, nazorat to'g'ri yo'lga solish, baholash bilimlaridan iboratdir. Ta'lim jarayonining ushbu tarkibiy qismlari pedagoglar va o'qituvchilar oldiga maqsad qo'yishdan tortib, ularni amalga oshirib natijalar keltirishiga qadar bo'lgan hamjihatliklarning rivojlanishini aks ettiradi. SHu bilan birga, ta'lim jarayonining ushbu tarkibiy qismlari pedagoglar va o'quvchilarning hamjihatliklarini nazarda tutishi lozim.

Ta'limning mazmuni o'kuv darajasi, davlat o'kuv dasturlari va darsliklar bilan belgilanadi. Ayrnm darslarning mazmuni, mundariyasi o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifalarni hisobga olgan holda konkretlashtiriladi. Fanning mazmunida o'quvchilarnng qiziqishlari, «tayyorgarlik darajasi», ishlab chikarish va maktabdagi ijtimoiy muhit o'z ifodasini topishi kerak.

Ta'limni baholash — pedagoglar tomonidan fan va ta'lim jarayonida erishilgan natijalarni o'quvchilarning o'zlari baholashlarini joriy etish chetga og'ish aniqlaganda ularning sabablarini aniqlash, ko'nikmalar va bilimlarda topilgan kamchiliklarni to'lg'azish, rejalashtirilgan yangi vazifalarni loyixalashni ham nazarda tutadi.

Ta'lim jarayoni asosida o'quvchilar tomonidan o'quv-materialini o'zlashtirish va mazkur faolnyatin boshqarishni amalga oshirish yotadi. SHuning uchun o'quv jarayonida rahbarlik rolini o'qituvchi bajaradi. Ammo o'quv jarayonining o'zi o'rganish sub'ekti sifatida o'quvchilarning aktiv faoliyatlarisiz amalga oshmaydi. Hozirgi davrda, har bir dars o'quvchilarning o'zi yangi bilimlar, ko'nikmalarni o'zlashtirish faoliyatini tashkil etishiga yo'naltirilgan. O'qituvchi o'z faoliyatini dars rejalarini tuzish vositasida amalga oshiradi. Namunali mavzuga tegishli rejalar maxsus oynomalarda nashr etiladi va o'qituvchi maktab hamda sinfning o'ziga xos tomonlaridan kelib chiqib ba'zi bir o'zgarishlarnigina kiritadi. Dars rejalarini ishlab chiqishda fanni o'qitish uslubi yuzasidai nashr etilgan maxsus qo'llanmalar yordam berishi mumkin. Ushbu qo'llanmalarda dars berish davomida echilishi kerak bo'lgan masalalar, topshiriqlar xarakterlari xususida maslahatlar beriladi. Juda murakkab tarkibiy qismlari alohida ta'kidlab o'tiladi, juda ham bebaxo, foydali tajribalar mustaxkamlash uchun mashklar, ko'rgazmalar, takrorlash va uy ishlari sifatida tavsiya etiladi. SHunday qo'llanmalardan o'qituvchining doimiy ravishda .foydalanishi darslarni rejalashtirish davomida o'z vaqtini tejash imkoniyatini beradi. Rejaning matni o'qituvchining pedagogik tajribasiga bog'liq bo'ladi. YOsh, o'z faoliyatlarini endngina boshlayotgan o'qituvchilarga ishlarining birinchi bosqichlarida mashg'ulotlarini bir qancha darajada batafsilroq rejalashtirishga to'g'ri keladi, ya'ni o'quv, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xarakterdagi asosan vazifalarni o'zida birlashtirgan holda darsning maqsadini qayd etib o'tish, bilimlarni qo'llash va mustahkamlash uchun ishlanadigan mashqlarning tartib raqamlarini ko'rsatish, uy ishi uchun topshiriqlarning mazmunini, adabiyotlar, jihozlarning nomi va sanog'ini ko'rsatish lozim.

O'qituvchining byolgilangan rejani bajarish yuzasidan tashkil etadigan o'quv ishlari tayyorlov va bajarish bosqichlariga bo'linadi. Darsga tayyorlanish

davomida o'qituvchi o'z imkoniyatiga qarab quyidagilarni ta'minlaydi; ta'limning zarur bo'lgan texnik vositalarini, ko'rgazmali qurollar, qo'llanmalarni, didaktik va tarqatiladigan materiallarni tayyorlaydi; murakkabliklar vujudga kelishining oldini olish va, eng muximi, joylarni tanlab olish uchun navbatdan tashqari, dastlabki diafil'mlarni ko'rish, ko'rgazmalarni qarab chiqish, tajribalarni amalga oshirish ishlarini o'tkazadi; oldindagi tajribalar, amaliy ishlar va ko'rgazmalarni tayyorlash ishlariga uquvchilarni jalb etadi. Uyda va darsda takrorlash uy ishlarini hamda o'zlashtirilgan nazariy mavzuni mustaxkamlash, mashqlarni avvaldan bajarib ko'yishga chorlaydi.

O'qituvchi dastlabki tashkiliy ishlar davomida darsning rejasiga ba'zi bir o'zgarishlar, anikliklar kiritadi, o'quvchilarda kiyinchiliklar tug'dirishi mumkin bo'lgan ba'zi bir topshiriqlarni olib tashlaydi yoki bo'laklarga ajratadi. Bevosita darsda ta'lim jarayonini tashkil etish, bir tomondan, o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish yuzasidan faoliyatlarini tashkil etish, ularning oldiga o'quv topshiriqlarini qo'yish, o'quvchilarga tegishli sharoitlarni yaratish, amaliy ishlarini tashkil etish davomida o'quvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash va ular oldida turgan faoliyatning turlari haqida tushunarli, aniq yo'l-yo'riqlar berish, o'quv topshiriqlarini bajarish mobaynida o'quvchilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish kabilarni qamrab oladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini rag'batlantirishsiz muvaffaqiyatli o'qitishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Rag'batlantirishlar o'quvchilarning diqqat-e'tiborlarini mavzuga jalb etish hisobiga, shuningdek havasmandlikni, tirishqoqlikni, sinchkovlikni, bilimga. qiziquvchanlikni uyg'otish hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Darsning borishi jarayonida, xususan uning ikkinchi qismida, o'quvchilarning tabiiy ravishda charchashlari yuz bera boshlaganda va ular toliqishni, charchoqni ketkazadigan ta'sirlarga muhtoj bo'lganda (foydalanadigan rag'batlantirish usullarini o'ylab topish kerak.

Ta'limning tashkiliy jabhasi. Ta'lim jarayonida uqituvchi va o'quvchilarning belgilangan tartibda .amalga oshiriladigan faoliyatining tashqi ko'rinishi ta'limning tashkiliy ko'rinishini belgilaydi. Ta'limning tashkiliy shakllari o'qituvchi va o'quvchining hamjihatlikdagi faoliyatini aniqlab beradi, ommaviy ta'lim va aloxida (individual) holdagi ta'limning nisbatlarini belgilaydi.

O'rta Osiyo va umuman SHarq ta'limi alohidalik, ayrimlik, yakka holda o'rgatish xususiyatlariga ega edi, o'rta asrlar davrida esa mashg'ulotlar o'quvchilarning uncha katta bo'lmagan guruhlarida o'tkazilgan. XVI asrda dunyo maktablarining tajribalarini o'rganish asosida YA. A. Komsinskiy dars shaklidagi ta'limni tashkil etishdan iborat sinf — dars tizimini nazariy jihatdan tushuntirib berdi.

Ta'limning tashkiliy — dars shakli davomida o'quv mashg'ulotlari o'qituvchining raxbarligida, o'rnatilgan jadvalga ko'ra, doimiy bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladi.

Ta'limning sinf — dars shakli XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Angliyada yoyildi va bellankaster tizimi deb nomlandi. Bu nom uni taklif etgan mualliflar A. Bella va D, Lankaster ismi shariflaridan hosil qilingandir.

Sinf — dars tizimi amalda ko'p jixatdan ustun ekanligini namoyon etdi va ko'pgina mamlakatlarda qo'llana boshlandi. Uquvchilarning anglash faoliyatlarini yanada faollashtirish uchun qilingan harakatlardan biri ta'limning yangi tashkiliy turi bo'ldi. Bu XX asrning boshlarida AQSH jamoat arbobi E. Tarkxerst tomonidan taklif etilgan edi, Bu dal'ton-reja deb nomlanib, ta'limni individuallashtirish va har bir o'quvchiga o'rgatishda mustaqil ravishda hamda o'z tezligida ilgari siljish imkoniyatini beradigan ta'lim turi edi.

Dars hozirgi zamon o'quv jarayonida tahsil maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ta'lim shakli hisoblanadi. Bir necha asrlar davomida ta'limning dars shaklidan boshqa bir yangi shaklini pedagogika nazariyasi ham, amaliyoti ham taklif etganicha yo'q.

O'tkazilgan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchilarni ham qanoatlantirishi uchun ma'lum darajada umumiy talablarga javob berishi kerak, SHulardan ba'zilarini eslatib o'tamiz. Ayrim olingan biron-bir dars-predmet kalendar dasturidagi o'z o'rniga ega bo'lishi, maqsadi aniq belgilangan bo'lishi kerak. Dars o'tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim iqtidor va ko'nikmalarning erishiladigan darajasi bilan ham belgilanishi ma'qul bo'ladi. Darsda ishlatiladigan usullar, vositalar turkumi aniq bo'lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo'yiladigan didaktik talablardan yana biri shukn, beriladigan o'quv material sistemali ravishda osondan — keyinga, oddiydan — murakkabga, o'quvchilar yosh xususiyatlarini xisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

O'qituvchi darsni tashkil qilar ekan, o'quvchilar o'quv faoliyatini aktivlashtiruvchi ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning muqobil rejalarini amalga oshirishni ko'zda tutmog'i lozim. Darsga birmuncha tarbiyaviy talablar qo'yiladi. Xar bir dars ma'lum darajada g'oyaviy yo'nalgan aniq tarbiyaviy vazifalarni bajarishi, olingan ilmiy bilimlar asosida dunyoqarashni, yuqori axloqiy fazilatlarni, estetik didni shakllantirib, ta'limning xayot bilan mustakil alokalarini ta'minlashi zarur. Uquvchilarda bilimga qiziqishni, bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalarini qaror toptirish, ijodiy tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash, ularning tasavvurlari chuqurligi tarbiyaviy talablardan hisoblanadi.

Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar: mavzu (kalendar) asosida dars o'tkazishning ishlab chiqilgan aniq rejasi mavjud bo'lishi, dars o'z vaqtida boshlanib, o'z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o'quvchilar ongli intizomi ta'minlanmog'i lozim, Darsni tashkil etishda turli-tuman vositalardan, o'quv-texnik, komp'yuter, statsionar va dinamik ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Darsning tarkibiy tuzilishi o'rganilayotgan materialning mazmuniga, darsda foydalaniladigan ta'limning usul va uslublariga, o'quvchilarning tayyorlanish hamda rivojlanish darajasiga, o'quv jarayonida darsning o'rniga bog'liq bo'ladi.

Darslar juda ham turli-tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo'lib, ularni bir, marta doimiy ravishda mavjud bo'ladigan ko'rinish tarzida rejalashtirish va qotib qolgan namuna asosida o'tkazaverish mumkii emas. Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o'tilgan omillar qatorida mazkur sinfdan ishlashning haqqoniy shart-sharoitlari, shuningdek o'qituvchi ish faoliyatining ijodiy. xarakteri katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir dars boshqa darslardan hatto ular bitta mavzu yuzasidan

teng, yonma-yon sinflarda o'tkazilganda ham, uning o'ziga xos jihatlariga ko'ra farq qiladi. Darsda har doim o'qituvchining maxsus «pedagogik yondashuv tarzi»ni ko'rish mumkin. Masalan, kombinatsiyalashgan dars quyidagi ko'rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish, o'quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o'rganilgan material yuzasidan o'quvchilardan so'rash, o'qituvchi tomonidan yangi materialning bayon etilishi, o'rganilgan materialni mustahkamlash, uyga topshiriqlar, vazifalar berish.

Darsning tarkibiy tuzilishi o'qituvchi va o'quvchilarning hamjihatlikdagi faoliyatlarining tashqi ko'rinishigina emas, balki jarayonlarning mohiyatlarinn ham aks ettirishi kerak.

Zamonaviy darslar uchun o'zlashtirish, qismlarga ajratish, takrorlash va mustahkamlash, yangi o'quv materialini egallash xamda uni amaliy jihatdan qo'llash bilan bog'liq ravishda oldin o'rganilganlarni nazorat etish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqliklari xarakterlidir. Uquvchilarning qidiruvchanlik faoliyatlarining tarkibiy qismlari faqat muammoli darslardagina emas, balki hamma turdagi darslarning (kombinatsiyalashgan, nazorat va boshqalar) ayrim bosqichlarida ham foydalaniladi.

Darsning muvaffaqiyatli o'tishi o'qituvchi hamda o'quvchilarning darsga tayyorlanishlariga bog'liqdir.

Darsga tayyorlanish va uni olib borish. Darsga tayyorlanish etarli darajada .pedagogik ish tajribasiga ega bo'lmagan yosh o'kituvchilar uchun juda zarur.

O'qituvchining darsga tayyorlanishida dastlabki bosqichlar alohida o'rin tutadi. O'quv yili boshlanishi oldidan o'qituvchi dasturdagi hamma mavzularni o'rganish vaqtini taqsimlab chiqadi, unga muvofiq bo'lgan kalendar rejasini tuzadi. Ushbu reja o'qituvchiga dars o'tishida birinchi hujjat sifatida xizmat qiladi.

Darsning rejasi ixtiyoriy tuziladi, ammo unda quyidagi tarkibiy qismlar aks etishini ta'minlash zarur: darsning o'tkazilish muddati va uning mavzu rejasi bo'yicha tartib rakami; o'tkaziladigan sinfi, dars mavzusi; ta'limning vazifalari, shakllantiriladigan bilim va ko'nikmalar; o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish; dars bosqichlarining davomiyligi va ushbu bosqichlarda vaktning taqsimlanishini ko'rsatgan holdagi tarkibiy tuzilishi; uquv materialining mazmuni; darsning har bir qismida o'qituvchi va o'quvchining ish usullari; ta'limning ko'rgazmaln va texnik vositalarini qo'shib xisoblaganda darsni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv qurollari; darsda bevosita o'tkaziladigan test sinovlari; uy vazifalari, topshiriqlar.

Darsning yutug'i va uning natijalari nafaqat o'qituvchi tayyorgarligiga, balki o'quvchilarning tayyorgarliklariga ham bog'liqdir. Afsuski, ushbu masalaga ko'pincha o'qituvchilar o'zlarining amaliy ishlarida etarli darajada e'tibor bermaydilar. SHu bilan birga o'quvchilarning navbatdagi darsga (yoki darslarga) tayyorlanishlari ularda ijobiy psixologik kayfiyatni vujudga keltiradi, anglashga, bilishga bo'lgan yuqori darajadagi qiziqishni tug'diradi. Uquvchilarni darslarga tayyorlashda quyidagilar nazarda tutiladi: ularni oldinda turgan darsning dasturiy o'rganish rejasi bilan tanishtirish (bu hususan yukori sinflar bilan o'quv ishlarida ham juda zarurdir); o'quvchilarning tushunishi mumkin bo'lgan darslarning ayrim bo'limlari bilan tanishish; navbatdagi darsda ko'rsatiladigan masalalar yuzasidan

ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'qish, yangi materialni o'rganishga ko'maklashadigan kuzatishlar va uncha murakka6 bo'lmagan tajribalarni o'tkazish.

O'quvchilarning darsdagi ishlarini barcha uchun umumiy (frontal) shaklda tashkil etish bilan bir qatorda, turli mashqlarni guruhlariga ajratib bajarish shakllari ham qo'llaniladi. SHu bilan birga u o'quvchilarning individual (alohida holdagi) va har tomonlama (frontal) ishlari bilan juda xam mustahkam bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, maqsadga muvofiq bo'lgan guruhning tarkibi 5—7 kishidan iborat bo'lishi kerak. Hamkorlikdagi ishlar uchun bir xil ishlash kobiliyatiga va taxminan bir xil o'zlashtirish darajasiga ega bo'lgan o'quvchilardan guruh jamlash zarur. Qoida bo'yicha ushbu guruhlarining tarkibi doimiy bo'lmasdan, har bir fan bo'yicha turlicha bo'ladi, o'quvchilarning o'zlari tomonidan belgilanadi, o'qituvchi esa o'quvchilar orasidagi 'o'zaro munosabatlarni hisobga olgan holda to'rrilab, bir yo'nalishga solib boradi.

O'quvchilarning guruh ishlari deyarli barcha didaktik masalalarni: masala va mashqlarni echish, mustahkamlash, yangi materialni o'rganishda qo'llanilishi mumkin. Guruhlarda ham o'quvchilarning mustaqil ishlashlari tashkil etiladi, ammo tabaqalashgan guruhga tegishli topshiriqlarni bajarish o'quvchilarni jamoa bo'lib ishlash metodlariga o'rgatadi, muloqot esa, psixologlar ta'kidlab o'tganidek, shaxsiyatparastlikdan qutulish imkoniyatini yaratadi.

O'quvchilarning har tomonlama (frontal), guruh va individual (alohida) ishlari tarbiyaviy hamda ta'lim vazifalarini amalga oshirishga ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun o'qituvchi o'quv fanining o'ziga xos tomonlarini, o'rgatayotgan materialning mazmunini o'qitish metodlarini, sinf va ayrim o'quvchining o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda bu masalalarni muvofiqlashtirishi kerak.

O'qituvchi darslarda o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni o'zaro hurmat, ziyraklik bilan olib borishi lozim. Darsda o'quvchilarga o'qituvchining murojaat shakli ham farksiz emas. Uquvchilarni ismi sharifi bilan atash maksadga muvofiqroqdir. Uqituvchi darslarda faqatgina ziyrak va mehribon, quvnoq, xushyor bo'libgina qolmay, balki jiddiy qiyofaga kirishi ham kerak.

O'qituvchining o'quvchilarga munosabatidagi ishonch, o'qitishning turli shakllaridan foydalanish, o'quvchi ishlariga haqqoniy baho berish, ularga har doim yordam ko'rsatish — bular juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarda mehnat malakalarini hamda ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantiradi,

Dars berishni takomillashtirib borish uchun yangi sharoitlarda ta'limni tashkil etishning asosiy shakllarini o'rganish zarur. Bunda ta'lim samaradorligi o'quvchilar tomonidan olingan bilimlar bilan chegaralanmaydi, balki anglashning ko'nikma va malakalarini egallash bilishga bo'lgan qiziqishlarni ham qo'shib oladi.

O'quv-tarbiya muassasalarida dars o'quvchilarning yoshiga hamda ularning imkoniyatlarini xisobga olgan holda o'ziga xos shaklda, tashkil etiladi. Masalan, quyi sinflarda, o'quvchilar diqqatini qiyosan juda xam tez qo'shish zarur bo'lib, darslarda o'quv ishlarining har xil turlari, jumladan, o'yin va mashg'ulot xarakteriga ega bo'lganlaridan foydalaniladi.

YUqori sinflarda o'qituvchi tomonidan yangi materialni bayon etishda darslarning (hikoya, tushuntirish yoki ma'ruza qilish) roli ortadi va



o'quvchilarning mustaqil ishlarining (darsliklari va o'quv qo'llanmalari bilan) ahamiyati oshadi, muammoli darslarda ijodiy xarakterdagi individual (alohida holdagi) va guruh bo'lib ish bajarish keng qo'llaniladi. Akademik litsey va kollejlarda o'quv mashg'ulotlarining jadvaliga qo'sh darslar deb nomlanadiganlari kiritiladi. Bunday darslarni yangi ma'lumot asosidagi ma'ruzani o'tkazishda, amaliy ishlarni, seminar va amaliy mashg'ulotlarni, praktikumlar va o'quv sayohatlarini bajarishda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi darslarda va kechki maktablarda hayotiy masalalarni mustaqil hal etish (ishlab chiqarish, turmush masalalari) malakasiga ega bo'lgan o'quvchilarning mustaqil ishlariga suyanadi.

#### TA'LIM-TARBIYA USULLARI TO'G'RISIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Ta'lim usullari-o'qituvchi va o'quvchining tartibga solingan o'zaro aloqadagi faoliyati.

O'qitish usullari o'quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Bu faoliyatni tegishli usullarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Usullar axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliyga bo'linadi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim faoliyatiga munosib ravishda quyidagi usullar: tushuntirish-illyustrativ (informatsion retseptiv), reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot usullari qo'llanilishi mumkin.

O'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni uzatish, qabul qilish, anglash, o'quv axborotni esda saqlashni ham olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayoni o'quv axborotni va uni mantiqiy o'zlashtirishni anglashni tashkil qilishni ko'zda tutadi.

O'quv faoliyatini rag'batlantirish hamda ta'limga burch va ma'suliyatni asoslash usullariga bo'lish mumkin.

Ta'limni rag'batlantirish usullari: 1.Ta'limga qiziqishni rag'batlantirish usullari 2.Ta'limga burch va ma'suliyatni rag'batlantirish usullari.

Ta'lim jarayonidagi nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish usullari og'zaki, yozma, laboratoriya-amaliy test-reyting usullariga bo'linadi.

Ta'limda nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish usullari quyidagilardir: 1.Og'zaki nazorat va o'zini-o'zi qilish. 2.Laboratoriya-amaliyot nazorati va o'zini-o'zi nazorat qilish. 3.Test nazorat.

Taklif qilinayotgan usullar nisbatan yaxlit hisoblanadi, chunki faoliyatning barcha asosiy elementlarini hisobga oladi. Unda bilish faoliyatini qabul qilish, anglash va amalda qo'llash qirralari yaxlit holda ko'rinadi.

Ta'limning og'zaki usullari. Ta'limning og'zaki usullari: hikoya, lektsi, suxbatva boshqalar kiradi.Bu usullarning qo'llanilishida o'qituvchi so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quvchilar esa tinglash, eslab qolish orqali uni faol qabul qiladilar va o'zlashtiradilar.

Hikoya. Ushbu usulda o'quvchilarga o'quv materialini mazmunini og'zaki bayon qilish ko'zda tutiladi.

Hikoyaning bir necha turi bo'lishi mumkin-hikoya-muqaddima, hikoya-bayon, hikoya-xulosa Birinchisining maqsadi-o'quvchilarni suxbat orqali yangi

materialni qabul qilishga tayyorlashdir. Hikoyaning bu turi nisbatan bayonning qisqaligi, yorqinligi, qiziqarliligi va emotsionalligi bilan xarakterlanib, yangi mavzuga qiziqish, uni faol o'zlashtirishga ehtiyoj uyg'otadi. Mana shunday hikoya vaqtida, darsda o'quvchi faoliyatining vazifalari to'g'risida tushunarli shaklda xabar beriladi.

Hikoya-bayon davrida o'qituvchi yangi mavzuning mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja, asosiy, muhimlarini ajratib, illyustratsiya va ishorali misollarni izchil bayon qilishni amalga oshiradi.

Hikoya-xulosa odatda mashg'ulotning oxirida keltiriladi. O'qituvchi undan asosiy fikrni yakunlaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi, mazkur mavzu yuzasidan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi.

Hikoya usulini qo'llashda quyidagi usullardan foydalaniladi: bayon qilish, diqqatni faollashtirish, xotirada saqlashni jadallashtirish usullari, o'xshatish, taqqoslash, asosiysini ajratish, yakulash kabi mantiqiy usullar.

Hikoyani samarali qo'llashning shartlari: rejani qunt bilan o'ylash, mavzuni yoritishning oqilona izchilligini ta'minlash, misollar va illyustratsiyalarni muvaffaqiyatli tanlash, bayonda zaruriy emotsionallikka erishish darkor.

Ma'ruza. Ta'limning so'z bilan ifodalash usullaridan biri sifatida o'quv ma'ruzasi o'quv materiallarini og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, hikoyadan o'z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirishning murakkabligi bilan ajralib turadi.

Ma'ruza davomida axborotni og'zaki bayon qilishi, uzoq vaqt davomida diqqatni tutib turish, tinglovchilarning fikrlarini faollashtirish usullari, dalillash, isbotlash, tasniflash, sistemalashtirish, umumlashtirishdan foydalaniladi.

Ma'ruzalar orqali asosan o'rta maktablarning yuqori sinflarida, shuningdek akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida o'qitiladi. Ma'ruza rejasini aniq o'ylash va ma'lum qilish zarur. Reja bandlarining barchasida, ularning har birining yakun va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg'unlik bo'lmog'i kerak.

Bayonning yengilligi, tushunarligi, atamalarni tushuntirish, misollar va ko'rgazmalar tayyorlash, uning xilma-xil vositalaridan foydalanish ham bunday katta ahamiyatga ega emas. Ma'ruza shunday shunday suratda o'qiladiki, tinglovchi uning zarur joylarini yoza olsin. SHuning uchun ham o'qituvchi ma'ruzaning yozib olinadigan joylarini aniq ajratishi, yozib olishlarini yengillashtirish uchun zarur bo'lsa takrorlashi lozim.

Keyingi yillarda yuqori sinflarni o'qitishda fizika, kimyo, tarix fanlaridan ko'pgina mavzudagi ma'ruzalar sinfni kichik guruxlarga bo'ladigan seminar mashg'ulotlari bilan birgalikda olib borilmoqda.

Suhbat. Suhbat usuli atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchini faktlar tizimini, yangi tushunchalar va qonunlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Suhbat usulining qo'llanilishida savollarni qo'yish, o'quvchining javob va muloxazalarini muhokama qilish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Savollar qabul qilinishi uchun yetarlicha hajmli bo'lishi lozim. SHunday suhbatlar ham bo'lishi mumkinki, unda o'quvchilar ilgari o'zlashtirganlarini eslaydilar, xulosa chiqaradilar. Buday suhbatlar asosan tushuntirish xarakteriga ega

va ilgari o'zlashtirilganlariga suyanish, o'quvchilar xotirasini faollashtirishni ko'zda tutadi.

Ta'limning ko'rgazmali usullari. Ta'limning ko'rgazmali usullarini shartli ravishda ikki katta guruhga bo'lish mumkin: illyustratsiya va namoyish qilish usullari.

Ilyustratsiya usuli, o'quvchilarga illyustratsiya qo'llanmalar-plakat, xarita, doskadagi rasm va boshqalarni ko'rsatish ko'zda tutadi.

Namoyish qilish usuli, odatda, asboblari, tajribalar, texnik qurilmalarni namoyish qilish bilan bog'liq. Namoyish qilish usuliga, shuningdek, kinofil'm va diafil'm ko'rsatishni ham kiritishadi. Ko'rgazmalilik usulini qo'llashda quyidagi usullardan foydalaniladi: ko'rsatish, yaxshi ko'tinishni ta'minlash, namoyish va xokazolar natijalarini muhokama qilish.

Keyingi yillarda amaliyot ko'rgazma vositalarining bir qator yangilari bilan boyidi. O'qitish amaliyotiga kunduzi sinfni qorong'ilashtirmasdan o'qituvchining shaffof klyonkada tayyorlangan rasm, sxema, chizmalarini ko'rsatuvchi LETI apparati, kodoskoplar kirib keldi.

O'quv kinosini qo'llash usuli ta'lim amaliyotida odatdagi xodisa bo'lib qoldi. Asosiy o'quv fil'mlarining ro'yxati hozirgi kunda maktab dasturlariga kiritildi. Bu esa o'qituvchilarning tanlashini ancha osonlashtirdi. O'quv jarayonida mavzu bo'yicha to'liq fil'm ham, shuningdek, kino parcha va kinokol'tsovkalaridan ham foydalaniladi. Kinokol'tsovka odatda yopiq jarayonlarni aks ettiradi. Mavzuni mustaxkamlash uchun fil'mlardan foydalanish samara beradi.

O'quv jarayonida fil'mlarni foydalanishga tayyorlashda o'qituvchi uni oldindan ko'rishi, namoyish qilish davomida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan asosiy savollarni tuzishi, darsning tegishli lag'zasida ko'rsatiladigan parchalarni, savollarni tuzishi, alohidaparchalarni ajratishi lozim.

O'rta maktab, akademik litsey, kolej va oliy o'quv yurtlari uchun ko'plab telefil'mlar yaratildi, shuningdek o'quv teleko'rsatuvlari ham olib borilmoqda. Respublika televidiniyasining bo'lajak ko'rsatuvlar dasturimatbuotda e'lon qilinadi. Buni hisobga olib, maktablarda o'quv mashg'ulotlari jadvali tuziladi va ularni kabinetlarga o'tkazish ko'zda tutiladi.

Ta'limning ko'rgazmali usulining o'ziga hos xususiyati shundaki, ular so'z bilan ifodalash usuli orqali yoki bu darajada uyg'unlashib ketadi. So'z va ko'rgazmalilikning chambarchas bog'liqligi shundaki, ob'ektiv va borliqdagi qonuniyatlar amaliyotni birgalikda qo'llanishini taqozo etadi.

SHunday qilib, so'z va ko'rgazmalilik aloqasining xilma-xil shakllari mavjud. Ularning qaysisigadir ustunlik berish xato bo'lar edi, chunki ta'lim vazifasining o'ziga xos xususiyati, shuningdek o'quvchilar tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib, har bir konkret holatda ularning eng oqilona qo'shiluvi tanlanadi.

Tarbiya usullari tarbiya faoliyatining xilma-xil turlarining keng doirasini qamrab oladi. Amaliy usullarga yozma mashqlar-ona tili va chet tili, matematika va boshqa fanlar bo'yicha topshiriqni bajarish mashqlari kiradi. Mashq davomida o'quvchi amalda olgan nazariy bilimlarni qo'llaydi.

O'rganish mashqlariga yozma mashqlar – ona tili va chet tili, matematika va boshqa fanlar bo'yicha mashqlar kiradi. Mashq davomida o'quvchi amalda olgan nazariy bilimlarni qo'llaydi.

Amaliy usullarning ikkinchi guruxini laboratoriya tajribalari tashkil qiladi. Keyingi o'n yillikda maktab amaliyotida frontal laboratoriya ishlari mustahkam o'rin oladi. SHuningdek, amaliy usullarga ustaxonalarda, o'quv-ishlab chiqarish sexlari, o'quvchilar brigadalarda mehnat topshiriqlarini bajarish ham kiradi. Bularda o'quv ustaxonasidagi qog'oz, karton, yog'och, metall bilan ishlash, "konstruktor" tipidagi permamadalar bilan ishlash bilan bog'liq barcha ishlarni kiritish mumkin. Ta'limning shunday usullari ham qo'llaniladiki, bunda o'quv korxonaning ishlab chiqarish topshirig'i bajariladi.

Amaliy usullarga, shuningdek, o'quvchilarni ovoz yozish va ovozni qayta ishlash apparatlari bilan bajaradigan ishlari ham kiritiladi.

Tarbiya usuliga o'rgatuvchi mashinalar bilan mashina trinojorlar va repititorlar bilan mashq ham kiradi. Bu mashinalar, odatda, har bir doza uchun nazorat savollarini tayyorlash, javobni mustahkamlash yoki yangi yo'llovchi savollarni qo'yishni tashkil etadi.

Amaliy usullar tarbiyaning so'z orqali ifodalash va ko'rgazmali usullari bilan chambarchas bog'liqlikda qo'llaniladi, mashq, tajriba, mehnat operatsiyasini bajarishdan oldin pedagog tushuntirish beradi. Og'zaki tushuntirish va illyustratsiyani ko'rsatish, odatda, mashqni bajarish jarayonining o'zi bilan bir vaqtda olib boriladi.

Ta'limning muammoli-qidiruv usullari.

Ta'limning muammoli-qidiruv usuli muammoli ta'lim jarayonida qo'llaniladi. Bu metodlardan foydalanishda o'qituvchi avvalo muammoli vaziyatni yaratadi, savollarni qo'yadi, eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi. O'quvchilar oldingi tajriba bilimlariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo'llari to'g'risidagi takliflarni aytadilar, oldin olgan bilimlarini umumlashtiradilar, hodisalarning sabablarini aniqlaydilar, muammoli vaziyatni echishning eng oqilona variantini tanlaydilar.

O'quv materiallarini muammoli o'tish muammoli tuzilgan ma'ruza usullari orqali bayon davomida mulohaza yuritishni, isbotlashni, umumlashtirishni va tinglovchi fikrini o'z ortidan ergashtirishni, uni faolroq va ijodiyroq qilishni ko'zda tutadi.

Muammoli ta'lim usullaridan biri evristik va muammoli qidiruv suhbatini hisoblanadi. Bunda pedagog o'quvchilar oldiga qator izchil va o'zaro bog'langan savollarni qo'yadi. Agar evristik suhbatda bunday taxminni yangi mavzuning faqatgina biror elementiga aloqador bo'lsa, muammoli-qidiruv suhbatida o'quvchilar muammoli vaziyatning butun seriyasini echadilar. SHuning uchun ham bu suhbatlarning farqli shartli va faqatgina muammoli vaziyatda qo'llanish tadbirlariga ta'luqlidir.

Ta'limning muammoli-qidiruv usullarida ko'rgazmali qo'llanmalar esda saqlashni faollashtirish maqsadida emas, balki darsda muammoli vaziyatni yaratadigan eksperimental masalalarni qo'yish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, keyingi paytlarda rasmlar va sxemalar seriyasi ko'rinishida muayyan o'quv

vaziyatlari tasvirlarning ko'rgazmali qo'llanmalari ko'p tayyorlanmoqda. Bu usulda o'quvchilarning mustaqil fikirlashining ustivor sabablarini aniqlash onson kechadi.

Muammoli-qidiruv usullari ko'proq ijodiy bilish faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Ular o'quvchining bilimni chuqur anglashiga, mustaqil egallashiga yordam beradi. Bu usullar, ayniqsa, quyidagi hollarda samarali qo'llaniladi: o'quv materialida tushuncha, qonun va nazariya kabilarni shakllantirishiga yo'naltirilganda, faktik informatsiyani ma'lum qilish, mehnat faoliyatining laboratoriya-eksperimental o'quv va ko'nikmalarini hosil qilishda, o'quv materialining mazmunini printsiplial jihatdan yangi bo'lmasidan, ilgari o'rganilganining mantiqiy davomi bo'lsa, uning asosida o'quvchilar yangi bilimni qidirish uchun mustaqil qadam tashlasa; mazmun hodisadagi sabab-oqibat va boshqa aloqalarni aniqlasa, umumlashmalar va boshqalarga olib kelsa. Qidiruv usullari o'qituvchilar o'quvchilarni muammoli vaziyatni echish faoliyatiga tayyorlagan holatlarda qo'llaniladi.

Talim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarni faollashtirish. Agar ta'lim jarayoni talabada faol harakat, bilim va ko'nikmalar ortirish ishtiyoqini uyg'otsagina bu jarayon samarali kechadi va sifatli natija beradi.

B jarayonda o'quv faoliyati, uning mazmuni, shakli va amalga oshirish usullariga munosabatda ijobiy hissiyotning yuzaga kelishini ta'minlash mumkindir. SHuning uchun ham diqqat, eslab qolish, anglash jarayonlariga bunday holatlarda o'quvchining chuqur ichki kechinmalari qo'shiladiki, bu jarayonni qizg'in kechadigan qiladi va maqsadga erishish ma'nosida ancha samarali bo'ladi.

Ta'limni hissiy rag'batlantirish usullaridan biri darsda qiziqarli vaziyatni yaratishdir. Bunda gap o'quv jarayoniga qiziqarli misollarni, tajribalarni, faktlarni kiritish ustida boradi. Masalan, fizika fanida «fizika ro'zg'orda», «iziua ertaklarda» kabi misollar bo'lishi mumkin.

Hissiy kechinmalar hayratlanish usulini qo'llash yo'li bilan ham hosil qilinadi. Rag'batlantirish usullaridan biri ayrim tabiat xodisalarini ilm-fan nuqtai nazaridan kelib chiqib tushuntirishdir.

Dars davomida hissiy vaziyatni yaratish uchun o'qituvchi nutqining badiiyligi va yorqinligi katta axamiyatga ega. O'qituvchining nutqi bulariz ham axborot sifatida foydali bo'lsada, lekin u o'quvchining o'quv bilish faoliyatini rag'batlantiradi. Qiziqishni shakllantirish usullari nutqning badiiyligi, obrazliligi va yorqinligini ta'minlash bilan birga o'z navbatida o'quv faoliyatiga ijobiy munosabatni uyg'otishi hamda bilishga qiziqishni shakllantirishda dastlabki qadam bo'lishi kerak.

O'quv faoliyatiga qiziqishning asosiy manbai, avvalo uning mazmunidir. Bu mazmun kuchli rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi uchun ta'lim printsiplari qator talablarga javob berishi lozim. Bunda ta'lim mazmunining rag'batlantiruvchi ta'sirini oshiradigan ayrim maxsus usullar ham mavjuddir. Ularga birinchi navbatda yangilik, dolzarblik holatlarini kiritish mumkin. Ana shu maqsada o'qituvchi mamlakat jamoatchiligida alohida qiziqish uyg'otayotgan, vaqti matbuotda e'lon qilinayotgan, televidiniya va radio orqali berilayotgan faktlar, rasmlarni maxsus tanlaydi. Ana shundagina o'quvchilar darsda o'rganilayotgan masalalarning

muhimligini yorqin va chuqur his qiladilar va shunga asosan unga katta qiziqish bilan yondashailar.

O'qishga qiziqishni rag'batlantirishning muhim usuli sifatida bilishga doir o'yinlarni aytish mumkin. U o'quv jarayonida hordiq chiqarish vaziyatini yaratadi. O'yin o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi vosita sifatida allaqachon tan olingan. Masalan, sayohat, elektroviktorina kabi o'yinlar yordamida muayyan tumanlarning hayvonot dunyosi, o'simliklari, tabiati o'rganiladi.

Maktab ishi amaliyotida darsda mahsus tashkil qilinadigan o'quv baxslarini tez-tez uchratish mumkin. Bunda yuqori sinf o'quvchilari o'qituvchilarning topshirig'i bilan u yoki bu badiiy asarni turli hil nuqtai nazardan tahlil qiluvchi adabiyotlarni o'rganadilar, yangi fizikaviy va kimyoviy kashfiyotlarga turlicha nuqtai nazarni muhokama qiladilar. Bunday o'quvchilar kontseptsiyalar tarafdorlari bo'lib chiqadilar. O'qishga havasni rag'batlantirishning ta'sirchan usullaridan biri talabalarda quvonch hissini yaratishdir. Muvaffaqiyat vaziyatini yaratishda u yoki bu o'quv topshirig'ini bajarish uchun qulay ma'naviy-psixologik muhitni tanlash ham rol o'ynaydi. Qulay mikro ijtimoiy iqlim o'qish vaqtida ishonchsizlik, qo'rqish tuyg'usiga barham beradi. Bunda ikkilanish holati ishonish holati bilan almashinadi.

Talabalarning o'qish davridagi burch va ma'sullik asoslari. Ta'lim jarayoni bilishga qiziqishgagina emas, balki bir qancha boshqa omillarga ham tayanadi. Bu omillar o'quvchiga o'qishdagi muqarrar qiyinchiliklarni bartaraf etish, ularni engishdan quvonish va qoniqish tuyg'usini baxsh etadi.

Ma'lumki, talabalarning o'qishidagi burch va ma'sullik asoslari butun bir gurux usullarini qo'llash vositasida shakllanadi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, o'qishda burch va ma'suliyatni shakllantirish ta'lim va tarbiya jarayonining birligini taqozo etadi.

Talabalarda hamma fanlar bo'yicha muvaffaqiyatli o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushunishni shakllantirishda o'qituvchi bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Agar talabalar bo'lajak mutaxassisligiga yaqin o'quv fanlarni o'zlashtirishning ahamiyatini tushuntirish oson kechadi. Bunda o'quvchi texnik ixtisosini tanlasa, unga gumanitar tsikl fanlarining ahamiyatini tushuntirish o'rinli bo'ladi.

Ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarning darajasini nazorat qilish aloxida ahamiyatga ega. SHu xususda og'zaki savol-javob shakli an'anaviy usullardan biri xisoblanadi. Og'zaki savol-javob yakka-yakka va yoppasiga so'rash orqali amalga oshiriladi. Yakka o'quvchidan so'ralganda o'qituvchi o'quvchiga bir necha savol beradi.

Og'zaki savol-javob talabalar og'zaki nutq madaniyatini o'stiradi. Ularni so'zamollikga, ravon so'zlar ishlatib mantiqiy javob axtarishga shakllangan bilimlarni so'zlarda ifodalashga o'rgatadi. Pedagogning vazifasi talabalar nutqidagi ba'zi xatoliklarni ustalik bilan to'g'rilashdan iborat. Qo'pollik bilan berilgan tanbex talabalarda so'zlash ishtiyoqini qaytaradi. Maqtov, dalda berish kabi pedagogik tadbirlar talabalarda o'ziga ishonch uyg'otadi, guruhda musobaqaviy ko'tarinkilik ruhini uyg'otadi, guruh jamoasini yanada, birlashtiradi. Ammo shunga qaramasdan, og'zaki savol-javobga barcha talabalarni yuz foiz jalb qilib bo'lmaydi. CHunki

ayrim tortinchoq xarakterdagi talabalar boshqalar oldida so'zlashga iymnadilar, xato gapirib qo'ysam kulgiga qolaman, deb o'ylaydilar.

Ko'p hollardan nazoratning yozma shakli talabalar ichki sir-asrorlarini, kechirmalarini, yashirinib yotgan iste'dodlarini ochish imkonini beradi. Bu usulda yozma nazorat, insho, bayon, diktant, yozma sinov va hokazolarni 15-20 minut yoki dars davomida o'tkazish mumkin.

Keyingi yillarda yozma ishlarning dasturlashtirilgan shakli keng qo'llanilyapti. Bunda o'qituvchi so'vollar ro'yxatini tuzadi, ularning har biriga mumkin bo'lgan javoblarni taklif qiladi, bu javoblardan bittasi to'laroq bo'ladi. Talabalarning vazifasi javoblar ichidan nisbatan aniqroq va to'larog'ini topish.

Maktablarda nazoratning nisbatan yangi usuli – bu talabalar tayorgarligining laboratoriya nazoratidir, Uning yarim tarkibi bilan o'tkaziladi, ayni vaqtda sinfning ikkinchi yarmi yozma ishni bajaradi. Bu xil nazoratda talabalarning shu kungacha o'rgangan nazariy bilimlari laboratoriya sharoitida sinalib, amalda tadbiiq qilib ko'riladi. Masalan, talabalar mehnat va fizika darsida shtangentsirkul', mikrometr, ampermetr, volt'metr, termometr kabi o'lchov asboblarning vazialari, tuzilishlarini o'rgangan bo'lsalar, laboratoriya mashg'ulotida shu asboblardan foydalanish ko'nikmalarini egallashadi. Unga, tajriba o'tkazish talab qilinadigan, nazorat vaqtida amalga oshirsa bo'ladigan masalalarni echish ham kiritiladi,

#### **4-mavzu. Ta'lim (pedagogik) texnologiyalari va pedagogik mahorat asoslari.**

##### **Reja:**

4. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha.
5. Axborot texnologiyalarining ta'limdagi urni.
6. «Innovatsion texnologiya»lar tushunchasi

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni uquv muassasalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Keyingi o'n yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiya», «Progressiv pedagogik texnologiya» kabi tushunchalar ko'p uchrab turgani bilan ularning o'zbek tilidagi maromiga yetgan ta'rifi xali tuzilmagan.

Respublikamizning pedagog olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan xamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmokdalar.

Bu yerda, nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning milliy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiiq etish zarurati tug'ildi, degan savol

paydo bo'lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli kadrlarni va yukori malakali olimlarni yetishtirib kelgan pedagogika uslublari mavjud-ku, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarini uzgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo'lmaydimi?- degan muloxazalar xam yuk emas. O'zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchiligining aksariyati, aynan mana shu yuldan bormokda. Bu yul ilojsizlikdan izlab topilgan bulib, kiska muddat xizmat kilishi mumkin. Mustakillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qilolmaydi. CHunki:

**birinchidan**, ma'lum sabablarga ko'ra jaxon xamjamiyati tarakkiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun axoli ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanishning zarurligi;

**ikkinchidan**, an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «Axborotli uqitish» sifatida tavsiflanib, uqituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi;

**uchinchidan**, fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;

**to'rtinchidan**, kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi boskichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;

**beshinchidan**, yoshlarni xayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli xisoblangan ob'yektiv borliqqa majmui yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Pedagogik texnologiya yuqorida sanab o'tilgan beshta salbiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbirdir.

Ta'lim texnologiyalarini ishlab chikish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadkikotlar olib borishni kuzda tutadi.

SHuni aytish joizki, ta'lim texnologiyalari pedagogika ilmining tadkikot ob'ekti sifatida, anik fanlarni ukitish uslubi bulibgina kolmay, ijtimoiy fanlarni ukitishga xam yangicha yondashuv sifatida kayd kilinishi lozim.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundankunga ortib bormoqda. Ammo ijtimoiy soxada va, ayniqsa, ta'lim-tarbiyada depsinish va umumiy taraqqiyotdan orqada qolish sezilmokda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini kaqul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Ma'rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvaffakiyat bilan qo'llanib kelayotgan pedagogik texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'analariidan xamda ta'lim soxasining shu kundagi xolatidan kelib chiqqan xolda pedagogik texnologiyasini yaratish lozim.

**Texnologiya, deganda**, sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya xar doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga



yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, **uqituvchining uqitish vositalari yordamida uquvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy xodisa, deb ta'riflash** mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy xodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy zaruriyat bo'lganligidan dastavval AQSHda 70-yillarda falsafaning bixiviorizm oqimi zaminida yuzaga kelib, boshqa rivojlangan mamlakatlarga tez tarqalib ketdi.

XX asrning 90-yillari boshida sotsializm nurab, unga a'zo bo'lgan davlatlar birin-ketin mustakil bo'lganidan keyin, xar jixatdan taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston uchun ham keng yo'l ochildi.

Mustakillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rnatib boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. SHular katori jaxondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar xam kirib keldi.

Pedagogik texnologiyani uquv jarayoniga olib kirish zarurligini MDXga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar katorida ta'riflagan V.P.Bespalkoning fikricha, «PT-bu o'qituvchi maxoratiga bog'lik bo'lmagan xolda pedagogik muvaffakiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyixasidir».

Rossiya olimlaridan V.M.Monaxov: «PT-avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir»,- degan qiskacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. «PT-uquv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini xamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi»,-deydi.

M.V Klarin fikricha, **PT-o'quv jarayoniga texnologik yondoshgan xolda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chikib o'quv jarayonini loyixalashdir.**

V.P.Bespalkoning o'zbekistonlik shogirtlaridan Nurali Saidaxmedov va Abduraxmon Ochilovlarning fikricha, **PT-bu uqituvchining uqitish vositalari yordamida uquvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.**

Uzbekistonlik pedagog olim B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga kuyidagicha ta'rif beradi: **PT ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bulib, pedagogikada ijtimoiy-muxandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart xolga solib, uning optimal loyixasini tuzib chikish bilan bog'lik ijtimoiy xodisadir.**

Bu ta'riflarni uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib kurish uchun yapon pedagog olimi T.Sakomoto bergan ta'rifni keltiramiz. **«PT,-deydi**

**Sakomoto, -bu tizimli-majmuli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuga keltirishdir».**

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralaridan YUNESKO ning ta'rifi bo'yicha, «PT-bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'lik xolda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyixalashda va amalda ko'llashda tizimli yondashuv usulidan foydalanishdir».

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan taxlil qiladigan bo'lsak, uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan MDX mamlakatlari olimlarining bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsa-da, farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, Sakomoto va YUNESKO ta'riflarida majmu yondashuv tamoyiliga aloxida u'rgu berilgan. MDX olimlarining PT ga bergan ta'riflarida tizimli yondashuv eslatib o'tilgani bilan, o'quv jarayonining loyixasi tuzilayotganda uni mutlaq unutib, tizimli yondashuv tamoyilining qonun va qoidalariga sira xam amal qilinmaganini ko'ramiz.

Xakikatda esa, ob'ektiv borlikka tizimli yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga, Sakomoto aytganidek, «PT-o'quv jarayonini muayyan bir tizimga keltirishdir», degan tushuncha kifoya kiladi. Bu tushuncha orkali PT ning boshka xamma xususiyatlarini, ya'ni maqsadga yo'naltirilganini, bir necha o'zaro uzviy bog'lik bo'lgan kislardan tashkil topganligini va boshkalarni anglab olsa bo'ladi. CHunki bu xususiyatlarning xammasi, tizimlar nazariyasiga binoan, tizim deb nom olgan narsa va xodisalarning ajralmas sifatlaridir.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so'zsiz, o'quv jarayoniga tizim sifatida yondashishdir. Bunda ta'lim-tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va xodisalar uzaro funktsional bog'liklikda bulib, bir butunlikni, ya'ni pedagogik jarayon tizimini tashkil kiladi. Pedagogik jarayon tizimining muayyan bir vakt mobaynida boskichma-boskich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi (4-rasmga karang).

**Pedagogik texnologiyaning avvalgi uslublardan afzalligi, birinchidan, u ta'lim jarayonini bir butunlikda kurib, ta'lim maksadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari ta'lim boskichlarini loyixalab, ta'lim jarayonini nazorat kilish va ta'lim natijalarini baxolash kabi kislmlarini uzaro uzviy bog'lik tizimga keltirib turib, uning loyixasini tuzishidadir.**

Ikkinchidan u talabalarining uzlariga berilgan bilimni yodlab olib aytib berishiga emas, balki ta'lim va tarbiya jarayonining yakunida amaliy ishlarni bajarilishiga yunaltirilganligidadir.

Ilmiy asoslanib, yaxshi loyixalashtirilgan pedagogik texnologiya buyicha xar kanday ukituvchi xam, a'lo bulmasa-da, yaxshi dars utadi. CHunki pedagogik texnologiyani pedagog olim, metodist yoki ilgor tajribali ukituvchilar tuzadi, shu bois ularning pedagogik maxorati pedagogik jarayon loyixasida uz ifodasini topgan buladi.

**PT-bu jamiyat extiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va anik maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qislmlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga**

**ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baxolab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbir.**

Texnologik yondashuv ishlab chikarishdan olingan bo'lib, unda minglab texnologik jarayonlar loyixalashtirilgan. Ular ishlab chikarishda kerakli natijalarga erishish garovi xisoblanadi. Bu texnologiyalarni ko'llash vaqtida xudud va ularning ijrochisi o'zgarsa ham, kerakli maxsulot chiqaveradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida xam shunga erishish uchun pedagogik texnologiya ishlab chikildi.

Pedagogik texnologiya, umuman olganda, reproduktiv (nusxa olish) dars berishga asoslangan bo'lib, undagi uquv jarayoni uquvchi (talaba)larga tipik xolatlardagi xarakatlarni egallashga yo'naltirilgan.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyixalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyixalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

**Pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-xarakati orkali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'lik qamrab olishi kerak.**

Demak, an'anaviy uquv jarayonida asosiy omil pedagog (va uning faoliyati) xisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o'rinda o'qish jarayonidagi o'quvchilarning faolligi ko'yiladi.

Pedagogik texnologiyadagi reproduktiv bilim berish jarayonida dars aniq bo'laklarga bo'linib, xar bir bo'lagida o'quvchi (talaba) lar bilishi shart bo'lgan natijalar ko'rsatiladi. O'quv materiallar dars maqsadidan kelib chiqib, modullarga bo'lingan bo'ladi. lar qaysi modulga test savollari tuziladi. Ukuv jarayoni anik savollarga konkret javoblar topishga ko'rilgan bo'lib, savollar va javoblar o'zaro uzviy bog'liklikda bo'lishi natijasida bir butunlikni, ya'ni tizimini tashkil kiladi.

Pedagogik texnologiyani yaratish tamoyillarining **birinchisi**—muayyan dars, mavzu, kism, o'quv predmetidan kutilgan **asosiy maksadni** shakllantirib olish; **ikkinchisi**—umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmetini **modullarga ajratib**, xar bir moduldan kutilgan maksadni va modullar ichida xal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish; **uchinchisi**—modul ichida yechiladigan masalalarning xar biri buyicha **test savollarini** tuzib chiqish; **to'rtinchisi** —maqsadlar aniq bo'lib, test savollari tuzilgandan keyin, **maksadlarga yetish usullari tanlanib**, ularni ishlatadigan aniq joylarni belgilab olish.

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv paytida, avval aytib o'tganimizdek, tizimli yondashuv tamoyiliga binoan dars qismlari orasidagi zaruriy bog'likliklarga va fanlar aro aloqalarga aloxida e'tibor qaratiladi. Bu pedagogik texnologiyaning beshinchi tamoyili xisoblanadi.

## **O'kuv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishning usul va uslublari.**

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi – oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon xarakat qilishidadir. Kishi maqsadi sari qiladigan xarakati (faoliyati) jarayonida Maksudga etishda bir necha, goxo unlab-yuzlab tusiklarni engishga tugri keladi. Bu tusiklarni engish uchun tegishli usullar ma'lum bir tizimda kullaniladi.

### **Maksudga etishda kullaniladigan usullar tizimi uslub (yul) deyiladi.**

Usullarni ma'lum bir uslubda kullash jarayonida xar bir xarakat makomi muayyan maksud kursatkichlariga buysundiriladi. Undan tashkari, kishi maksudga etish jarayonida bir kator konuniyatlarga xam tamoyil sifatida amal kiladi.

**Kishi maksud sari kilgan xarakatida uning uchun tamoyil vazifasini bajaruvchi maksud kursatkichlari bilan xarakati davomida amal kilinishi shart bulgan konuniyatlar majmui metodologiya deyiladi.**

Xar bir shaxsni, ijtimoiy guruxni va butun jamiyatni eng umumiy, umumiy va xususiy maksadlari buladi, inchunin ularning eng umumiy, umumiy va xususiy metodologik asoslari mavjud.

**1. Jamiyat oldiga kuygan eng umumiy maksud kursatkichlari bilan falsafaning umumiy konuniyatlari xamma uchun eng umumiy metodologik asosdir.**

**2. Xar bir soxada mavjud maksud kursatkichlari bilan fakat shu soxada xukm suruvchi konuniyatlar shu soxada faoliyat kursatuvchilar uchun umumiy metodologik asos xisoblanadi.**

**3. Muayyan faoliyatning eng umumiy, umumiy maksud kursatkichlari va konuniyatlari bilan birga shu faoliyatning ichida kiska muddatli maksud kursatkichlari va tarmok konuniyatlari xam buladi. Ularga amal kilish xususiy metodologiya deyiladi.**

Odamlar faoliyat kursatish jarayonida uz ishlarini eng umumiy, umumiy va xususiy metodologiyalardan birday kelib chikkan xolda amalga oshiradilar.

Maqsad va uning kursatkichlari anik bulganidan keyin, unga etishish, ya'ni usullarining tizimi izlab topiladi va xarakat boshlanadi. Maksud kursatkichlari bilan xarakat paytida uz mavjudligini namoyon kiluvchi konuniyatlar yigindisi ushbu faoliyatning metodologik asosini, tamoyillar majmuini tashkil kiladi.

Xar kandy jamiyatning eng umumiy maksadi buladi. U milliy goya deyiladi.

**Pedagogik jarayonning umumiy metodologiyasi soxa oldiga kuygan maksud kursatkichlari bilan didaktikaning umumiy tamoyillaridir. Pedagogika soxasining umumiy maksadi jamiyatning eng umumiy maksadi, ya'ni goyasidan kelib chikib, uning ajralmas kismidir.**

Ta'limning umumiy maksadi xukukiy demokratik davlat xamda odil fukarolik jamiyatining talablariga javob beruvchi kishilarni tarbiyalab berishdan iborat.

Uzbekistonda erkin, ma'rifatli va demokratik davlat fukarolarining ijtimoiy sifatlariga kuyidagilar kiradi:

**aklli**–mustakil fikr yurita oladigan;

**odobli**-millatimiz tuplagan barcha fazilatlarga ega;

**mexnatsevar**-mexnat kishining ijtimoiy extiyojiga aylanganligi;

**bilimli**-diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni kup va chukur egallab olib, ularni xayotda kullay olishi;

**soglom**-jismoniy, ruxiy va ijtimoiy salomat;

**milliy gururga ega**-ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy merosini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga xissa kushuvchi;

**vatanparvar**-Vatan uchun, xalk uchun fidokorona mexnat kiluvchi, ularni muxofaza kila oluvchi va zarur bulsa, ular uchun jonini kurbon kiluvchi;

**baynalminal**-uz millati katorida boshka millatlarni xurmat kiluvchi;

**insonparvar**-inson zotiga fakat yaxshiliklar uylovchi va ular uchun ezgu ishlar kiluvchi;

**jasur va shijoatli**-xar bir ishga mardona kirishib, uni shijoat bilan oxiriga etkazuvchi.

Bu unta ijtimoiy sifatdan ta'lim soxasida faoliyat kursatayotgan xar bir inson ulardan umumiy metodologik asosi tarzida foydalanishi kerak. Bu umumsoxaviy metodologiyaning birinchi kismi xisoblanadi.

Umumiy metodologiyaning ikkinchi kismini xamma ukituvchi (pedagog)larga yaxshi tanish bulgan didaktika tamoyillari tashkil kiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi dikkatini berilayotgan bilimga karatib, uni jarayon oxirigacha saklab turish; xar bir bilimni ilmiy asoslab berish; bilim berishda ukuvchi (talaba)ning imkoniyati va yosh xususiyatidan kelib chikish; bilim berishda mumkin kadar kuprok kurgazmali vositalardan foydalanish; bilim berishda muntazamlik va davomiylikni saklash; ukuv jarayonini mexnat jarayoni bilan kushib olib borish; ta'lim va tarbiya jarayonida ukuvchi (talaba)larning faolliigi va ongliligini ta'minlash; ta'lim va tarbiyaning tizimli, izchil bulishi va uning birligi tamoyillari kiradi.

Xar bir faoliyatning eng umumiy, umumiy metodologik asoslari bilan bir katorda xususiy metodologiyasi xam mavjud. Bizning misolda, bu muayyan ukuv predmeti, muayyan mavzu va muayyan darslarni utishda kutilgan maksad kursatkichlari bilan pedagogik texnologiyaning bosh tamoyillari xisoblanadi.

Pedagogik jarayonda amal kilinishi shart bulgan uch turdagi metodologik asosni kurib chikdik. Ukuv jarayoni bilan shugullanuvchi xar bir ukituvchi (pedagog), tarbiyachi va boshkalar ushbu uch metodologik asosning xammasiga birday amal kilishi shart. Fakat shundagina ular kutilgan natijaga erishishi mumkin.

**Ta'lim-tarbiya uslub va usullari tugrisida umumiy ma'lumot.** Ta'lim uslubi-ukituvchi (pedagog) bilan ukuvchi (talaba)lar orasida bilim berish va uni olish maksadida amalga oshiriladigan uzaro alokalarini tizimga soluvchi pedagogik tadbirdir. Ta'lim faoliyatini tashkil kilish va amalga oshirish jarayoni uzatish, kabul kilish, anglash, esda saklash va amalda kullay olishni nazarda tutadi.

Ukitish usullari ukuv jarayonining asosiy kismi xisoblanadi. Tegishli usullarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bulmaydi.

Usullar bilimlarni uzatish va kabul kilish xarakteriga karab **suz orkali ifodalash, kurgazmali va amaliyg**abulinadi. Ta'lim mazmunini uzlashtirishda ukuvchi (talaba) larning bilim faoliyatiga munosib ravishda kuyidagi usullar: tushuntirish-illyustrativ (informatsion retseptiv), produktiv (maxsuldor),

muammoli bayon, xususiy kidirish yoki evristik xamda yarim tadjikot uslublari kullanilishi mumkin.

**Ta'limning ogzaki usullariga:** xikoya, ma'ruza, suxbat va boshkalar kiradi. Bu usullarni kullashda ukituvchi (pedagog)suz vositasida ukuv materialini bayon kiladi, tushuntiradi, ukuvchi (talaba)lar esa tinglash, eslab kolish orkali uni faol kabul kiladilar.

**Xikoya.** Ushbu usulda ukuvchi (talaba)larga beriladigan bilim mazmunini ogzaki bayon kilish kuzda tutiladi.

Xikoyaning bir necha turi mavjud: xikoya-mukaddima, xikoya-bayon, xikoya-xulosa. Birinchisining maksadi-ukuvchi (talaba)larni suxbat orkali yangi bilimni kabul kilishga tayyorlash. Xikoyaning bu turi bayonning nisbatan kiskaligi, yorkinligi, kizikarliligi va xissiyotga boyligi bilan ajralib turadi, yangi bilim olishga kizikish, uni faol uzlashtirishga extiyoj uygotadi.

**Xikoya-mukaddima** vaktida ukuvchi (talaba) faoliyatining vazifalari tugrisida tushunarli shaklda xabar beriladi.

**Xikoya-bayon** davrida ukituvchi (pedagog) yangi mavzu mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja asosida bilim berib, ichidan muximlarini ajratib, kurgazmali va ishonarli misollar bilan izchil bayon kilib beradi.

**Xikoya-xulosa**, odatda, mashgulotning oxirida keltiriladi. Ukituvchi (pedagog) ushbu usul orkali asosiy fikrni yakunlaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi. Mazkur mavzu yuzasidan mustakil ishlash uchun topshiriklar beradi.

Xikoya usulini kullashda muayyan pedagogik usullardan foydalaniladi. Bular: dikkatni faollashtirish, bayon kilish, takkoslash, asosiyilarini ajratish, yakunlash kabi mantikiy tadbirlardir. Xikoya samaradorligining shartlari: rejani kunt bilan uylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta'minlash, misol va kurgazmalarni muvaffakiyatli tanlash, bayonda kerakli emotsionallikka erishish.

**Suxbat** usuli atroflicha uylangan savollar yordamida ukituvchi (pedagog) bilan ukuvchi (talaba)larning fikrlash tizimini, yangi tushunchalar va konuniyatlarni uzlashtirishga olib keladi.

Suxbat usulini kullashda savollarni kuyish (asosiy, kushimcha, yulovchi va x.k.), ukuvchi (talaba)larning javob va muloxazalarini muxokama kilish, suxbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan joydalaniladi.

Savollar yaxshi kabul kilinishi uchun etarlicha xajmdor bulishi lozim.

Suxbat uslubi va unga tarkibiy kism bulib kiruvchi usullardan foydalanishda ukituvchi (pedagog)ning samimiyligi chexrasining ochikligi, ruxining kutarinkiligi etakchi urin egallaydi.

**Ta'limning kurgazmali usulini** shartli ravishda ikki katta guruxga bulish mumkin; kurgazmali va namoyish kilish usullari.

**Kurgazmali usuli**, ukuvchi (talaba)larga namoyish etiladigan kullanmalar-xarita, plakat, doskadagi chizma va rasmlar, alomalarning surati va boshkalarni kursatishni kuzda tutadi.

**Namoyish kilish usuli**, odatda, kurilma, asboblar, tajribalar, turli tipdagi apparatlarni namoyish kilish bilan boglik. Namoyish kilish usuliga, shuningdek, diafil'm, kinofil'm kursatishni xam kiritishgan. Kurgazmali usullarni kullashda

kuyidagi usullardan foydalaniladi; kursatish, yaxshi kurinishni ta'minlash, utkazilgan kursatuv, namoyish va xokazolar natijalarini muxokama kilish. Ukitish amaliyotiga shaffof plyonkada tayyorlangan rasm, chizmalar sinfni korongulashtirmasdan kursatuvchi LETI apparati, kodoskoplar va komp'yuterlar kirib keldi. Darslarda vatman kogoziga keng flamasterlar yordamida chizilgan, urganilayotgan narsa va xodisaning tadrijini birin-ketin ochib berish imkonini beruvchi chizma va suratlar kullanila boshlandi.

Ukuv kinosini kullash usuli ta'lim amaliyotida odatdagi xodisa bulib koldi.

Ukuv jarayonida fil'mlardan foydalanishga tayyorlanishda ukituvchi (pedagog) uni oldindan kurishi, namoyish kilish davomida ukuvchi (talaba)lar oldiga kuyiladigan asosiy savollarni tuzishi, tegishli laxzasida kursatiladigan parchalarni, savollarini tuzishi, aloxida parchalarning ajratishi lozim. Nixoyat, fil'm buyicha yakuniy suxbat rejasini belgilashi kerak.

SHunday kilib, suz va kurgazmalilik alokasining xilma-xil shakllari mavjud. Ularning birontasiga ustunlik berish xato bular edi, chunki ta'lim vazifasining uziga xos xususiyati, mavzuning mazmuni, mavjud kurgazmali vositalarning xarakteri, shuningdek ukuvchi (talaba)lar tayyorgarligi darajasidan kelib chikib, xar bir konkret xolatda ularning eng okilona kushiluvi tanlanadi.

**Amaliy uslublar** tarbiya faoliyatining xilma-xil turlari keng doirasini kamrab oladi. Amalda kuyidagi usullar kullaniladi: vazifa (maksad)ni kuyish, uni bajarish usulini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshkarish, taxlil kilish, kamchiliklar sababini aniklash, maksadga tulik erishish uchun ta'lim jarayoniga tuzatish kiritish.

Amaliy mashklarning konkret turlaridan biri mashkni sharxlash xisoblanadi. Uni bajarishda ukuvchi (talaba) bulajak xatti-xarakatini faol mushoxada kiladi, uziga uzi eshittirib gapiradi, bulajak vokeani sharxlaydi. Xarakatni sharxlash ukuvchi (talaba)ga uzining tipik xatosini anglashga va xarakatiga tuzatishlar kiritishiga kumaklashadi.

Amaliy tarbiya uslublarning ikkinchi guruxini laboratoriya tajribalari tashkil kiladi. SHuningdek, amaliy usullarga ustaxonalarda, ukuv-ishlab chikarish tsexlari, ukuvchi (talaba)lar brigadasida mexnat topshiriklarini bajarish xam kiradi. Bu topshiriklar ukuv-mashk xarakteriga ega bulishi mumkin.

Tarbiya uslublariga, shuningdek, ukuvchi (talaba)lar ovoz yozish va ovozni kayta ishlash apparatlari bilan bajaradigan ishlar xam kiritiladi.

Amaliy usullar tarbiyani suz orkali ifodalash va uni kurgazmali uslublar bilan mustaxkamlash jarayoni bilan chambarchas bogliklikda kullaniladi, mashk, tarbiya, mexnat operatsiyasini bajarishdan oldin ukituvchi (pedagog) tushuntirish beradi, kursatadi. Ogzaki tushuntirish va kurgazmani kursatish, odatda, mashkni bajarish jarayonining uzi bilan bir vaktida olib boriladi.

**Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarni faollashtirish.** Agar ta'lim-tarbiya jarayonlari ukuvchi (talaba)larda faol xarakat, bilim va kunikmalar orttirish ishtiyokini uygotsagina, bu jarayon samarali kechadi va sifatli natijalar beradi.

Ukuv faoliyatini bunday tashkil kilish uchun uning barcha usullari-ogzaki, kurgazmali, amaliy, reproduktiv, kidiruv, induktiv xamda deduktiv, shuningdek mustakil ish usullaridan foydalaniladi.

Bu jarayonda ukuv faoliyati, uning mazmuni, shakli va amalga oshirish usullariga bulgan munosabatda ijobiy xissiyotning yuzaga kelishini ta'minlash muximdir. SHuning uchun xam bunday xolatda diqqat, eslab kolish, anglash jarayonlariga ukuvchi (talaba) larning chukur ichki kechinmalari kushiladiki, bu jarayonni kizgin kechadigan kiladi va maksadga erishish ma'nosida ancha samarali buladi.

Ragbatlantirish usullaridan biri ayrim tabiat xodisalarini ukuvchi (talaba)larga avvaldan yaxshi ma'lum bulgan konuniyatlardan, ya'ni ilmiy nuktai nazardan kelib chikib tushuntirishdir.

Ukuv faoliyatiga kizikishning asosiy manbai, avvalo, uning mazmunidir. Bu mazmun kuchli ragbatlantiruvchi ta'sir kursatishi uchun ta'lim printsiplarining kator talablariga javob berishi lozim. Bunda ta'lim mazmunining ragbatlantiruvchi ta'sirini oshirishdagi ayrim maxsus usullar xam mavjuddir. SHu maksadda ukituvchi (pedagog) mamlakat jamoatchiligida aloxida kizikish uygotayotgan, vaktli matbuotda e'lon kilinayotgan, televidenie va radio orkali berilayotgan faktlar, rasmlarni maxsus tanlaydi.

Ta'limning ragbatlantirish va asoslash usullariga bilish baxsi xam kiradi. CHunki ukuv baxsi ukishga kizikishni ragbatlantiruvchi usul rolini uynaydi.

**Ukuvchi (talaba)larning ukuv jarayoni davridagi burch va mas'uliyati.** Ukuvchi (talaba)larning ukishdagi burch va mas'uliyati butun bir gurux usullarni kullash natijasida shakllanadi. Ukuvchi (talaba)larga bilimning ijtimoiy va shaxsiy axamiyatini tushuntirish, ularni bajarishga urgatish, uz majburiyatlarini muvaffakiyatli, vijdonan bajarganliklari uchun takdirlash, topshiriklar bajarilishini nazorat kilish va zarurat tugilgan xollarda, ukishga mas'uliyat bilan yondashishdagi kamchiliklarni kursatish, tanbex berish shular jumlasiga kiradi. SHuni aloxida ta'kidlash lozimki, ukishda burch va mas'uliyatni shakllantirish ta'lim va tarbiya jarayonining birligini takozo etadi.

Ukuvchi (talaba)larga kuyiladigan talablar axlok koidalari, fanlar buyicha bilimni baxolash mezonlari, ichki tartib-koidalar, umumta'lim maktab, akademik litsey, kollej va oliy ukuv yurti nizomlari bilan belgilanadi. SHuni unutmashlik kerakki, ukuv mas'uliyatini ragbatlantirish ukuvchi (talaba)larga kuyiladigan talablarni bajarishga urgatish usullari bilan birgalikda olib borilishi shart, chunki bunday kunikmalarning bulmasligi intizomning buzilishiga va koloklikning kelib chikishiga sabab bulishi mumkin.

#### **Axborot texnologiyalarining ta'limdagi urni.**

Xozirgi zamon yoshlarini fan asoslari bilan kurollantirishda, ukitishning ilgor pedagogikaviy texnologiyalari yutuklari asosida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim tugrisidagi konun» talablarini bajarish maksadida ularning akliy tafakkurlarini yukori darajada rivojlantirishga erishish umumiy ta'lim maktablari oldidagi eng muxim vazifalardan biridir.

Bu maksadni amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlash milliy dasturida «Ukuv-tarbiyaviy jarayonini ilgor pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» uning ikkinchi va uchinchi boskichlarida bajariladigan asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanadi. Bunga sabab:



1. Axoli ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirishning birdan-bir yuli eng ilgor pedagog tadbirlardan foydalanish.

2. Fan va texnika tarakkiyotining uta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin kupayib borayotganligini va ularni yoshlar ongiga tula-tukis sindirish va yoshlarni xayot talablariga javob beradigan xolda tayyorlash uchun vaktning kamligi va boshkalar.

Bu maksadga erishish uchun tarakkiy etgan mamlakatlarda muvaffakiyat bilan kullanib kelayotgan pedagogik texnologiyalarni xamda xalkimizning boy milliy ta'lim manbalaridan foydalanib Uzbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish zarur.

Bu muammoni echishdagi tezkor usullardan eng kulayi va xar tomonlama zaruriy ma'lumotlarni kiska vaktida tuplash, takkoshlash, sintez kilish va ularning eng muximlarini ajratib olishga imkon beruvchilari elektron kutubxonalar, telekonferentsiyalar va internetdan foydalanish xisoblanadi.

Internet xozirgi kunda axborot texnologiyalari tizimining ajralmas kismi bulib, undagi asosiy bugin bu uzaro bir-biri bilan boglangan komp'yuterlardir. Komp'yuterlar aloka vositalaridan farkli ularok, foydalanuvchiga ma'lumotni kurish, ukish va eshitish asosida ma'lumotdan unumli foydalanishga imkon yaratadi. Bundan tashkari unda ma'lumotni uzatish, kabul kilish tezligi uta yukoridir.

Ma'lumki, internetga ulanish modem orkali amalga oshiriladi. Modem, uz navbatida, abonentga internet xizmatini kursatuvchi pravayder orkali mavjud telefon tarmogiga ulanadi, bu esa internetning xar bir xonadonga yakin orada kirib kelishini ta'minlaydi. Bu xakda vatandoshimiz Zokirjon Furkatning 1896 yilda Sankt-Peterburgda bulganida Popov tomonidan kursatilgan ixtironing taassuroti natijasida yozgan etti misrali she'rini eslash joiz, «Bu ixtiro shunday olamshumul axamiyatga egaki, yakin kelajakda shu erdan turib, fargonalik suxbatdoshim bilan xam kurib, xam gaplashishga muyassar bulaman».

SHu bilan birga, ishlab chikarishdagi kuplab yosh mutaxassislarning malakalanini, iloji boricha, tez va soz oshirishga imkon beruvchi pedagogikaviy usullardan biri masofadan ukitishni yulga kuyish xam bu kundagi dolzarb muammolardan xisoblanadi, chunki kuplab mamlakatlarda ukitishning turli xil usullaridan va barcha xozirgi zamon telekommunikatsiyaviy texnologiyalardan foydalanib masofadan ukitish amalga oshiriladi. Bu esa juda kuplab talabalar va talabgorlarni bir vaktida eng sunggi va dolzarb muammolar bilan kurollantirishga imkon beradi. Bu ularni ta'limning muxim kismalaridan bulgan mustakil ishlashga urgatishni ta'minlashga olib boruvchi usuldan iborat.

Kuplab mamlakatlarda masofadan ukitishda darsni tashkil kilishning turli usullaridan va talabalar kontengentining anik maksad va talablaridan kelib chikkan xolda zamonaviy telekommunikatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Masofadan ukitishning birinchi navbatdagisi sirtdan ukuvchi talabalar va malakasini oshirish zarur bulgan texnik xodimlar uchun amalga oshirilishi bugungi kundagi eng dolzarb muammodan iborat.

Masofadan ukitishni amalga oshirishda birinchi asosiy va zaruriy muammolardan biri uzatiladigan darsning xar tomonlama tarixiy, ilmiy, amaliy

muammoli va nixoyat, etarlicha kurgazmali xamda u yoki bu xodisa, konun yoki texnologik jarayonga boglik bulgan va uning mazmunini tuldiruvchi anik va tushunarli ilovalar, kurgazmalar bilan tuldirilgan bulishi shart.

Ikkinchidan, uzatiladigan ma'lumotning ilmiy axamiyatli kismlarini etarli darajada soddadan murakkabga karab tushuntirish metodikasidan tizimli foydalanilgan xolda amalga oshirilishi zarur.

Uchinchidan, uzatiladigan kursning dasturiy ta'minoti shu kursning ilmiy va amaliy axamiyatli larlni va ishlatilish soxalarini xar tomonlama yaxshi biladigan kup yillik pedagogik tajribaga ega bulgan mutaxassis tomonidan ishlab chikilgan bulishi kerak.

Turtinchidan, uzatiladigan kursning stsenariysi shu kurs yoki unga yakin kurslar buyicha katta pedagogik maxoratga ega bulgan muallim-dotsent yoki professor tomonidan yozilishi shart. Bunga sabab katta pedagogik maxorat egasi uzining uzok yillik tajribasi asosida talabaga kurinmaydigan va savol- javoblarni eshita olmagan talabaga tushunarli buladigan va uning bilim darajasiga mos xamda talaba uchun zarur bulgan ma'lumotlarni soddarok xolda kelishtirish maksadga muvofik. Bundan tashkari, bu ma'ruzaning axamiyatini ochib beruvchi va talabaning esiga yaxshi saklanib koluvchi misollar bilan boyitilgan bulishi zarur. Bir suz bilan aytganda, stsenariyniing eng ilgor texnologiya asosida katta pedagogik maxorat egasi tomonidan tayyorlanishi maksadga muvofikdir.

Bundan tashkari, zamonaviy ma'ruzalar matnlarini tayyorlashda albatta «Ikki daryo oraligi » da yashab utgan buyuk allomalarning ugitlaridan foydalanish asosida kutilgan maksadga erishish mumkin. Xususan ta'lim tarbiya maksadining asosini tashkil kilgan Abu Nosr Forobiyning ta'lim tugrisidagi asarlarini eslab utish joizdir. Forobiy uz zamonasidagi barcha soxadagi ilmlarni mukammal bilganligi, yunon falsafasini ta'riflab dunyoga keng tanilganligi tufayli (160 dan ortik asar yaratgan) SHark mamlakatlarida «Ikkinchi muallim», SHark Arastusi nomiga muyassar buldi. Forobiyning «masalalar manbai», «kattalarning akli xakida suz», «yoshlarning akli xakida suz», «ilmlarning kelib chikishi va tasnifi», «fazilatli xulklar» va xokazo. Forobiyning yaratgan asarlari, risolalari bugungi avlod uchun bir buyuk maktabdir. U ta'lim-tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanalib, ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi-jamiyat talablariga javob beraoladigan, shu jamiyat uchun xizmat kiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat, deb biladi.

Kupchilik mutafakkirlar katori Al-Xorazmiy xam bilim berishning kurgazmali tajriba usullari, savol javob, malaka va kunikmalarni shakllantirsh, bilimlarni sinash usullaridan foydalangan.

Masalan, Xorazmiyning arifmetikaga oid risolasi uning tafakkurini rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berganligini kursatadi.

Xorazmiy sinov-kuzatish va sinov usullariga asos soldi, zamonaviy jismlarning xarakterini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarni algoritm usulida echishni ishlab chikib, bilish nazariyasiga ulkan xissa kushdi.

**«Ta'lim» degan suz-insonni ukitish,** tushuntirish asosida bilim berish; tarbiyaning nazariy fazilatlarini, ma'lum xunarni egallash uchun zarur bulgan xulk normalarini va amaliy malakalarini urgatishdir, deydi.

Forobiy fikricha, Er yuzida fakat inson bilish kobilyatiga ega. Xakikatni bilish esa, insonning tabiiy rivojlanish xolatidan biridir. Biri, tabiatdan berilgan xususiyatlar, ikkinchisi,uz xoxish va ixtiyori bilan ta'lim- tarbiya olkali orttirilgan xususiyatdir. Ma'rifat-tarbiyalanuvchining xoxish irodasini kerakli yunalishga boshkarish san'tidir, deydi Forobiy.

Forobiy bilimni yod olish usuliga nisbatan uning ma'nosini tushuntirish afzalligi, ta'limning muvaffakiyatli kechishi uchun tarbiya beruvchining uzi tarbiyali bulmogi lozim.

Urta asr ijtimoiy tarakkiyoti buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan boklik bulib, uning inson kamoloti xakidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya soxasida katta axamiyatga ega.

Abu Rayxon Beruniy ta'lim- tarbiya soxasida usha zamonlarda (X-XI asrlar), xatto xozirgi kunda xam dolzarbligini yukotmagan fikrlarni ilgari suradi. U ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchini zeriktirmaslik, bilim berishda bir xil narsalarni urgatavermaslik, uzviylik, izchillik, mavzularni kizikarli asoslab, kurgazmali bayon etish zarurligini uktirgan.

### **«Innovatsion texnologiya»lar tushunchasi**

SHu vaqttacha an'anaviy ta'limda talaba (yoki o'kuvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul talaba (yoki o'quvchi)larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talaba (yoki o'quvchi)lar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalaiishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayoiida talaba (yoki o'quvchi) asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog - olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida

*Nega o'qitamiz?*

*Nimani o'qitamiz?*

*Qanday o'qitamiz?*

savollariga javob izlash bilan bir qatorda

*Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin?* - degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini *texnologiyalashtirishga*, ya'ni o'qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bunday fikrning tug'ilishi *pedagogika faiida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini* yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-garbiyaviy jarayonida pedagogik- texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor

berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

*Birinchi*dan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

*Ikkinchi*dan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

*Uchinchi*dan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

*To'rtinchi*dan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yo'q maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (yoki o'quvchi)dan Ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talaba (yoki o'quvchi)ni kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o'quvchi)larni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol («inter» - bu o'zaro, «act» - harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyatlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilgan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega

bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talaba (yoki o'quvchi)larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talaba (yoki o'quvchi)larning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga: talaba (yoki o'quvchi)ning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

talaba (yoki o'quvchi)larning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlanishi;

- talaba (yoki o'quvchi)larning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

- pedagog va talaba (yoki o'quvchi)larning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, *pedagogik texnologiya* - faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proektor yoki boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning asosiy negizi - o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'lik. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talaba (yoki o'quvchi)lar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bupday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu - o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talaba (yoki o'quvchi)ning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratshgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talaba (yoki o'quvchi)larning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)larga bog'liq.

Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, talaba (yoki o'quvchi)larning imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, talaba (yoki o'quvchi)ni ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

*2-savolga javob:*

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga ega, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talaba-o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Darsning texnologik xaritasini, zavodga tuproq shaklidagi chinni xom-ashyoni topib kelishdan tayyor piyolagacha bo'ladigan barcha texnologik jarayonlar ssenariysiga qiyoslash mumkin.

Texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogik, psixologik, xususiy metodika va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsning rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Darsning texnologik xaritasini qanday shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchini darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topgan bo'ladi.

Quyida huquqshunoslik fanidan "Otalikni belgilash" mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasini misol tariqasida keltirilgan:

**Texnologik xarita**

Mavzu	Otalikni belgilash
Maqsad, vazifalar	Talabalarga otalikni belgilashning mohiyati, ahamiyati, asoslari va tartibini tushuntirish. Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	Bolaning nasl-nasabini belgilash tushunchasi. Otalikni belgilash zarurati qaysi hollarda vujudga kelishi. Otalikni belgilashning maqsadi va ahamiyati. Ota-onaning birgalikdagi arizasi asosida otalikni belgilash. Otaning

	arizasi asosida otalikni belgilash. Otalikni belgilash munosabati bilan tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftariga o'zgartirishlar kiritish.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metod: Og'zaki bayon qilish, suhbat–munozara. “Bumerang” texnologiyasi. Forma: Amaliy mashg'ulot, kichik guruhlarda va jamoada ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar: matnlar, ariza, ma'lumotnoma, habarnoma blankalari. Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida Nazorat: Og'zaki nazorat, savol–javoblar, kuzatish, o'z – o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli sistema asosida.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: - Mavzu qisqa vaqt ichida barcha talaba-o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishiladi. Talaba-o'quvchilar faolligini oshiradi. Talaba-o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir vaqtning o'zida ko'pchilik talabalarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchi – talaba: YAngi bilimlarni egallaydi. YAkka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutq rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z–o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.
Kelgusi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi – talaba: Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganish. O'z fikrini ravon bayon qila olish. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topish, ularni o'rganish. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qilish

Texnologik xaritaning o'quvchi–talabaning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqadi. Bu esa o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

O'qitish jarayonida o'quvchi–talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogik va o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llanilishini taqozo etadi. Ular juda xilma-xil bo'lib, biz ulardan ba'zilar xaqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida uslubiy ko'rsatma beramiz. Ushbu metodik ko'rsatmada keltirilgan zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talaba-o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ushbu metodik ko'rsatmadan foydalanuvchilar o'quv jarayonini tashkil etish uchun havola etilgan texnologiya treninglarni xuddi shu tartibda o'tkazishlari shart emas, xar qaysi o'qituvchi bu terininglarning umumiy shaklini olgan holda o'zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan tereninglarning to'liq yoki ularning ba'zi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishlari mumkin.

### **3-savolga javob:**

Interfaol usul nima? An'anaviy ta'limda **«nimani, qachon vaqaerda»** muammolariga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, zamonaviy **hamkorlikka asoslangan ta'lim** texnologiyalarida **«qanday qilib o'rgatish kerak?»** degan muammo muhim o'rinni egallaydi.

Ta'lim jarayonida o'rgatuvchi va o'rganuvchilar hissasining nisbati insoniyat taraqqiyotining (tsivilizatsiyaning) turli davrlarida turlicha bo'lgan. Bir vaqtlar ta'lim beruvchilar etakchi bo'lgan bo'lsa, ma'lum davrlarda ta'lim oluvchilar tashabbuskor bo'lishgan va bunday faolliklarning ijobiy va salbiy jihatlari tadqiq etilgan. Keyingi o'n yilliklarda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan ta'lim texnologiyalari jadallik bilan rivojlanmoqda va ommalashmoqda. Pedagoglar bunday ta'lim texnologiyalarini «hamkorlik pedagogikasi» deb atashmoqda. Bunday hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalari AQSH, YAponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilib, yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Bunday ta'lim texnologiyalaridan biri interfaol o'qitish metodlariga asoslangan. «Inter» so'zi lotincha bo'lib, o'zbekcha «oraliq», «o'rtasi», «o'zaro» kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro faollikka asoslangan hamkorlik ekan. Tabiiyki interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim tizimidagi o'zaro faol usullar (metodlar)dan tarkib topadi.

Hamkorlikka asoslangan, talaba-o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan, talaba-o'quvchilarni boshqalarning fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgalar manfaatlari bilan hisoblashish, ulardan o'rganish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning «men»ligini sezish, his qilish, o'zini boshqarish, fikrini lo'nda va aniq bayon qila olishga o'rgatishga qaratilgan «interfaol» o'qitish usullari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ijobiy samara bermoqda. Interfaol usullar guruhdagi kichik guruxlar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib, talaba-o'quvchilarni xarakatchanlikka boshlab, ruxlantiradi, natijada



o'quvchilar hamkorlikka o'rgana boshlaydilar. Har qanday interfaol usul to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llanilganida o'rganuvchilarni mustakil fikrlashga o'rgatadi.

Interfaol usullarda muammoli, hayotiy vaziyatlardan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Baxsli, muammoli vaziyat–insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog'liq bo'lib qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Baxsli, muammoli vaziyatlar talaba-o'quvchilarning aqliy kuchini zo'riqtiradi, vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidira boshlaydi. Qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Odam muammo bilan yuzma-yuz (to'qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O'zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlab, saviyasiga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi.

Talaba-o'quvchilar o'zlari bajargan, topshiriqlarni qanday qilib bajarganligini aytib, tushuntirib bera olishlari lozim. Qanday o'ylagani, fikrlagani haqida gapirib bera olishlari kerak. Muammoni hal qilish jarayonidagi tushunmay qolgan o'rinlarini o'z so'zlari bilan ifodalab bera olishi, o'rgatuvchi uchun juda muhimdir.

Talaba-o'quvchilarni ma'lumotlar bilan faol ishlashga o'rgatuvchi usullarni interaktiv metodlar deyiladi.

## **VERBAL MULOQOT SHAKLLARI MA'RUZALARNI FAOL USULDA O'TKAZISH**

Har qanday yuqori saviyada o'tkazilgan ma'ruza, garchand u faktlarga boy bo'lsa ham, agar uzoq vaqt davom etsa, o'quvchi-talabalarning eshitish qobiliyati susayadi va charchaydi. SHuning uchun yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan ma'ruzalar samarali bo'ladi. Ma'ruzachi o'z ma'ruzasini bir necha bloklarga bo'ladi. Har blokni 15-20 minut davom ettiradi va har bir blokdan so'ng to'xtab, savol-javob o'tkaziladi.

Ma'ruza davomida ayrim muammolarni o'rtaga tashlaydi. SHu vaqt oralig'ida bu muammoga talaba-o'quvchilarning munosabatini aniqlaydi, ularning fikrlarini tinglaydi. Har bir fikr bildiruvchiga imkoniyat yaratadi. Uning fikri diqqat bilan tinglanadi. Ammo uni tanqid ostiga olmay, boshqalarning fikrlari tinglanadi. Bu holat ma'ruzaga nisbatan bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi, ma'ruzaga befarq qaramaslikka sabab bo'ladi. Talaba-o'quvchilarni suhbatga tortish 5 minut davom etadi.

Ma'ruzachi talaba-o'quvchilarning qiziqish, intilish, mas'uliyati oshib borishni kuzatib boradi. Ma'ruzani davom ettiradi va shu hol takrorlanadi. SHu davr ichida doimo faol ishtirok etuvchilar, teran fikr bildiruvchilar ma'ruzachining tayanchiga aylanadi.

Ma'ruza davomida mavzuni sekin-asta talaba-o'quvchining kundalik faoliyatiga bog'lash boshlanadi, asta-sekin ularga ham qisqa munozaralar asosida javob topiladi.

SHu holda kechgan ma'ruzalarda talaba-o'quvchilar vaqt qanday o'tib ketganini bilmay qoladilar. Ma'ruzaning yana davom etishini xohlab, befarqlik

o'rmini hushyorlik, ichki intilish, echim qidirish egallaydi, o'zlari ham echimni topishda shaxsan ishtirok etishga hissa qo'shishga intiladilar.

Bunday ma'ruzalar har ikki tomonning o'zaro faolligini oshiradi. Navbatdagi munozaralarga chorlaydi. Talaba-o'quvchilar bunday ma'ruzada ishtirok etar ekanlar, qolgan ma'ruzalar yana davom etishini ustoz bilan yana qachon uchrashishlarini istab qoladilar.

## **NOVERBAL VOSITALAR**

Noverbal vositalari mimika, qo'l, gavda harakatlari orqali biror ma'no-mazmunni ifodalash yoki ta'kidlashdan iborat. Noverbal vositalar jiddiy ahamiyatga ega bo'lib, ularning o'rni boshqa narsa bosa olmaydi. Insonning har bir harakati ma'lum ma'noga ega bo'lib, bu harakatlarni turli xalqlarda turlicha tushuniladi. Bu harakatlarni noverbal nutq deb nomlash qabul qilingan. Noverbal nutq insonning u yoki bu muskullari harakati, shu jumladan, uning fikrlashi ham undagi ma'lum muskullar harakatidan iborat ekanligini eslatib o'tish maqsadga muvofiq. Bir imo-ishora qilib qo'yishning ta'siri gapirgandan ko'ra kuchli bo'lishi hech kimga sir emas.

## **VIZUAL VOSITALAR**

Vizual (ko'rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayonida talaba-o'quvchilar ko'z bilan ko'rishlari uchun mo'ljallangan barcha vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga sinf doskasidagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, o'quv plakatlari, foto suratlar, tasviriy san'at asarlari, video, kino tasvirlar, jonivorlar, o'simliklar, tabiat ob'ektlari, turli buyumlar va boshqalar kiradi.

Ko'rgazmali vositalarning pedagogik texnologiyada qo'llanilishi talaba-o'quvchilarga o'rgatish kerak bo'lgan axborotga tegishli mazmunni turli shakl va usullarda ko'rsatish orqali tez, aniq va to'g'ri tushuntirish imkoniyatini beradi.

## **AUDIO VOSITALAR**

Audio vositalar eshitish orqali axborotni o'rganish, o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Hozirda ko'proq audiovizual vositalar, ya'ni bir vaqtda eshitish va ko'rishga xizmat qiluvchi vositalar: kino va boshqa ovozli video tasvirlardan foydalaniladi.

Aslida esa amaliyotda mavjud sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda, ijodiy yondashuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yaxshi samara berishi mumkin.

## **TABIY VOSITALAR**

Tabiiy vositalarga pedagogik texnologiya jarayonida o'rganish ko'zda tutilgan mazmunga tegishli barcha tabiiy narsalar kiradi. Bular odam va jonivorlar, o'simliklar va tabiat, asbob-uskunalar, buyumlar, mashinalar, mexanizmlar, inshootlar va shu kabilardan iborat.

Talaba-o'quvchi va o'qituvchi uchun zarur o'quv anjomlari hamda maktab jihozlari pedagogik texnologiyaning zarur vositalari hisoblanadi.

Umuman pedagogik texnologiyaning sifati va samaradorligi hozirgi kunda ko'p jihatdan barcha turdagi zarur vositalarning sifati va ulardan yuqori samaradorlik bilan foydalana bilishga bog'liq. Bu vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish o'qituvchining malaka, mahorat, ijodkorligi, izlanuvchanligiga bog'liq.

## INTERFAOL DARS ISHLANMASINING SXEMASI

*Mayda guruhchalarda ishlash:*

1. Turli usullar yordamida guruh mayda guruhchalarga (4-5 ta) ajratilib, har bir kichik guruh o'zining boshlig'ini saylaydi.

2. Mavzu va uning maqsadi, asosiy muammosi aniq qo'yiladi.

3. Muammo bo'yicha quyidagicha fikrlar bo'roni tashkil etiladi:

a). Mustaqil ravishda daftarga javoblar ro'yxati tuzish.

b). O'zaro juftlikda (yonma-yon o'tirganlar) bir-birining tuzgan ro'yxati bilan tanishib, qo'shimchalar kiritish.

v). Guruhchalarda ro'yxatlarni umumlashtirish, muhokama etish, tahlil qilish, sintez qilish, toifalash, umumiy bitta xulosaga kelish.

g). Guruhlarning sardorlari navbat bilan ro'yxatlarni o'qib

berish, takrorlanmagan yangi fikrlar bilan ro'yxatlarni to'ldirib, doskaga o'qituvchi bitta umumiy fikrlar (tushunchalar) «shoda»si tuzadi.

4. Tuzilgan «SHoda»ga o'qituvchi tomonidan qo'shimchalar kiritiladi. 5. O'qituvchi yordamida «shoda» elementlari sharhlanadi va toifalarga ajratiladi. 6. Mustahkamlash uchun tadbir o'tkazilib va uyga vazifa beriladi. 7. Xulosa.



Eslatma: dars mumkin .

Ўй вазифаси учун топшириқлар

Namuna sifatida keltirilmoqda:

-auditoriyaning doska osilgan tomonida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish uchun maxsus ekran yoki oppoq devorda etarli darajada bo'sh joy bo'lishi kerak;

-o'qituvchi stoliga oldi bilan tirab bir parta qo'yiladi. Bundan ekspertlar, sardorlar, konsul'tatsiya olishga, uy vazifasini yoki boshqa nazoratlarini topshirishga kelgan talaba-o'quvchilar bilan suhbatlashishda foydalaniladi;

-xonadagi boshqa har ikki parta bir-biriga oldi bilan tirab qo'yiladi. Oqibatda to'rt talaba-o'quvchi bir-birlariga yuzma-yuz o'tirishadigan, doskaga yon tomonlaridan qaraydigan bo'lishadilar. Partalari yonma-yon turgan ikki kichik guruh birlashtirilib 8 talabadan iborat kichik guruhlar hosil qilish mumkin. Bunda o'qituvchi mehnati ikki marta qisqarib, talabalarning hamkorlikda ishlashlari yanada kuchayadi. Natijada butun o'quv yili davomida doimiy ravishda hamkorlikda ishlaydigan kichik guruhlar shakllanadi;

-har bir kichik guruhda kamida bitta yaxshi o'zlashtiruvchi talaba-o'quvchi (sardor, ekspert) bo'lishi kerak;

-sardorlar bir-birlari va o'qituvchi-trener bilan maslahatlashishga borishlari uchun partalarning qulay tomonida o'tirganlari ma'qul;

-o'qituvchi taklif etmagan holda uning huzuriga konsul'tatsiya uchun faqat bir talabaning kelishiga ruxsat etiladi;

-bunday darsda bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun, aqliy hujum, sinektika, nima uchun kabi texnologiyalardan kompleks foydalanish kerak;

-yangi pedagogik texnologiyalardan har darsda sistematik foydalanilmasa kutilgan natijani bermaydi;

-o'qituvchi-trener masala sharti va echimini ekranga tushirib tushuntirgach, shunga o'xshash bir xil topshiriqni barcha kichik guruhlariga hamkorlikda bajarishlari taklif etiladi;

-ekranga tushirilgan masala sharti va echimini tushuntirish jarayonida aqliy hujum, sinektika, nima uchun kabi interfaol metodlardan foydalanish qulay va yaxshi samara beradi. Bunda talaba-o'quvchilarga noto'g'ri bo'lsada o'z fikrlarini bildirishlari, qo'rqmasliklari, har qanday noo'rin fikrlarga ham tanqidiy munosabat bildirilmasligi oldindan aytilishi kerak. Talaba-o'quvchini, umuman bolani fikrlashdan to'xtatish jamiyat taraqqiyoti oldiga to'siq qo'yish bilan barobar;

-o'qituvchi talaba-o'quvchilardan navbatdagi dars mavzusiga doir nazariy materiallarni uyda o'rganib kelishlarini qat'iy talab etishi zarur;

-topshiriqni bajara olmagan ayrim kichik guruh sardorlarining boshqa kichik guruhlardan va o'qituvchi-trenerdan yordam olishlariga ruxsat etiladi;

-agar bitta kichik guruh ishni bajara olmasa, kuchli sardorlardan birining ularga yordam berishi uyushtiriladi;

-topshiriq birorta ham kichik guruh tomonidan bajarilmasa, oldin o'rgatilgan masala echimi yana ekranga chiqarilib, o'qituvchi-trener tomonidan qayta tushuntiriladi. SHu tartibda talaba-o'quvchilar hamkorlikda mustaqil ishlashga o'rgatiladi;

-sardor sust o'zlashtiruvchi sheriklarining o'z imkoniyatlari darajasida o'qishlariga mas'ul;

-sust o'zlashtiruvchi talaba-o'quvchilar o'qituvchi-trener va sardorlarning doimiy e'tiborida va ko'magida bo'lishlari, ularning har qanday kichik muvaffaqiyatlari rag'batlantirilishi zarur;

-qo'yilgan topshiriqning qaysi kichik guruh sardori tomonidan birinchi bajarilganligi, qaysi sardorning boshqa kichik guruhlar sardorlariga necha marta yordam berganligi belgilangan bir talaba tomonidan yozib boriladi. Bu yozuvlar va o'qituvchining shaxsiy kuzatishlari natijalari bo'yicha kichik guruhlar va sardorlar rag'batlantiriladi.

O'quv rejasi bo'yicha ikkinchi mashg'ulotdan so'ng auditoriyadan chiqishni xohlashmasdan o'qituvchisini o'rab olishib yaxshi dars uchun minnatdorchilik bildirayotgan Samarqand QXI «Iqtisodiyot va boshqaruv» fakul'tetining 104-eksperimental guruhida 2008 yilning 23 yanvar kuni yuqorida yozilgan tartibda, 103-xonada o'tkazilgan interfaol darsdan keyingi talabalar fikrlari: darsga to'ymay qoldik; matematikani dars jadvaliga har kuni qo'ysa bo'lmaydimi; darsni 90 minutga uzaytirish mumkin emasmi; kelgusi haftagacha darsni sog'inib ketamiz; bunday chiroyli auditoriya hech joyda yo'q; hamma o'qituvchilarimizning shunday dars o'tishini xohlardik. O'qituvchi uchun bundan ortiq hurmat bo'lishi mumkin emas. Bu mehnatimiz samarasi.

## INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN NAMUNALAR.

### AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum metodidan ham lektsiya, ham amaliy darslarda foydalanish qulay. Bu metod bir zumda auditoriyadagi barcha o'quvchi-talabalarni qamrab olib ularni aktiv holatga keltiradi.

YAXlit mavzu, uning bir qismi yoki tanlab olingan muammo yuzasidan o'quvchi-talabalarga beriladigan savollar majmuasi o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan bo'lishi ishda yaxshi natija beradi.

Aqliy hujum metodi qo'yilgan muammo echimiga bog'liq ravishda 5-10 daqiqa davom etishi mumkin. Bunda o'quvchi-talabalarning berayotgan javoblariga na o'qituvchining va na boshqalarning aralashuviga, har qanday fikr bildirishlariga yo'l qo'yilmaydi va natijalar baholanmaydi, ballar qo'yilmaydi. Bu qoida ko'pincha o'qituvchi tomonidan avtomatik tarzda buziladi, ya'ni talaba-o'quvchi bildirgan noto'g'ri fikrga tezda o'z munosabatini bildirib to'g'rilaydi. Bu vaziyat talaba-o'quvchilarni fikrlashdan to'xtatadi, darsda foydalanilayotgan aqliy hujum metodiga putur etkazadi. Maqsad: noto'g'ri bo'lsada o'quvchi-talabaning o'z fikrini bildirishiga erishishdan iborat. O'qituvchi umumlashtirishdan so'ng bildirilgan fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riligi har bir talabaga ma'lum bo'ladi.

Talabalarining fikr yuritishlari o'qituvchi tomonidan to'g'ri yo'lga solib turiladi va rag'batlantirilib boriladi. Vaqti-vaqti bilan fikrlar umumlashtirib turiladi.

Muammoning echimi bo'yicha fikrlar shakllanib bo'lgach u oxirgi marta umumlashtiriladi va aniq fikrga kelinadi. SHundan keyin talabalar o'zlarining takliflarini o'zlari solishtirib, to'g'ri va xato fikrlarini anglab etishadilar va o'zlarini o'zlari baholaydilar. Ammo o'qituvchining ularga baho yoki tanbeh berishiga yo'l qo'yilmaydi.

### BUMERANG TEXNOLOGIYASI

Otilgan buyumning otuvchiga qaytib kelishini ta'minlovchi o'roqsimon otish quroliga bumerang deyiladi. Ta'limda bumerang metodining ma'nosi pedagog tomonidan tashlangan muammoli masala yoki mavzuning talaba-o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan holda o'qituvchiga og'zaki yoki yozma shaklda qaytishidan iborat.

1. Darsda o'rganiladigan mavzuning rejasida 4 ta mavzucha bo'lsa, auditoriyadagi talabalar ham 4 guruhga ajratiladi. Rejadagi birinchi mavzucha o'qituvchi tomonidan tayyorlangan javoblari bilan birinchi guruh talaba-o'quvchilarining har biriga taqdim etiladi. SHu tariqa rejadagi boshqa mavzuchalar ham javoblari bilan birgalikda o'ziga mos nomerdagi guruhlarining talaba-o'quvchilariga taqdim etiladi. Har bir guruhdagi talabalar o'zlariga javoblari bilan taqdim etilgan bitta mavzuchani o'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda o'rganib chiqishadilar.

2. SHundan keyin 4 guruh talaba-o'quvchilari aralashtirilib, YAngi tarkibdagi 4 guruh tashkil etiladi. Bu yangi guruhlarining har birida dastlabki 4 guruhlarining barchasidan bir nechtadan talaba-o'quvchilarning ishtirok etishiga erishiladi. Natijada butun o'quv materialini yaxlit jamoa bo'lib o'rganish imkoniyati tug'iladi. Muhimi, talaba-o'quvchilarda o'quv materialini mustaqil o'rganish, hamkorlikda ishlash, bilganlarini boshqalarga tushuntira bilish ko'nikma va malakalari shakllanadi.

3. O'qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda mavzuni jamoa bo'lib o'rganish yakunlangach, talaba-o'quvchilar dastlabki guruhlariga qaytishadi va savol-javoblar boshlanadi. O'qituvchining tashkilotchiligi asosida savollar boshqa guruhlar tomonidan bitta jamoaga beriladi. Jamoa ichidan o'zlari tanlagan bir talaba-o'quvchi sheriklarining to'plagan ballarini yozib, jamlab, natijalarini o'qituvchiga topshiradi. Barcha guruhlar shu tarzda savol-javobdan o'tkaziladi. Bunda qo'yilgan savolga to'g'ri javob bergan talaba-o'quvchiga 3 ball, to'g'ri qo'shimcha qilganga 2 ball, to'g'ri replika qilganga 1 ball, umuman fikr bildirmaganga 0 ball qo'yiladi.

4. Har bir guruh mavzu bo'yicha o'zlari bittadan savol tuzib, unga javob berishni boshqa jamoalarga taklif etadi. To'g'ri javob bergan jamoaning umumiy baliga 3 ball qo'shib, boshqalarga 0 ball qo'yiladi. Hech kim javob bera olmasa, savolni tuzgan jamoaning o'zi javob bersa, ularning umumiy baliga 3 ball qo'shib qo'yiladi.

5. Endi har bir talaba-o'quvchining baholash uchun ularga mavzu bo'yicha oldindan tayyorlangan test tarqatiladi. Bir guruhning ish natijalarini boshqa jamoa talaba-o'quvchilari tayyor javoblar asosida tekshirib, o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan shkala bo'yicha ball qo'yiladi.

6. Dars o'qituvchi tomonidan talaba-o'quvchilar ishtirokida mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Guruhlar va talaba-o'quvchilarga to'plangan ballar e'lon qilinib, rag'batlantirish amalga oshiriladi. Kelgusi dars uchun kerak bo'ladigan topshiriq va vazifalar shakllantiriladi.

Guruh talaba-o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga, o'quv materiallarning hajmi, oson yoki qiyinligiga bog'liq ravishda dars vaqtida etishmovchilik kutilsa, to'rtinchi bosqichni o'tkazmaslik mumkin.

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi-talaba yoki o'qituvchi rolda bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi, talaba-o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

## **BUMERANG TEXNOLOGIYASINI O'TKAZISH BOSQICHLARI**

### **1 – BOSQICH**

- Trening tinglovchilari 4–5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi;
- o'qituvchi har bir guruh va uning har bir a'zosiga mustaqil o'rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun alohida-alohida aniq yozma tarqatma material beradi. Ularning soni guruhlar va tinglovchilar soniga bog'liq. Agar 4 ta kichik guruh bo'lsa, u holda umumiy mavzu 4 ta kichik matnlarga bo'linib har bir guruhga beriladi;
- faoliyat samarali bo'lishi uchun har bir guruhga berilgan tekstdan har bir tinglovchiga beriladi. SHunday qilib, 4 ta guruh umumiy mavzu asosida 4 xil matnga, har bir tinglovchi esa o'z guruhiga tushgan matnga ega bo'ladi.

### **2 – BOSQICH**

- guruhlariga berilgan matnni guruh a'zolari yakka tartibda alohida o'rganishlari, tekstni eslab qolishlari, keyin esa kerak bo'lsa boshqalarga yoki o'qituvchiga gapirib berishlari, iloji boricha tekstni o'zlashtirib olishlari kerakligini o'qituvchi uqtiradi va tayyorgarlik uchun matnni katta yoki kichikligiga qarab 10-15 daqiqacha vaqt beradi. O'zi esa guruh va tinglovchilarning ish faoliyatini kuzatadi.

### **3- BOSQICH**

- o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan raqamlar yozilgan kichik qog'ozlar bilan xar bir guruh yoniga kelib guruh a'zolaridan ushbu qog'ozlardan bittadan raqam tortib olishlarini so'raydi (qog'ozlar soni guruhdagi tinglovchilar soniga bog'liq ,masalan guruhda 5 kishi bo'lsa, qog'ozdagi raqamlar 1,2,3,4,5, etib

tayyorlanadi, agar 4ta bo'lsa 1dan 4gacha va hokazo.). Kichik guruhlardagi barcha tinglovchilar raqamlar yozilgan qog'ozdan olishlari kerak. Nechta guruh bo'lsa, shuncha guruh a'zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog'ozlar tayyorlanadi.

Trener raqamlar bo'yicha tinglovchilardan yangi guruhlar tuzishlarini so'raydi. Masalan, hammadada 1-raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2-raqamlilar ikkinchi, 3-raqamlilar uchinchi guruhni, 4-raqamlilar to'rtinchi guruhni, 5-raqamlilar beshinchi guruhni tashkil etishlarini so'raydi. Guruh a'zolari yangi guruhga o'zlari bilan o'rgangan matnlarini ham olib o'tishadilar.

#### **4 – BOSQICH**

- raqamlar bo'yicha yangi guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o'z-o'zidan to'planib qoladi, ya'ni 4 xil matn o'rganilgan bo'lsa, bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to'planadi, umumiy mavzu bo'yicha 4 tinglovchi va 4 xil matn to'planadi.

#### **5 – BOSQICH**

- yangi tuzilgan guruhning har bir a'zosi endi o'ziga 2 ta vazifa, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko'rsatadi:

-o'qituvchi (o'rgatuvchi) sifatida, o'zi avval o'rgangan materialni gapirib beradi, o'zi mustaqil o'rgangan materialning asosiy joylariga barchaning diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a'zolarining tushunish va o'zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi.

-o'quvchi sifatida, guruh a'zolarining navbatma-navbat so'zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

- o'qituvchi esa ularga o'z tekstlarini faqat so'zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga 20 daqiqacha vaqt beradi (matn hajmiga va umumiy mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt ajratiladi).

Bu bosqichda trening boshlanishida tarqatilgan barcha material tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilgan hisoblanadi.

#### **6 – BOSQICH**

-guruhdagilar bir-birlariga o'z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, o'qituvchi o'rganilgan material guruh a'zolari tomonidan qanchalik o'zlashtirib olganini tekshirib ko'rish uchun har bir guruh a'zolarining bir-birlariga o'z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkinligini tushuntiradi. SHunday qilib, guruh ichida ichki nazorat, ya'ni savol-javob orqali o'tkaziladi. Bu esa guruhdagi tinglovchilarni bir-birlariga so'zlab bergan materiallarini boshqalar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga, o'zining bilimini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

#### **7 – BOSQICH**

- o'qituvchi barcha tinglovchilarni yana qaytadan avvalgi joylariga qaytishlarini so'raydi, ya'ni talaba-o'quvchilar yana mashg'ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

#### **8 – BOSQICH**



- o'qituvchi auditoriyadagi tinglovchilarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lganliklarini hisobga olgan holda, har bir talaba-o'quvchidan o'rganilgan materialni so'rashi mumkinligini aytadi.

### **9 – BOSQICH**

- tinglovchilarga tarqatilgan o'quv materialining ular tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi talaba-o'quvchilarning nazorat savollariga bergan javoblarini reyting ballari orqali baholashini tushuntiradi, masalan, savollarga berilgan javoblar– agar to'liq javob bo'lsa – 3 ball, qo'shimcha qilinsa – 2 ball, o'tirgan joydan luqma tashlansa – 1 ball, javob berilmasa – 0 ball qo'yilishi belgilanadi.

Baho sistemasida - to'liq javob uchun 5 baho, qo'shimcha uchun 4 baho, luqma tashlansa 3 baho, javob bermasa 2 baho, umuman ishtirok etmasa 1 baho qo'yishni belgilash mumkin.

Guruh a'zolarining javoblarini yuqorida ko'rsatilgan tartibda baholash, ballarni qo'yib borish, umumlashtirish uchun har bir guruh o'ziga guruh qatnashchilaridan birini “hisobchi” etib tayinlashi mumkin (“hisobchi” ham davrada bo'layotgan savol–javoblar muloqotida ishtirok etadi).

### **10 – BOSQICH**

- o'qituvchi tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5–6 ta) bilan talaba-o'quvchilarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha hamma matnlarga tegishli bo'lgani ma'qul, shuningdek, o'qituvchi auditoriyadagi barcha o'quvchi-talabalarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi).

Belgilangan savollarga javob berish tugagach, o'qituvchi doskaga guruhlar tomonidan to'plangan ballarni yozadi va mashg'ulotning keyingi bosqichiga o'tadi.

### **11 – BOSQICH**

-o'qituvchi har bir guruhni o'z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tayyorlashlari kerakligini aytadi va guruhlarga savol tuzishlari uchun 5 – 7 daqiqa vaqt ajratadi.

### **12 – BOSQICH**

-guruhlar bir–birlariga savollar beradilar, guruhlardagi “hisobchilar” esa guruh a'zolarining javoblarini yuqorida belgilangan tartibda baholab boradilar.

Javoblar to'g'ri bo'lsa, savol bergan guruh javobni to'ldirmaydi.

### **13 – BOSQICH**

-o'qituvchi guruh a'zolari to'plangan ballarni yana bir marta doskaga yozadi va to'plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymatini aniqlaydi. To'plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymati barcha guruh a'zolariga teng bo'linadi (kelishganlik asosida).

Izoh: agar to'plangan ballarni guruh a'zolariga teng bo'lishda o'quvchi–talabalar tomonidan norozilik bo'lsa, ya'ni ba'zi guruh a'zolari guruhning faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy jamoaviy faoliyatda passiv bo'lgan bo'lishsa, yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan bo'lishsa, bunday holatda vaziyatni echishni guruh a'zolariga yuklatiladi. Guruhning echimi to'g'ri hisoblanadi, yoki o'qituvchi o'z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars

jarayonida o'quvchi–talabalarning javoblari, faol yoki passivliklarini kuzatib boradi.

Umuman olganda, agar o'quvchi–talaba faollik ko'rsatmagan, yoki savol – javoblarda ishtirok etmagan bo'lsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani eslab qolib o'zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik ball berilishi mumkin. Bu o'quvchi–talabani keyinchalik shu shakldagi darslarda faolroq bo'lishga undaydi. YUqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa uning echimini har bir o'qituvchi sharoitga qarab o'zi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Ba'zida guruhning “hisobchilari” ballarni qo'yishda noaniqlik yoki qo'shib yozishlari mumkin, natijada, ba'zi guruhlarning umumiy to'plangan ballari boshqa guruhlarnikidan juda kam farq qilishi mumkin. O'quvchi-talabalarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlangan “hisobchi”lariga bog'liq ekanligini o'qituvchi oldindan eslatib o'tadi. Agar umumiy to'plangan ballarni guruh a'zolariga taqsimlaganda shu mashg'ulot uchun belgilangan maksimal balldan ortib ketgan bo'lsa, u holda shu mashg'ulot uchun kerakli ballni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashg'ulotlarga yoki yakuniy nazoratga o'tkazish mumkin .

#### **14-BOSQICH.**

-har bir talaba-o'quvchiga ballar qo'yilgach o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi. O'quvchi-talabalarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o'z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

-bugungi mashg'ulotdan nimalarni bilib oldingiz?

-nimalarga o'rgandingiz?

-nimalar siz uchun yangilik bo'ldi?

-yana nimalarni bilishni istar edingiz?

#### **15-BOSQICH.**

O'qituvchi o'quvchi–talabalarning javoblarini diqqat bilan tinglab ularga minnatdorchilik bildiradi va darsni yakunlaydi.

### **MULOQOT TRENINGI**

Ushbu trening o'quvchi–talabalarda dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda bunday mashg'ulot tinglovchilarni kichik guruhlarga bo'lgan holda o'tkaziladi.

### **MULOQOT TRENINGNI O'TKAZISH BOSQICHLARI**

O'qituvchi mashg'ulotni boshlashdan avval tinglovchilarni muloqot, baxs-munozarani o'tkazishga qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi

#### **1-BOSQICH.**

-o'qituvchi ishni o'tkaziladigan muloqotning mavzusini aniqlashdan boshlaydi, masalan, «Siz qaysi madaniyat tarafdorisiz: «SHarq yoki Evropa?»». SHu mavzuni o'rtaga tashlab tinglovchilardan SHarq madaniyati va Evropa madaniyati tarafdorlarini aniqlab oladi. Ularni shu tartibda guruhlarga bo'ladi.

#### **2-BOSQICH.**

-har bir guruhdagi tinglovchilar o'z mavzulari bo'yicha kerakli materiallar, dalillar, misollar, aniq fikrlar, o'z fikrini tasdiqlovchi ko'rgazmali materiallar, imkoni bo'lsa videofil'm, maqolalar, mutafakkir va olimlarning so'zlari va

boshqalarni tayyorlaydilar. Guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlar esa o'z fikrlarini qo'shimcha qilishlari mumkin. O'qituvchi guruh talabalarining tayyorgarlik ko'rish imkoniyatlarini hisobga olgan holda vaqt beradi.

### **3-BOSQICH.**

-guruhlar himoyaga tayyor bo'lgach o'qituvchi guruhlarining biriga himoya uchun so'z beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda bo'lishi mumkin). Guruh vakili guruh nomidan so'zga chiqib ularga berilgan mavzuni tayyorlangan materiallar, dalillar asosida himoya qilishga kirishadi. Guruh vakili so'zini tugatgach, guruhning qolgan a'zolari qo'shimcha fikrlar bildirishlari mumkin.

### **4-BOSQICH.**

-mashg'ulotning 3-bosqichidagi kabi bu bosqichda ham o'qituvchi navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun so'z beradi. Ikkinchi guruh ham birinchi guruh kabi o'z mavzusi bo'yicha himoya qiladi. Himoya tugagach, o'qituvchi mashg'ulotning keyingi bosqichiga o'tadi. Xar ikkala himoya vaqtida o'qituvchi iloji boricha o'z fikr va mulohazasini bildirmaslikka, savol bermaslikka harakat qiladi, hech qaysi guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshqaradi, guruh himoyasi vaqtida tartib saqlanishiga va muloqotni o'tkazishga qo'yilgan talab, qoidalarning to'liq bajarilishiga erishishga harakat qiladi. Bu bosqichda, asosan, ikki guruh erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

### **5-BOSQICH.**

-guruhlar bir-birlariga savol berishni boshlaydilar. Guruhlar tomonidan beriladigan savollar ular himoyasi vaqtida aytilgan dalillar, misollar, fikrlarni yanada oydinlashtirish maqsadida, shuningdek, o'z guruhlarining fikrlarini yanada ta'kidlab, isbotlab, qolganlarni ham shu fikrga qo'shilishlariga da'vat qilish uchun berilishi mumkin. Tinglovchilar erkin holda o'zlarining chiqishlari bilan barchaga ta'sir ko'rsatishga, o'z fikrlarini ma'qullashga harakat qiladilar. O'qituvchi bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratadi, ya'ni u bahs-munozarani samimiylik bilan boshqaradi.

### **6-BOSQICH.**

-o'qituvchi har ikki tomonning bir-birlariga savollari, aytadigan fikrlari, ma'qullaydigan so'zlari tugagach, har ikki guruh tomonidan aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va o'zining bu masala haqidagi fikr va mulohazasini bayon etadi va guruh tinglovchilari tomonidan tushgan savollarga kerakli javoblarni berishga harakat qiladi.

Mashg'ulot oxirida o'qituvchi har ikkala guruhning mashg'ulot jarayonidagi faoliyatlarini taxlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg'ulotni yakunlaydi. Ushbu treningning davomiyligi sharoitga qarab belgilanadi.

## **FSMU TEXNOLOGIYASI**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqida fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida

egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

**Amaliy mashg'ulot-7**  
**Psixologiyada shaxs va jamiyat muammosi.**  
**Shaxs faoliyati va individual-psixologik xususiyatlari: xarakter,**  
**temperament, qobiliyat.**

**Reja:**

1. Shaxs, individ, individuallik. Individuallik darajalari.
2. Psixologik shaxs va jamiyat muammosi.
3. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlar haqida tushuncha.

«SHaxs, individ, individuallik. Individuallik darajalari. SHaxsning psixologik tarkibi Temperament – shaxsning biologik poydevor. Temperament turlari. Temperament va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari Shaxs tipologiyasi. Xarakter va uni o'ziga xos xususiyatlari; o'z-o'zini baholash. Psixotsiptiplar; Shaxsda his-tuyg'u tushunchasi. Hissiyotning psixologik asoslari va uni inson hayotidagi roli. Shaxs shakllanishi va rivojlanish. Shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhitning roli. SHaxsning faoliyat jarayonida shakllanishi. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash. Faktorlar va shaxsning yosh davri xususiyatlari; Inson taqdiri va hayot tarzi; o'z-o'zidan qoniqmaslik majmui. Vaziyat va uni talqin etish. Ishonch, ishonchsizlik, shaxsning qiziqqon holati. Shaxsda o'ziga nisbatan ishonchni shakllantirish yo'llari. Shaxs va kasb.» mavzusi psixologiya fanini o'qitishda muammoli vaziyatlarni xal etish bo'yicha amaliy mashg'ulotda "Keys stadi"ga asoslangan o'qitish texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

«Shaxs tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi.' Psixologiya urganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruxiy olami qonuniyatlari bilan qizikkan xar qanday olim yoki tadkikotchi xam shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, «aklli zot» tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. CH. Darwin ta'biri bilai aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida er yuzida saklanib qolgan minglab millat va elatlarning

keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy-sotsial omillar ta'sirida ro'y bermokda. Shuning uchun xam xar bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muxiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqazo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muxit — bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan xar bir insonning shu ijtimoiy olam bilan alokasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi xarakterlarida namoyon buladi.

Demak, xar bir shaxsning fe'l-atvorida atrofda do'st-yorlari, oilasi, tarixiy zamon, davr, davlat tuzumi va o'sha jamiyatdagi siyosat, iqtisodiyot va mafkuraning ta'siri bo'lib, bu ta'sir uniig yaxlit dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o'z aksini topadi. Bunday ta'sirlarning ikki xili farqlanadi:

- *makro bosqichdagi ta'sirlar*, ya'ni keng ma'nodagi ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy xamda iqtisodiy muxit ta'sirlari;

- *mikro bosqichdagi ta'sirlar*, yoki odamni bevosita o'rab turgan muxitdagi ijtimoiy muloqot va muomaladan ta'sirlanishi. Boshqacha kilib aytganda, bunday ta'sirlarni shaxs bevosita oila muxiti, ta'lim muassasalari, maxalla-kuy, mexnat jamoasidagi xamda do'stlari davrasidagi mulokotlardan oladi.

Bir qarashda ikkinchi bosqich ta'sirlarigina shaxsning insoniy kiyofasi xamda fe'l-atvorini belgilaydiganday tuyuladi. Chunki, xalqimizda «kush uyasida kurganini qiladi» degan nakl xam bor, ayniqsa, bizning uzbekchiligimizda odamning tug'ilib usgan oilasi, maxallasi, kimning avlodi-yu, kimning zurriyodi ekanligi, ta'lim olgan dargohiga katta e'tibor beriladi. Kupincha xalqda «xovli olma, ko'shni ol» degan makol xam ishlatiladiki, bu xam farzandlar kamoli va oilaning tinchligida yon-atrofnig axamiyatiga ishoradir. Lekin makro bosqichdagi ta'sirlarning axamiyatini kamsitish xam tugri bulmaydi. Masalan, shurolar tuzumi jamiyat a'zolarini mute, manqurt, ixlossiz, tobe, ma'lum bir ma'noda imonsiz bulib qolishiga sababchi buldi. Chunki bunga asosan usha muxitdagi nosoglom e'tiqodlar, gayriinsoniy tashviqotlar, inson kadrini, uning mexnatini yerga uruvchi iqtisodiy siyosat (xamma bir xil turmush tarziga ega bulishi, «ishlamasa xam tishlayverish»), kommunistik mafkura sabab buldi. Tarixdan shu narsa ma'lumki, qaysi davlat va jamiyat tarixida bosqinchilik siyosati yurg'izilgan bulsa, usha jamiyat odamlari psixologiyasida tobelik diyonatsizlik ixlossizlik ustun bulavergan.

Mustakillik psixologiyasi shundayki, unda xar bir shaxs uzining erkin mexnati bilan uzi va uzgalar manfaati *xaqiqat* birday kayguradi, chunki xar bir shaxs fidokorona mexnat kilmasa, tinimsiz izlanmasa, na uzining, na yaqinlarining, boshqalarning «kosasi okarmaydi», «biri ikki bo'lmaydi». Shuning uchun xam istiqlol yillarida "Uzbekiston fuqarolarining psixologiyasida, ularning qadriyatlarini idrok qilishlari va kundalik amallarida o'z shaxsiy kamoloti, oilasi farovonligi, Vatan ravnaqi uchun nima qilish lozimligini ifodalovchi qarashlarida tub o'zgarishlar ruy bermoqda. Bu o'zgarishlarni o'rganuvchi psixologiya fani oldida xam qator dolzarb vazifalar turibdi.

Psixologiya ilmining namoyondalari bulmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida, makro — xamda mikro bosqichlardagi ta'sirlarning tub moxiyatini anglash, uning rivojlaniish va kamol topishi qonuniyatlarini izladilar.

Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari xam bu uzaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga uzlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning moxiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezoni xam shundan kelib chiqqan xolda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak.

Lekin, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasida birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

*Nativizm* yo'nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tugma xarakterga ega, deb e'tirof etadilar (Lend, Gruber va boshkalar).

*Empirizm* tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola yoki «top-toza paxta» (tabula rasa), unga xat va undagi talablar o'zining konuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur. Bu yunalshning asoschilaridan biri Dj. Lokk bulib (1632-1704) uning fikricha, tugma fikrlar yoki g'oyalar bulishi mumkin emas, ular xoxish-tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Xayotda ana shunga uxshash turli xil sezgilar va goyalarning assotsiatsiyasi ruy beradi

G. Leybnits (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, xayotda umuman toza, sof doskaning uzi bulmaydi, hattoki, eng yaxshi silliklangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, dungliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular odamning sezish va bilish organlari vositasida anglanishi mumkin. Xuddi shunday, inson bolasi xam tug'ilishdan muayyan belgilar, xususiyatlar bilan tug'iladiki, ularni biz layokatlar, iqtidor, genetik xususiyatlar deb ataymiz. Aynan shu tugma belgilar inson taqdirida ma'lum rol uynaydi, lekin yetakchi, sezilarli ta'sirlar xayotning keyingi bosqichlarida, turli faoliyatlarni (o'yin, o'qish, mehnat va boshq.) amalga oshirish jarayonida odamdagi sifatlarni shakllantiradi.

**“SHaxsning psixologik xususiyatlari”** mavzusi pedogogika fanini o'qitishda muammoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha dars jarayonida “Keys stadi”ga asoslangan o'qitish texnologiyasi ishlab chiqilgan.**Shaxs haqida tushuncha.** “Shaxs” tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, “Homo sapiens” - “aqli zot” tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darvin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida er yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy - sotsial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham xar bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezonini ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak. Lekin, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil echimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

Nativizm yo'nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug'ma xarakterga ega, deb e'tirof etadilar. (Lents, Gruber va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola go'yoki "top - toza taxta" (tabula rasa), unga hayot va undagi talablar o'zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur. Bu yo'nalishning asoschilaridan biri Dj. Lokk bo'lib (1632-1704) uning fikricha, tug'ma fikrlar yoki g'oyalari bo'lishi mumkin emas, ular xoxish - tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Xayotda ana shunga o'xshash turli xil sezgilar va g'oyalarning assotsiatsiyasi ro'y beradi.

G.Leybnits (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, xattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular layoqatlardek, inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi. Bu ikkala yirik yo'nalish o'rtasidagi tortishuvlarga chek qo'yish maqsadida F.Gal'ton qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazib, har bir individga xos differentsial xususiyatlar mavjudligini "egizaklar metodi" yordamida asoslashga harakat qildi. 1- jadvalda Gal'ton tomonidan irsiy va orttirilgan sifatlar munosabati yuzasidan aniqlangan natijalardan keltirilgan.

O'qituvchining kasbiy faoliyati favqulodda **umumiy va xususiy qobiliyatlarni** talab qiladi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati xususiy pedagogik qobiliyatlarga bog'liq bo'ladi. **Pedagogik qobiliyatlarning** quyidagi guruhlarini farqlanadi:

- ob'ektga (talabaga) nisbatan sezgirlik;
- kommunikativlik-insonlarga yuz tutish, xayrihohlik, xushmuomalalik;
- pertseptiv qobiliyatlari-kasbiy etuklik, simpatiya, pedagogik tuyg'u;
- shaxs dinamikasi-irodaga ta'sir eta olish va mantiqiy ishonтира olish qobiliyati;
- hissiy barqarorlik-o'zini boshqara olish;
- kreativlik-ijodiy ish qobiliyati.

Pedagogning **xususiy qobiliyatlariga** bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

**O'qitish, o'rganish va o'rgatish bo'yicha qobiliyatlariga** quyidagilar kiradi: talabani tushunishni ko'rish va sezish, bunday tushunishning darajasini va harakterni o'rganish qobiliyati;

o'quv materialini mustaqil tanlab olish, o'qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;

materialni etarli bayon qilish, uni barcha talabalarga tushunarli bo'lishini ta'minlash qobiliyati;

talabalarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;

o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;

talabalarining katta odamlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;

o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;

o'zining tajribasini boshqalar bilan baham ko'rish qobiliyati;

mustaqil ta'lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

**Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarda empatiya va pertseptiv qobiliyatlar** muhimdir, ularga quyidagilar kiradi:

boshqa insonning ichki holatini to'g'ri baholash, unga hamdardlik bildirish, hamnafas bo'lish qobiliyati;

taqlid qilish uchun namuna bo'lish qobiliyati;

tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish qobiliyati;

muloqotning lozim topilgan uslubini, o'z o'rnini topish, kelisha olish qobiliyati;

hurmat qozonish, talabalar o'rtasida obro'ga ega bo'lish qobiliyati.

Pedagogik qobiliyatlar ichida pedagogik muloqotga bo'lgan qobiliyat alohida ajralib turadi.

Pedagogik mahorat komponentlari kasbiy faoliyatga kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka nuqtai nazardagi qarashlarni aks ettiradi.

Pedagogik qobiliyat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlari farqlanadi:

- **konstruktiv (loyihalash);**
- **didaktik;**
- **tashkilotchilik;**
- **kommunikativ (muloqot);**
- **bilish va anglash (reflektivlik).**

O'qituvchining talabalar bilan davomiy va samarali aloqalarini tashkil etishni kommunikativ qobiliyat bilan bog'laydilar.

**Kommunikativ qobiliyat**-bu pedagogik o'zaro aloqalar doirasidagi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan muloqot qobiliyatidir.

Psixologiyaga oid adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir necha guruhlari farqlanadi:

1. Kishining boshqa insonni bilishi. Bu qobiliyatlar guruhida kishiga shaxs sifatida, shaxsning alohida qiyofasi, motivi va xatti-harakatlariga baho berishni,



kishining tashqi ko'rinishi, xulqi va ichki dunyosi nisbatida baho berishni; savlati, imo-ishora, mimika, pantomimikasini «o'qiy» olishni qamrab oladi.

2. Kishining o'z-o'zini bilishi, u o'z bilimlarini, qobiliyatlarini, harakteri, o'z shaxsining boshqa qirralarini hamda tashqaridan va uning atrofidagi kishilar unga nisbatan qanday baho berishi lozim bo'lsa, shunday baho berishni ko'zda tutadi.

3. Muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish. Bu vaziyatni kuzatish, uning ko'proq, axborot beradigan belgilarini tanlash va unga diqqatni jalb qilish; yuzaga kelgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mundarijasini to'g'ri idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Psixologik qobiliyatlar strukturasi aql, idrok, hozirjavoblik, tanqidiy munosabatda bo'lish, sobitqadamlik, notiqlik so'z boyligi va hokazolar muhim o'rin tutadi.

Psixologik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo'lishi shartigina emas, balki ko'p jihatdan o'qituvchining muvaffaqiyatli ishlashi natijasidir. SHu munosabat bilan o'qituvchining o'zida pedagogik qobiliyatlarining aniq maqsadni ko'zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol o'ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batamom haqiqiy narsa ekanligini ko'rsatmoqda. Masalan, shaxs xususiyatlarini kuzatish o'qituvchining pedagogik tajriba hosil qilishida hamda uning maxsus ma'lumotlar to'plashida muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'zining ijtimoiy psixologik kuzatuvchanligi bilan o'quvchilarning turli harakter xususiyatlari va mayllarini payqab qolish qobiliyatigina emas, shu bilan birga ularning paydo bo'lish sabablarini bilib olish, ularga bu sabablarning paydo bo'lish vaziyatiga muvofiq baho mahoratini va hokazolarini rivojlantirishga qodirdir. Agar o'qituvchida o'quvchilar bilan munosabatlarining ishonch asosida, qurilishiga yo'l-yo'riq bo'lsagina, bunda muloqot ro'y beradi. Tarbiya jarayonida bunday yo'l-yo'riqni amalga oshirish qiyin ishdir, lekin bunga butunlay erishish mumkin. Albatta, katta yoshdagi kishilarning bolalar hayotiga qo'shilib ketishi nihoyatda qiyin narsa. Lekin bu muhitga u yaqinlasha oladi, ancha yaqinlashib boradi. Pedagogda bolalar bilan o'zaro ishonch va do'stlik munosabatlari vujudga kelgandagina bunga erishish mumkin. O'quvchilar jamoasi bilan muomala ko'pincha suhbat, ma'ruza, axborot va hokazolar shaklida bo'ladi. Birinchi navbatda suhbatni qanday qilib tashkil etish, o'qituvchining gaplariga bolalarning diqqatini tortish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bir necha usullar bor. Gapni masalaning ko'yilishidan boshlash mumkin. Bu masalada bo'lajak suhbatning ma'nosi mujassamlashgan bo'ladi. Mavzuga diqqatni tortishga urinib ham ko'rish mumkin. Bunda gapning erkin qiziqarli fakti ma'lum qilishdan boshlasa bo'ladi. Keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Maqola yoki biron bir asardan parcha keltirish ham muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Bundan tashqari darhol bolalarga bo'lajak suhbat ularning qiziqishlari bilan bog'liq ekanligini aytib o'tsa ham bo'ladi. Mana, suhbatga bolalarning diqqatini jalb qilindi ham deylik. Endi uning mavzusini ancha qisqa, lekin etarli darajada aniq qilib ochib berish darajasi turadi, buni qanday amalga oshirish mumkin? Masalan, suhbatni tuzishning yana bunday varianti bo'lishi mumkin: dastlab pedagog o'quvchilar ongi va hissiyotiga etkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr qisqacha bayon etiladi. So'ngra u ochib beriladi. Buning uchun

faktlar, misolar va illyustratsiyalar tizimi bayon qilinadi. Bunda erkin taqqoslashlar, kutilmagan o'xshatishlardan foydalanish juda foydali bo'ladi. SHundan keyin xulosa chiqarish, ya'ni suhbatning asosiy fikrini boshqacha so'zlar bilan takrorlash mumkin. Suhbat bolalarda doimiy qiziqish uyg'otish uchun bir qator murakkab bo'lmagan usullardan foydalanish zarur, eng muhim so'zlar va iboralarning intonatsiya bilan ajratib ko'rsatish va aksincha intonatsiyani (urg'u) o'zgartirish unchalik muhim bo'lmagan matnni bayon qilish kerak. Ovoz va nutq ohangini o'zgartirish foydalidir. Suhbatni qanday tugallash ham muhim ahamiyat kasb etadi. U turlicha bo'lishi mumkin. Asosiy g'oyalarni yana bir marta qisqacha bayon qilib berish mumkin. Uni she'riy satrlar bilan tugallasa ham bo'ladi. Agar bolalarning o'zlari eshitgan narsalari haqida fikr yuritishlarini hohlasa javobsiz savol bilan tugallash mumkin. Suhbatning yakuni barcha ko'rsatib o'tilgan tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladigan variant ham bo'ladi. Bu qoidalarga rioya etish pedagogning so'zlari o'quvchilarga zarur ta'sir ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratadi. Bundan tashqari pedagog eski fikr uchun yangi so'zlar izlashi va topishi darkor, ya'ni ayni bir fikrni turlicha bayon qilishni bilishi zarur.

Pedagogik mahorat komponentlari kasbiy faoliyatga kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka nuqtai nazardagi qarashlarni aks ettiradi

### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Tinglovchilarning mustaqil ishi o'rganilayotgan mavzu yuzasidan ma'lumotlarni axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalangan xolda yig'ish, olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish, tahlil qilish va amaliyotda qo'llay olishdan iborat bo'lib, uning shakllari turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular quyida keltiriritilgan.

Tinglovchilarning mustaqil ishiga shuningdek, bitiruv malakaviy ishlarini bajarilishi borasida olib boradigan faoliyati ham kiradi.

Mustaqil ishni bajarish natijalari baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar tinglovchilarning mashg'ulotlarda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

- 1.O'zbek pedagogikasida ma'rifiy qadriyatlar. Ma'rifat va uning mohiyati.(5 soat)*
- 2.Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya (ayrim mamlakatlar misolida).(5soat)*

3. *Pedagogik mahoratning mohiyati va tuzilishi. Pedagogik faoliyat funksiyalari va pedagog shaxsiga qo'yilgan talablar.* (5 soat)
4. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" giva "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gironunlarita'lim tizimini boshqaris hhaqida.* (5soat)
5. *Ta'lim tizimini boshqarish organlarining vakolatlari. Ta'lim muassasasini boshqarish.*( 6soat)

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

#### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Ibragimov X, Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. T., 2008 yil.
2. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi T., 2005 yil.
3. .Mavlonova R, O.To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika darslik. T., 2001 yil.
4. Tojiboeva D, .Yuldashev A, Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (darslik) lotin T., 2009 yil.
5. Omonov X.T, Xo'jaev N.X, Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2009 yil.

#### **2. Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Holiqov. A, Pedagogik mahorat, T., 2011 yil.
2. Munavvarov A.Q. Pedagogika. T., 1996 y.
3. G'aybullayev N., Yodgorov R., Mamatqulova R., Toshmurodova Q., Pedagogika ma'ruzalar matni. T., 2000 y.
4. B. Ziyomammedov, Pedagogik mahorat asoslari, T. 2009 yil
5. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004.– 123 b.
6. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.– 234
7. Xo'jaev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. – T., 2003.– 344 b.
8. Xo'jaev N. va boshqalar. Ta'lim nazariyasi. – T., 2003.– 216 b.
9. Ochilova G. Pedagogika. T.: 2005
10. Prof. M.X. Toxtaxodjaeva Pedagogika.– T., 2010.

- Tolipov O'.Q., Barakaev M., SHaripov SH.S. Kasbiy pedagogika (ma'ruzalar matni). –T.: “Ofset-print” matbaasi, 2001. –100 b
- 11.Olimov Q. T. Kasb ta'limi uslubiyati. O'quv qo'llanma. –T.: 2006. 164 b.
- 12.SHaripov SH. va b. Kasb ta'lim pedagogikasi (metodik qo'llanma). T.:TDPU, 2006 y.
- 13.Rashidov H.F. va boshqalar. “Kasbiy pedagogika” blokini o'qitish metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). – T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.
14. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDPU, 2007y.
- 15.Abdiquddusov.O.,Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi.O'quv qo'llanma.. O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.

### **3.Internet saytlari**

1. [www.inetlibrary.com](http://www.inetlibrary.com). Internet-kutubxona
2. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
4. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. [tdpu-INTRANET. Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)

### **4.Elektron darslik va o'quv qo'llanma.1.**

Ochilova G. Pedagogika. T.: 2005

2 Xayitov O.E. Psixodiagnostika. T.: 2005



### **5. XORIJIY ADABIYOTLAR.**

1. Bodrev, Zazyuka. Основы педагогического мастерства. М.: Просвещение, 1989.
2. Azarov YU.P.Kultura vospitani: Uchitel. М.: Просвещение. 1985.
- 3.Amonavshen SH.A., Edinstvo tseli.. М., Просвещение. 1987.
4. Sibirskaya M.P. Professionalnoe obuchenie: Pedagogicheskie texnologii. – Sankt Peterburg, 2002.
5. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. // Pod. red. V.A.Slastenina. – М.: Akademiya, 2004.


## TEST

### Darajali testlar

1. Rasmda berilgan ukituvchining dars utish usulini aniqlang.

2	1		<i>Raqamla r</i>
		Avtoritar	2
		Demokratik	3
	1		Liberal

2. Rasmda berilgan munosabatining tashkilotilishini ta'limlovchi ta'limiy xarakterdagi texnologiya nomini aniqlang?

	<i>№</i>	<i>Ta'lim texnologiyalari turlari</i>
	A	Kompyuterli ta'lim

<sup>1</sup> . Kadrlar tayyorlash milliy modeliga keltirilgan ta'riflar bilan juftlang.

	B	Erkin ta'lim
	C	Hamkorlik ta'limi
	D	An'anaviy ta'lim
	E	Dasturlashtirilgan ta'lim
	K	Tabaqalashtirilgan ta'lim
To'g'ri javob: S Hamkorlik ta'limi		

1	SHaxs	A	Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;			
2	Davlat va jamiyat	B	Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;			
3	Uzluksiz ta'lim	S	Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;			
4	Fan	D	Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi.			
5	Ishlab chikarish	E	YUqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi vaulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi; Ishlab chiqarish kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi,			
<i>javob</i>		1- b	2-s	3-a	4-e	5-d

#### 4. Ta'lim metodlarining tarkibiy qismlari bilan juftlang.

1	Ko'rgazmali metod	A	Faxriy erliklar berish eki oqoxlantirish
2	Amaliy metod	B	Ma'ruza, suxbat, xikoya
3	Og'zaki metod	S	Mashq, instruktaj, laboratoriya

4	Ragbatlantirish va tanbex berish	D	Tabiiy namunalar, ilyusturatsiya, demontstratsiya	
<i>javob</i>	1- d	2-s	3-v	4-a

### 5. Pedagogika faninng asosiy kategoriyalarini berilgan ta'riflar bilan juftlang

1	Ta'lim	A	Ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, xosil kilingan kunikma va malakalar xamda tarkib topgan dunyokarashlar majmui.	
2	Tarbiya	B	Maxsus tayyorlangan mutaxassis raxbarligida shaxsni bilim kunikma va malaka bilan kurollantirish.	
3	Ma'lumot	S	Avtomatlashgan, urganib kolingan, muayyan usul bilan bexato bajariladigan xarakatdir.	
4	Malaka	D	SHaxsda muayyan jismoniy, ruxiy, axlobiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga karatilgan amaliy pedagogik jarayon.	
<b>Javob</b>	<b>1-b</b>	<b>2-d</b>	<b>3-a</b>	<b>4-s</b>

### 6. Ta'lim metodlarini ularning turlari bilan juftlang.

1)	og'zaki bayon qilish metodlari	a)	namoyish, tasvirlash, ekskursiya
2)	ko'rgazmali metodlar	b)	mashq, laboratoriya, amaliy ishlar
3)	amaliy metodlar	c)	“Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Debat”
4)	interfaol metodlar	d)	hikoya, tushuntirish, suhbat, ma'ruza

### 7. Dars turlarini xususiyatlari bilan juftlang.

1	Yangi bilimlarni o'rganish darsi	A	Mavzu va ko'zlangan maqsad aytilib, yangi o'quv materiali bayon etiladi va o'quvchilarning mustaqil ishlashi uyushtiriladi, uyga topshiriqlar beriladi, o'quv materialini o'zlashtirish oson hollarda o'tkaziladi.
2	O'tilgan materialni mustaxkamlash darsi	B	Bu ukuv dasturining ma'lum bir kismi utib bulganidan keyin utiladigan dars.

3	Ta'lim oluvchilarning bilim kunikma va malakalarini tekshirish darsi darsi.	S	darslarda mavzu, bo'lim yuzasidan og'zaki savol-jaoblar, test yordamida yozma yoki grafik usulda tekshirish ishlari o'tkaziladi		
4	Takroriy-umumlashtiruvchi dars	D	Oldin o'rganilgan materiallar yuzasidan o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkaziladi, bilimlar esga solinadi, faktlar va natijalar o'quvchilarning xotirasida mustahkamlanadi		
<b>Javob</b>		<b>1- a</b>	<b>2-d</b>	<b>3-s</b>	<b>4-b</b>

**8. Ta'lim va tarbiya turlariga mos rakamlarni aniklang va jadvalning ung tomoniga yozing,**

- 1) Iqtisodiy, 2) Masofaviy, 3) Ekologik, 4) Muammoli 5) Mexnat, 6) Dasturli 7) Innovatsion, 8) Xukukiy, 9) Fikr 10) Individual

<i>Ta'lim va tarbiya turlari</i>	<i>Javob raqamlari</i>
Ta'lim	2,4,6,7,10
Tarbiya	1,3,5,8,9

**9. Iqtisodiy va mexnat tarbiyasiga taaluqli fazilatlarga mos rakamlarni jadvalning ung tomoniga yozing,**

- 1) Tejamkorlik 2) tadbirkorlik 3) ishchanlik 4) ishbiarmonlik 5) faollik 6) sarf 7) mexnatsevarlik 8) isrof 9) chakkon 10) mulk

<i>Tarbiya turlari</i>	<i>Javob raqamlari</i>
Iqtisodiy tarbiya	1,2,4,6,8,10
Mexnat tarbisi	3,5,7,9

**10. Ta'lim metodlariga mos raqamlarni aniqlang va mos rakamlarni jadvalning javob rakamlari kismiga yozing.**

- 1) Ma'ruza 2) Namoyish 3) Suxbat 4) Amaliy mashk 5) Diagrammalar 6) Labarotoriya 7) Tasviriy 8) Xikoya 9) Sxematik materiallar 10) Mashk kildirish

<i>Ta'lim metodlari</i>	<i>Javob raqamlari</i>
Ogzaki bayon kilish	1,3,8
Kurgazmalilik	2,5,7,9
Amaliy mashg'ulotlar	4,6,10

**11. Quyidagi berilgan fikrning qaysilari to'g'ri**

- A) Metod - bu grekcha suzdan olingan bulib uslub demakdir.



- B) Mustakil ta'lim - bu insonning uzi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuklarini urganishga yunaltilgan shaxsiy xarakterli jarayoni.
- S) Metod – yunoncha “yul” degan suzdan paydo bulib, tadbik kilish ma'nosini anglatadi.
- D) Mustakil ta'lim – ta'lim jarayonini samarali tashkil etish jarayoni xisoblanadi.
- E) Dars - ta'lim jarayonining asosiy shakli.

A	B	S	D	E
yuk	xa	xa	yuk	xa

**12. Quyidagi berilgan xarakterli qaysi tarbiya metodlariga xosligini ajrating va mos raqamlarni jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.**

- 1)Urnak kursatish 2) Tushuntirish 3) Suxbat 4) Namoyish etish 5) Ma'kullash  
6)Ogohlantirish 7) Misol keltirish

<i>Tarbiya metodlari</i>	<i>Javob raqamlar</i>
Ogzaki	2,3
Ko'rgazmali	4
Amaliy namuna	1,7
Ragbatlantirishvajazo	5,6


**13. Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to'g'ri?**

- A) Ta'lim metodlari: og'zaki, amaliy, ko'rgazmali  
B) Dars- o'quv jarayonining asosiy shakli.  
S) Ko'rgazmali metod ta'limda muhim emas  
D) Ta'lim jarayoni chegaralanmagan.

**Javob: A;B**

**14. Aralash darsining ketma-ketligini ifodalangan holda tegishli raqamlarni kataklarga yozing.**

- 1)Yangi materialni bayon kilish, ma'ruza va suxbat 2)Uy vazifalarini surash va tekshirish 3) Yangi materialni mustaxkamlash, mashk kildirish, kitob bilan ishlash 4) Uy vazifasini topshirish 5)Bilim, kunikma va malakalarini tekshirish va baxolash



**15. Ta'limjarayoninibirtizimdebqaraydiganbo'lsak, unitashkiletuvchielementlarnisxemadaifodalang.**

1)aniqmaqsadlar2) nazoratvabaholash 3)ta'limberuvchi 4)o'quvmaqsadi  
5)ta'limoluvchi 6)ta'limmetodi7)ta'limmazzmuni8)ta'limshakli  
9)ta'limvositalari. **Javob:**

4	1	3	5	7	6	8	9	2
---	---	---	---	---	---	---	---	---

**16. Tushirib qoldirgan so'zlarni yozing.**

1) ..... o'qitishning asosiy shakli hisoblanadi.  
2).....pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan, aniq ishlab chiqilgan va qat'iy ilmiy loyihalashtirilgan, takrorlana oluvchi pedagogik harakatlar tizimidir. **Javob: 1)Dars ; 2)Pedagogik texnologiya;**

**17.Berilgan fikrlarning qaysilari to'g'ri?**

A) Ta'lim, tarbiya, ma'lumot pedagogika fanining asosiy kategoriyalari xisoblanadi.  
B) Pedagogik texnologiya passiv metodlar katoriga kiradi.  
S) Ta'lim ikki yoklama jarayon sanaladi.  
D) Ta'limning ogzaki metodi aktiv metodlardan biri xisoblanadi.

**Javob: A;S;**

**18. O'qituvchining kasbiy refleksiya asosida pedagogik maxoratining rivojlanishi ketma-ketligini belgilang.**

1.Uz-uzini anglashi 2.Uz-uzini bilishi 3.uz-uzini nazorat kilish 4. Uz-uzini belgilash 5.uz-uzini rivojlantirish.

**Javob: 2,1,4,5,3.**

**19. Yangi bilimlarni o'rganish darsiningstrukturaviy tuzilishini ketmaketligini belgilang.**

1.Tashkiliy qism. 2. YAngi o'quv materialini bayon qilish va mustakamlash. 3. Uyga topshiriq berish. 4. Darsni yakunlash 5. Talabalar bilan salomlashish

**Javob:5;1;2;3;4**

**20. Umumiy yoki aralash darsining strukturaviy tuzilishini ketmaketligini belgilang.**

1. Tashkiliy qism. 2. Darsni yakunlash 3.Uyga berilgan topshiriqni tekshirish. 4. O'quvchilar bilimini og'zaki (yakka tartibda) tekshirish. 5. YAngi o'quv materialini mustahkamlash. 6. YAngi o'quv materialini bayon qilish. 7. Uyga topshiriq berish.

**Javob:1;3;4;6;5;7;2**

**21. Sinash-tekshirish darsining strukturaviy tuzilishini ketma-ketligini belgilang.**

1. O'qituvchining topshirig'ini tekshirish. 2. Tashkiliy qism 3. O'quvchilarning savollariga javobberish. 4. O'quvchilarning topshiriqlarini bajarishni tekshirish. 5. Bajarilgan ishlarni o'qituvchiga topshirish. 6. Uyga topshiriq berish. 7. Darsni yakunlash.

**Javob:**

**22. Uzlusiz ta'lim turlarini ketma-ketlik asosida joylashtiring.**

Ta'lim turlari	raqamlar
Maktabgacha ta'lim	
Maktabdan tashqari ta'lim	
Umumiy o'rta ta'lim	
kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash	
o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi	
Oliy o'quv yurtidan keying ta'lim	
Oliy ta'lim	

**Javobi:**

Ta'lim turlari	raqamlar
Maktabgacha ta'lim	<b>1</b>
Maktabdan tashqari ta'lim.	<b>7</b>
Umumiy o'rta ta'lim	<b>2</b>
kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash	<b>6</b>
o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi	<b>3</b>
Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim	<b>5</b>
Oliy ta'lim	<b>4</b>

**23. Quyidagiberilganfikrlarningqaysilarto'g'ribo'lsa noto'g'ribo'lsa “yo'q” so'zlariniquying.**

“ha”

- 1) Metod- maqsadga erishish yo'li hisoblanadi
- 2) Dars-o'qitish jarayonining asosiy shakli hisoblanadi.
- 3) Ko'rgazmali metod- faqat seminar mashg'ulotlarida qo'llaniladi
- 4) Pedagogik texnologiya – ta'limni samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. 5) Interaktiv metodlar- talabalar bilish faoliyatini susaytiradi.

**Javob:**

1	2	3	4	5

**24. To'g'rifikrlarnianiqlang. Javoblarjadvaliga “ha” yoki “yo'q” so'zlariniyozing**

1)Nazoratningasosiyshakllarigaog'zakiso'rovvatestlarkiradi 2)O'quv-tarbiyaviyjarayonnitashkilqilishsifatininazoratetishuchunqisqaturdagidarstah liliqo'llaniladi.

- 3) Darsning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar mavjud.
- 4) Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi insonni har tomonlama rivojlantirish va kamol topishidir **Javob:**

1	2	3	4
yo'q	yo'q	ha	ha

**25. O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish metodlariga berilgan ta'riflar bilan juftlang.**

1	Og'zaki tekshirish	A	O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Unga ko'ra o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashni tashkil etadi.	
2	YOzma tekshirish	B	Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir. Tekshirish chog'ida o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Bu turdagi tekshirish ma'lum kamchiliklarga ham ega: ko'p mehnat sarflanadi; dars mobaynida 3-4 nafar o'quvchiningina bilimini tekshirish mumkin	
3	Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish	S	Bu tekshirish o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv faoliyatiga munosabatlarini, materialni qanchalik o'rganganliklarini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqilliklarini aniqlashga imkon beradi.	
4	Uy vazifalarini tekshirish	D	Amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'ladi	
<b>Javob:</b>	<b>1-</b>	<b>2-</b>	<b>3-</b>	<b>4-</b>
<b>Javobi:</b>	<b>1-B</b>	<b>2-A</b>	<b>3-D</b>	<b>4-S</b>

**26. Sinf-dars tizimining asosiy o'ziga xos jihatlarini aniqlang va javoblar jadvaliga "ha" yoki "yo'q" so'zlarini yozing.**

A.Sinf-dars tizimi deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajasidagi tahsil oluvchilar ishtirok etadi; ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lmagan alohida-alohida qismlardan tashkil topadi.

B.Sinf-

darstizimidaharbirdarso'quv-rejasidakirganammoma'lumbiro'quv-predmetidastu rigaoidbo'lmaganmavzugabag'ishlanganbo'ladi.

D. Kasbiyta'limdarslarigao'qituvchi, muhandis-pedagog, yo'riqchi, tajribalimutaxassiskabilarraharlikqilishimumkin.

S.Tahsil oluvchilar reproduktiv darajadagi o'quv-bilish faoliyatiga ishtirok etadilar.


E.O'zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratilganligi.

**Javobi:**

A	B	D	S	E
Yo'q	Yo'q	Ha	Yo'q	Ha


**27. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlarini ifodalangan holda tegishli raqamlarni kataklarga yozing.**

1) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi; 2)o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi; 3) zarur ko'nikma va malakalar shakllanishiga o'quv harakatlarning ko'p bora



takrorlanishi; 4) o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;

**Javobi**



**28. Ta'lim maqsadi, o'quv axborotlari, o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy faoliyatlari, o'qitish shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta'lim jarayonini boshqarish usullari. Ular ... sanaladi.**

- ta'limning tarkibiy elementlar;
- ta'lim tamoyillari;
- ta'lim konsepsiyaari;
- ta'lim nazariyalari.

**29. O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish shakllarini juftlang.**

1	Ommaviy (frontal) shakli	A	o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni guruh muayyan vaqt oralig'ida bajaradi;		
2	Guruhli	B	o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga qisqacha javob qaytaradilar		
3	Individual	S	individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi		
4	Uyg'unlashtirilgan (kombinatsiyalangan)	D	har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini mukammal tashxislash uchun foydalaniladi;		
5	O'z-o'zini nazorat qilish	E	ta'lim jarayonida ichki qaytar aloqani yuzaga keltirishga xizmat qiladi va psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi		
Javob :	1-	2-	3-	4-	5-
Javobi:	1-B	2-A	3-D	4-S	5-E

**30. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va tashxislash tamoyillari bilan juftlang.**

1	<b>Xolislik (ob'ektivlik)</b>	A	nazorat ta'lim jarayoni ning barcha bosqichlarida – bilimlarning o'z boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan davrlar bog'liqlik mavjud bo'lishini anglatadi		
2	<b>Tizimlilik</b>	B	tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunini asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona muhim bilim, ko'nikma, malakalarni baholashdan aniq maqsadning ko'zlanganligi kabi talablardan iborat		
3	<b>Oshkoralik</b>	S	barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchining reytingi oshirish etadi. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va muhokama etadi		
<b>Javob:</b>		1-v	2-a	3-s	

